O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

A.QODIRIY NOMLI JDPI PEDAGOGIKA FAKULTETI

**“TASDIQLAYMAN"**
Psixologiya kafedrasi mudiri

**_________dots. Yo.R.Alimqulov**

«_______»___________ 2010 yil

**«PSIXOLOGIYA»** KAFEDRASI **«Umumiy psixologiya»** FANIDAN

# Laboratoriya ishlanmalari



**Jizzax 2009-2010 o’quv yili**

**Ushbu laboratoriya mashg'ulotlari kafedraning 2009 yil 27-avgustdagi №1-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va darsga tavsiya etilgan.**

**Tuzuvchi va tayyorlovchilar: p.f.n., доц. YO.R.Alimqulov**

**O'qituvchi. O.Rajabov**
**O'qituvchi. A Chimanov**

# Mavzu: Faoliyat

## FAOLIYAT MAVZUSIDA O’TKAZILADIGAN LABORATORIYA ISHLARI

## <u>KLASTER TEXNALOGIYASI.</u>

- Klaster-fikrlashning to’g’ri chiziqli bo’lmagan shakli.
- YOzishni yaxshi ko’rmagan o’quvchilarga yaxshi vosita.
- Tasavvurlarga, anglanmagan bilim va bog’lanishlarga yo’l ochib beradi.

***KO’RSATMA.***

1. Oq varaqqa (yoki doskaga) so’z(lar) ni yozing.
2. Quyidagi so’zga tegishli bo’lgan hayolingizga kelgan so’zlarni yoki gaplarni yozing.
3. Fikrlar o’rtasidagi bog’lanishlarni o’rganing
4. Siz barcha fikrlaringiz tugaguncha yoki vaqt tamom bo’lguncha yozing.
5. Hayolingizga kelganini qoldirmasdan yozing. Sifatini o’ylamang.
6. Imloviy va yozuvni sekinlatadigan hatolarga e’tibor bermang.
7. Agar hayolingizga hech narsa kelmasa rasm chizib boshlang balki shunda yangi fikrlar paydo bo’lar.

## FAOLIYAT SO’ZIGA KLASTER TUZING.



## FAOLIYAT

**Topshiriq:**Faoliyat natijalarini bilish malakasining shakllanishiga ta’sirini tekshirish.

**Zarur materiallar:** Millimetrlarga bulingan lineyka.

**Topshiriqning bajarilishi:** Eksperementator lineykaning 1sm, 6 sm va 11 sm o’lchovlariga uchta aniq ko’rinarli chiziqcha chizadi. Tajribaning birinchi turida sinaluvchi qalamning uchi bilan lineykaga biriktirilgan belgini birinchi ko’rsatgich (1sm)dan ikkinchi ko’rsatgich (6sm)gacha surib boradi. So’ngra ko’zni yumgan holda belgini uchinchi ko’rsatgich (11sm)gacha surib borishi lozim. Topshiriqning natijasi sinaluvchiga ko’rsatilmagan holda eksperimentator tomonidan shartli belgilar (“Q`` ,``-``.) yordamida aks ettirib boriladi. Tajriba 15 marta takrorlanadi.

Tajribaning ikkinchi turida sinaluvchi tajriba natijalarini har safar ko’zini ochib, ko’zatib boradi.

Ikkinchi bosqich ham 15 marta takrorlanadi.

Tajriba natijalari quyidagi grafikda beriladi.



1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 11 1213 1415

**Hatolar (mm hisobida)**

Tik chiziq hatolarning o’sishi (mm hisobida) ifodalaydi.

Bunda hatolarning og’ishini (“Q’’, “-“) birgalikda qo’shib olingan.

Gorizantal chiziq tajribalar sonini ko’rsatadi. Kontur chiziq tajribaning birinchi turini, pastki chiziq esa tajribaning ikkinchi turining qiyosiy analizi faoliyati natijalarini bilish malakalarining shakllanishiga ijobiy ta’sir etishini ko’rsatadi.

## «JAMOADA JAMOAT ISHINI TASHKIL ETISH» NOMLI ISH O'YINI.

***Maqsad:***

Jamoani o'rganish usullari bilan tanishish va bu sohada tajriba almashish; jamoadagi shaxslararo munosabatlarni, undagi guruhlarni, guruh sardorlarini aniqlash; o'yin qatnashchilarida notiqlik, o'z fikrini o'zgalarga o'tkaza bilish qobiliyatini va munozara yuritish madaniyatini shakllantirish.

***Kutilayotgan natija:***

1. Insonning psixologik imkoniyatlarini o'rganish usullari bo'yicha bilimni egallash va bu bilimlardan foydalana ola bilish.
2. Notiqlik san'atiga ega bo'lish.
3. Odamlarni psixologik taxlil qila bilish ko'nikmasini o'zlashtirish.
4. Munozara yuritish madaniyatini egallash.

**Noaniqlik sharoitida o'z faoliyatini tanlash vaziyatida shaxs xulqi modeli bo'yicha imitaцion ishchanlik o'yini.**

***O'yinning maqsadi:***

1.Jamoada psixologik muxitni hamda liderlarni aniqlash.

2. Jamoada psixologik sharoitni, liderlarni (oq va qora) aniqlash, rahbar uchun jamoani samarali boshqarishga yordam.

**Liderni aniqlash uchun ushbu o'yin hohlagan jamoada ishlatilishi mumkin.**

***ISH O'YINI.***

***I. VAZIYAT:***

"Taqsimot bo'yicha bir oy mobaynida ishlaetgan jamoangizda Sizga jamoatchilik ishini tashkil qilish, hamda boshqarish vazifasi qo'yilgan".

Jamoangiz unchalik katta emas, tahminan 50 nafar odam. Sizga ------ tashkil qilish uchun bir xafta muddat berilgan. Xo'sh, jamoangizda jamoa hamda tashkiliy ishlarga qiziqqan odamlarni aniqlash uchun, qanday tashkiliy tadbirlar o'tkazish mumkin?(ishtirokchining blankiga qarang)

***II.O'YIN QOIDASI:***

1. Jamoa ishlariga faol nomzodlarni aniqlash, qisqa muddatda liderni, jamoa sardorini topish uchun Sizga berilgan harakat turlaridan bittadan-uchtagacha tanlashingiz mumkin.

Tanlangan ishtirokchilar blankida «*» belgisini qo'yib harakatingizni belgilang.

2. Har bir ishtirokchi individual ishida boshqa ishtirokchilar maslahatisiz, shaxsan o'zi echimni topishi kerak. Tushunmagan

savollarga rahbar javob beradi. Individual ishining tugatganligini ishtirokchi qo'lini ko'tarib bildiradi.

3. Barcha ishtirokchilar 4 kishidan iborat bo'lib guruhlariga bo'linadilar hamda erkin fikrlash jarayonida guruhlari o'zining yakuniy qaroriga keladilar. Ushbu bosqichda har bir ishtirokchining vazifasi guruhga o'z fikrining to'g'riligini o'tkaza olishdir.

Guruhlar o'zaro maslahatlashmaydilar. Ishning yakunlanganligi qo'l ko'tarish bilan bildiriladi.

4. Ish jarayonida guruhning vakili umumiy qarorini izoxlab, himoya qilib tushuntirib beradi. Boshqa guruhdagi ishtirokchilar savollar berib, qarama-qarshi fikrlar bildiradilar. SHunda guruh o'z fikrini himoya qiladi-bu erda munozara (tortishuv) ketadi.

5. O'yining rahbari guruhlar qaror chiqaraetganida aralashmasdan, faqat o'yinni nazorat qilib turadi.

6. Har bir ishtirokchi o'zining ishbilarmonlik xususiyatini, sifatlarini, shuningdek, o'z-o'zini baholash uchun berilgan tartibdagi ro'yhatdan 6 tasini tanlamog'i kerak.

O'z-o'zining ishbilarmonligini o'zi baholashi, boshqa ishtirokchilarning konsulьtaцiyasi individual tartibda oib boriladi.

7 Xarakter turini baholash: agar Siz tanlagan xislatlarning aksariyati birinchi yarmida bo'lsa, ijodiy xarakter; ikkinchisiga tushsa-bajaruvchi; uchinchisiga tushsa-tashkilotchi.

Agar Siz tanlagan xislatlar xarakterning uch turiga barobar taqsimot qilingan bo'lsa, demak, Sizga xarakterning uch turi ham xosdir.

8. Agarda ishtirokchi o'z fikrini guruhga o'tkaza bilsa hamda ijodiy va tashkilotchilik xarakteriga ega bo'lsa, ushbu ishtirokchi lider deb xisoblanadi.

### *III. ISH O'YINING TUZILISHI*

| RAHBAR | ISHTIROKCHI |
|---|---|
| 1. Vazifaning qo'yilishi<br>5. YAkunlash, natijani taxlil qilish. | 2. Individual echilishi.<br>3. Guruhning echimi.<br>4. Echimni muhokama qilish |

1. O'yinning rahbari vazifa qo'yadi, sharoitni hamda o'yinning qoidalari, ishtirokchilarning vazifalarini tanishtiradi.

2. O'yinning har bir ishtirokchisi individual ravishda hech kimdan maslahat so'ramasdan o'zining fikrini asos qilib, mustaqil echimini topadi.

3. Guruhning ishtirokchilari o'zaro muloqotdan keyin umumiy echimini berishi kerak.

4. O'z navbati bilan har bir guruh topgan echimini o'qib beradi, boshqa guruhlar opponent rolini o'ynaydi va o'zaro muloqot o'tkaziladi.

5. Rahbar o’yining natijasini taxlil qilib, baholarni xisoblab chiqadi, uning g’oliblarini ma’lum qiladi.

### *IV. O’YINNING MODELI*

1. Rahbar o’yining maqsadini tushuntirib beradi, ishtirokchilarni guruhlarga bo’ladi, blankalar tarqatadi, uning qoidalarini hamda yakuniy vaziyatni aytib beradi.

2. Berilgan blankalarda ishtirokchilar individual qabul qilgan echimini «*» belgisi bilan belgilaydilar.

3. Guruh qabul qilgan echimni blankaning o’z jadvlida «*» belgisi bilan belgilanadi.

4. Rahbar o’zining blankasida ishtirokchilarning individual va guruhning echimini belgilab, doskada axborot uchun ishning natijasini qayd qiladi.

5. Berilgan natijalar bo’yicha guruh muloqoti.

6. Guruh muloqotidan keyin hamma o’znnig echimini tuzatish uchun bir daqiqa beriladi. Ishtirokchilar qabul qilgan fikrlarni o’zgartirishni darxol rahbariga ma’lum qiladilar. Natijalar rahbarning blankasiga va doskaga tushishi kerak.

qaysi bir guruhning echimi tuzatish paytida qabul qilingan bo’lsa, o’sha guruhga qo’shimcha bir ball beriladi.

7. Ishbilarmonlik xarakter xususiyatini o’zi baholash ishtirokchilarning blankida o’ziga xos bo’lgan 6 ta fazilatni to’g’ri keladigan grafada «*» belgisi bilan bildirilishi kerak.

8. Ishtirokchi rahbar yordami bilan o’zining xarakteri qaysi turga qarashliligini aniqlab oladi (ijodiy, boshqaruvchan va tashkilotchilik).

Natijalar rahbarning blankiga va doskaga yoziladi.

9.O’yin bo’yicha olingan umumiy natijaning taxlili jadval bo’yicha doskada hamma ishtirokchilar uchun o’tkaziladi, uni yakunlash liderni aniqlash. Ba’zan o’yining maqsadi bo’ycha shunday taxlil natijalarini aytmasdan turib rahbarning blankiga ezib qo’yiladi. SHunda o’yin guruhning olgan o’rni bilan qancha tashkilotchi borligini aniqlash va baxs bilan tugallanadi.

### *V. O’YINNING REGLAMENTI*

O’yin bir davrda o’tkaziladi.

O’yinning har bir bosqichi bo’yicha tahminan ketadigan vaqt:

-rahbarning kirish so’zi-20 min.

-ishtirokchilarning individual ishi-10 min.

-guruhning bir qarorga kelishi-10 min.

-guruh baxsi-20 min.

-shaxsning o’z-o’zini baholashi-10 min.

-natijaning taxlili va yakunlanish-20 min.

Hammasi bo’lib o’yinga 1soat u, 30 minut (2x45) ketadi.

Guruh №___________ qatnashchi__________

“JAMOADA JAMOAT ISHLARINI TASHKIL ETISH”
ISH O’YINI QATNASHCHISINING VARAQASI

| № | Harakatlar | Ind. xukm. chiq | Guruhga xukm. chiq | Xarakteringizning ish xususiyatlari |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Jamoaning har bir a’zosi bilan shaxsan tanishsiz | | | 1. Mustaqillik<br>2. Ishga ijodiy endashish.<br>3.Tashabbuskorlik.<br>4.Aqlan qobiliyatlilk.<br>5. Tajribali va bilimli .<br>6. Tirishqoqlik.<br>7. Saranjom.<br>8. Diqqat-e’tiborlilik.<br>9.Ijro etuvchanlilik.<br>10.Intizomlilik<br>11.qat’iyatlilik.<br>12.Vijdonlilik.<br>13.Mexnatsevarlik.<br>14.Epchillik.<br>15.Sabr toqatlilik.<br>16.Ishchanlik.<br>17.Mas’uliyatlilik.<br>18.Tashkilotchilik. |
| 2. | Jamoadagi qiziqtirgan shaxslar to’g’risidagi ma’-lumotlarni kadrlar bo’-limida taxlil qilish | | | |
| 3. | SHaxsiy anketa savollarini tuzish va jamoaning har bir a’zosi tomonidan to’ldirilishini tashkil etish. | | | |
| 4. | Jamoat ishlarida tavsiya qilingan nomzodlarni muxokama qilish uchun yig’ilish o’tkazish. | | | |
| 5. | Jamoat ishlariga tavsiya qilinga nomzodlarni ja-moaning har bir a’zosi bilan muhokama qilish. | | | |
| 6. | Jamoaning har bir a’zo-sining xarakteri yaqqol namoen bo’ladigan bo’ladigan vaziyatni vujudga keltirish | | | |
| 7. | Jamoat ishiga bo’lgan mu-nosabatini aniqlash uchun topshiriq berishni tashkil etish. | | | |
| 8. | Jamoaning har bir a’zo-sini tashkilotchilik qobi-liyatini aniqlash uchun ish o’yini o’tkazish. | | | |
| 9. | Jamoat ishlarini qanday olib borishlikni shaxsan o’zi namuna tarzida ko’r-satib berish (hamma jamoat ishini o’zi olib boradi). | | | |
| 10 | Jamoat ishlarida qatna-shishiga ishonch xosil qil-diradigan suhbat o’tkazish. | | | |

Menejer uchun uning o’z imkoniyatlarini ochishga qaratilgan anketadan tashqari, unga qaratilgan (yo’naltirilgan) varaqa ekspert baholash muxim ahamiyat kasb etadi. Ekspert baholashga yo’naltirilgan anketa har xil vaziyatlarni o’rganishga mo’ljallanganligi tufayli qo’l ostidagi (tobe) kishilar tomonidan uning muomalasi, faoliyati samaradorligi, xulq-atvori, xususiyati, shaxsiy, irodaviy, emoцional, kognitiv, regulyativ xislatlari yuzasidan munosabat bildirish, baho berish orqali xarakterologik, etnopsixologik materiallar to’plashga imkon yaratadi. qo’l ostidagi hodimlarni baholash tizimi o’zining ob’ektivligi bilan boshqa mezonlar majmuasidan tafovutlanadi. Ayniqsa baholash

sirtdan o’tkazilishi empirik ma’lumotlar ishonchliligi, validligi, reprezentativligi ko’rsatkichlariga kafolat beradi.

Menejerning varaqaga bergan javoblari yigindisi bilan ekspert bahosi natijalari umumlashtirilsa, tekshiruvning ilmiylik darajasi yanada ortadi. Hodimlarning o’zaro munosabatlarini o’rganishga qaratilgan anketa o’z yo’riqnomasiga binoan turlicha vaziyatlarni aniqlashga hizmat qiladi. SHuningdek, guruh yoki jamoadagi munosabatlar majmuasi bo’lmish psixologik muxit moxiyatini ochadi, jipslik, hamdardlik, o’zaro hurmat, empatiya, attrakцiya, simpatiya, hamkorlik, o’zaro yordam, praksik yuksak xis-tuygular xolatini tavsiflaydi.

Menejment psixologiyasi asoslari ko’rsida ekspert baholash metodi muxim ahamiyat kasb etadi. Ekspert baholash metodining moxiyati shundan iboratki, menejer faoliyati, shaxsiyatiga beriladigan tashqi baho hamkasabalari, yordamchilari. qo’l ostidagi hodimlari, jamoatchilik tomonidan amalga oshiriladi. Ekspert baholash keng qamrovli bo’lib, u o’z ichiga menejerning turli sohadagi faoliyati yutugi (muvaffaqiyatsizligi), shaxslararo munosabati maromi, odobi (takti), shaxsiy fazilatlari (illati), xissiy kechinmalari, irodaviy sifatlari, fikrlash uslubi, qaror qabul qilish taktikasi va strategiyasi kabi ijtimoiy psixologik jabxalarni qamrab oladi. Ekspert baholashning muxim tomoni shundan iboratki, aksariyat xollarda mazko’r jarayon ob’ektivlik xususiyatiga ega bo’ladi. SHuningdek, u tanqidiy endashuvni o’ziga mujassamlashtiradi, muayyan darajada qat’iy dalillash unda ustuvorlik qiladi. Masalan, menejerning kim ekanligi uning qo’l ostidagi hodimlar, hizmatchilar tomonidan baholanishi aksariyat xollarda aniq, xaqchil, odilona hamda umumlashgan tarzda amalga oshiriladi. Bu masalani yanada oydinlashtirish uchun test savollari, so’rovnoma singari tekshirish, sinov mezonlaridan foydalaniladi. Menejer yoki mutaxassisni “o’ta ishchan yoki iste’dodli” deb baholash ekspertlarning umumiy fikrlarini o’zida mujassamlashtiradi. Ko’pchilikning unga nisbatan iliq, samimiy (garazgo’y) munosabati oqillikni o’zida aks ettiradi.

Ekspert baholash metodini qo’llash orqali rahbar kadr yoki hizmatchilar to’g’risida muayyan darajada ma’lumotlar to’plash imkoniyati tugiladi va ularning asosida psixologik tavsif yaratilishi mumkin. SHuning bilan birga insonlarda uchraydigan nuqsonlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga zamin xozirlanadi.

## *TEST. MULOQOTGA KIRISHUVCHANLIK.*

(V.Ryaxovskiy testi)

**quyida berilgan 16 savolga “ha”, “yo’q”, “ba’zan” deb javob bering.**

1.Sizni amaliy uchrashuv kutmokda. Uni betokatlik bilan kutasizmi?

2.Sizni biror kasallik holdan toydirmaguncha, vrachning oldiga borishni orqaga so’ravermaysizmi?

3.Sizni biror mavzudagi axborot bilan yig’ilish, majlis va shunga o’xshash tadbirda ma’ruza bilan chiqish topshirig’i havotirga soladimi?

4.Sizga ilgari bormagan shahringizga safarga borib kelishni taqlif etishdi. SHu safarga bormaslik uchun bor imkoniyatni ishga solasizmi?

5.O’zingizdagi hissiy kechinmalarni kimlar bilandir o’rtoqlashishni yaxshi ko’rasizmi?

6.Ko’chada sizga notanish odam biror iltimos bilan murojaat qilsa, sizning g’ashingiz keladimi?

7.Siz “Otalar va bolalar” muammosi borligi va turli avlod vakillarining bir-birlarini tushunishlari qiyinligiga ishonasizmi?

8.Tanishingizga bir necha oy avval olgan qarz pulini eslatishga uyalasizmi?

9.Oshxona yoki restoranda sizga yoqmaydigan taom berishdi, idishni chetga surib, achchig’ingiz kelganini yashira olasizmi?

10. Begona odam bilan yolg’iz qolganingizda, u birinchi bo’lib gap boshlasa, Sizga javob qaytarish malol keladimi?

11. Siz turli erlarda odamlarning uzun navbatda turishganini ko’rsangiz, toqatingiz toq buladimi? Navbatda turib kutishdan ko’ra, o’z niyatingizdan voz kechishni afzal ko’rasizmi?

12. Biror janjalli vaziyatni muhokama qilish kerak bo’lgan komissiyaning a’zosi bo’lishdan qo’rqasizmi?

13. Sizda biror adabiyot, san’at va madaniyat asarlarini baholashning sof individual mezonlari bor va bu borada boshqalarning fikrini kabul kilmaysiz. SHundaymi?

14. Sizga juda tanish bo’lgan masala bo’yicha boshqalarning noto’g’ri fikrlarini tasodifan eshitib qolsangiz, indamay qo’ya qolasizmi?

15. U yoki bu masalada yordam berishingizni so’rashsa, siz bundan og’rinasizmi?

16. O’z nuqtai nazaringizni og’zaki bayon etgandan ko’ra, uni yozma tarzda ifodalashni afzal ko’rasizmi?

**Endi ballarni hisoblang:**

“ha” – 2 ball, “ba’zan” – 1 ball, “yo’q” – 0.

SHu tarzda ballarni qo’shib chiqqach, odamlarning qaysi toifasiga kirishingizni bilib olasiz.

**14-18 ball.**Sizning muloqotga kirishuvchanligingiz yaxshi, o’rtacha. Siz ko’p narsaga qiziqasiz, boshqalarni bajonidil tinglaysiz, o’zgalar fikriga sabr-toqatlisiz, o’z fikringizni bosiqlik

bilan izhor etasiz. Begonalar bilan uchrashuvga borish siz uchun unchalik nohush emas, lekin shovqin-suronli davrani yoktirmaysiz, odamlarning sergapi sizga yokmaydi.

**9-13 ball.** Siz muloqotga kirishuvchansiz. Kizikuvchan, sergap, turli masalalarda o'zgalar bilan gaplashishni yaxshi ko'rasiz. YAngi odamlar bilan tanishish, davraning diqqat markazida bo'lishni yoktirasiz. O'zgalarning iltimoslarini bajarmasangiz ham qabul kilaverasiz. Achchig'ingiz tez, lekin tez soviysiz. Sizga sabr-tokat, qiyinchiliklar bilan to'qnashganda jasorat etishmaydi. Lekin astoydil xohlasangiz, o'zingizni yon bermaslikka ko'ndirishingiz mumkin.

**4-8 ball.** Sizning muloqat malakangiz yomon emas, siz barcha ishlarning guvohi bo'lib yurasiz. Munozaralarda qatnashishni yaxshi ko'rasiz, biror masala yuzasidan yuzaki tasavvurga ega bo'lsangiz ham, o'z fikringizni aytishni xohlaysiz. Ishni ohiriga olib bora olmasangiz ham har kanday ishni boshlayverasiz. SHuning uchun ham rahbarlaringiz va kasbdoshlaringiz sizdan havotirda bo'lishadi. Bu hakda uylab ko'ring.

**3 va undan kam ball.** Sizning kommunikativ malakalaringiz yaxshi emas, siz sergapsiz, har narsaga aralashaverasiz. O'zingiz umuman behabar bo'lgan narsalar xususida ham fikr yuritaverasiz. Ixtiyorsiz tarzda turli ziddiyatlar va janjallarning ishtirokchisiga aylanib qolasiz. Jizzaki, salga hafa bo'ladigan odatingiz bor, shuning uchun odamlar siz bilan chiqisha olmaydilar. O'zingizni tutish, sabr-toqatli bo'lish uchun odamlarga hurmat bilan qarashga o'rganing.qolaversa, o'z sog'lig'ingiz haqida kayg'uring, chunki bunday hayot tarzi izsiz bulmaydi, asablaringiz charchab qolishi mumkin.

Mavzu: DIQQAT

**DIQQAT MAVZUSIDA O'TKAZILADIGAN LABORATORIYA ISHLARI**

## KLASTER TEXNALOGIYASI.

- Klaster-fikrlashning to'g'ri chiziqli bo'lmagan shakli.
- YOzishni yaxshi ko'rmagan o'quvchilarga yaxshi vosita.
- Tasavvurlarga, anglanmagan bilim va bog'lanishlarga yo'l ochib beradi.

***KO'RSATMA.***

8. Oq varaqqa (yoki doskaga) so'z(lar) ni yozing.
9. Quyidagi so'zga tegishli bo'lgan xayolingizga kelgan so'zlarni yoki gaplarni yozing.
10. Fikrlar o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganing
11. Siz barcha fikrlaringiz tugaguncha yoki vaqt tamom bo'lguncha yozing.
12. Xayolingizga kelganini qoldirmasdan yozing. Sifatini o'ylamang.
13. Imloviy va yozuvni sekinlatadigan xatolarga e'tibor bermang.
14. Agar xayolingizga hech narsa kelmasa rasm chizib boshlang balki shunda yangi fikrlar paydo bo'lar.

## IQQAT SO'ZIGA KLASTER TUZING.



# DIQQAT

**Diqqatning ko'chishi**

**Tadqiqotning maqsadi:** qora-qizil rangli raqamlardan to'zilgan jadval yordamida diqqatning ko'chish xsusiyatini tekshirish.

**Tadqiqot uchun zarur jixozlar, asboblar:** Sekundomer va rang jixatdan bir-biriga uyg'un bo'lmagan betartib holda, mantiqiy esda saqlab qolishning oldini olish maqsadiga muovofiqlashtirilgan tartib (kambinaцiya) va to'zilgan 1dan 25gacha va 1dan 24gacha qizil rangli raqamlar (tekshiriluchi oldindan tayyorlangan jadval).

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 8 | 9 | 24 | 20 | 15 | 6 | 19 |
| 4 | 5 | 12 | 1 | 24 | 13 | 23 |
| 14 | 18 | 17 | 22 | 2 | 11 | 6 |
| 22 | 11 | 7 | 21 | 8 | 3 | 9 |
| 2 | 7 | 16 | 23 | 19 | 16 | 3 |
| 13 | 1 | 21 | 5 | 10 | 25 | 17 |
| 15 | 10 | 18 | 20 | 4 | 14 | 12 |

**Tadqiqotning borishi:** tadqiqot 3-seriyada o'tkaziladi.

**Birinchi seriya:** bundan tadqiqotchi tekshiriluvchiga jadvaldagi qora rang bilan yozilgan 1 dan 25 gacha bo'lgan raqamni o'sib boruvchi tartibda ko'rsatib berishni taklif qiladi.qaror yozib boruvchi esa tekshiriluvchi bu topshiriqni qancha vaqt ichida idrok etishini sekundomer vositasida aniqlab, yozib boradi.

**Ikkinchi seriya**: Tadqiqotchi tekshiriluvchidan jadvaldagi qizil raqamlarni 24 dan 1 gacha kamayuvchi tartibda ko'rsatib berishni taklif qiladi.

Qaror yozib boruvchi esa xudi oldingi seriyadagi kabi tekshiriluvchining topshiriqni bajarish uchun sarflagan vaqtini aniqlab yozib boradi.

**<u>Uchinchi seriya</u>**: Bunda tekshiruvchi, tekshiriluvchiga bir vaqtning o'zida galma gal qora qora raqamlarni kupayib boruvchi tartibda ko'rsatib berishni taklif qiladi. qaror yozib boruvchi topshiriqning xarakteri uning bajarilishi uchun ketgan vaqt va yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab qarorda qayd etadi.

Tadqiqot natijalarini taxlil qilish: qaror yurituvchining yozuvlari asosida uchala seriyadagi topshiriqni bajarish uchun tekshiriluvchi qilgan vaqt va yo'l quyilgan xatolarni quyidagi qaror jadvalida qayd etilib qo'yiladi.

Topshiriq natijalarini ishlab chiqish. Protokol yozib boruvchinig yozuvi asosida uchala seriya topshiriqni bajarishga ketgan vaqt va yo'l qo'yilgan xatolar quyidagi jadvalga yoziladi:

| Ko'rsatkichlar | 1-seriya | 2-seriya | 1-2- seriya | 3-seriya |
|---|---|---|---|---|
| Vaqt | | | | |
| Xatolar | | | | |

3-seriyada, garchi 1 va 2 seriyadagi faoliyat turlari aynan bajarilgan bo'lsada, bunda sarflangan vaqt dastlabki ikki topshiriqni bajarishga ketgan vaqt miqdoriga teng emas. Har ikki vaqt miqdori orasidagi farq sinaluvchi diqqatining bir faoliyat turidan ikkinchisiga ko'chishi uchun ketgan vaqtni ko'rsatadi. **YUqoridagi metodikaning murakkablashtirilgan varianti.**



## DIQQATNING KO'CHISHINI TEKSHIRISH.

Tekshiruvchi:

Sana:

| Ko'rsatkich | 1seriya | 2-seriya | 1-2seriya | 3seriya |
|---|---|---|---|---|
| Vaqti | | | | |
| Xatosi | | | | |

Uchinchi seriyada bajarilgan topshiriq uchun sarflagan vaqt, garchi qolgan ikkala seriyada ham huddi shu xil shu topshiriq bajarilganidek ko'rinsada oldingi 2-seriyadagi topshiriqni bajarish uchun sarflangan vaqt bilan 3 chi seriyada bajarilgan topshiriq uchun sarflangan vaqt teng emas. Ana shu ikkala vaqt ko'rsatkichi orasidagi farq mazkur tekshiriluvchi diqqatining ko'chirilish vaqti ya'ni bir faoliyatdan ikkinchi bir boshqa faoliyatga o'tishi vaqti bo'lib hisoblanadi.

**Diqqat deb**–ongimizning muayyan ob'ektga yunaltirilishi va ana shu ob'ekt ustida to'rejaishiga aytiladi. Ongimizga yunaltirilgan narsa va hodisalar diqqatning ob'ekti deyiladi.

**Diqqatni bir necha turga bo'lamiz:**

**Aktivligiga qarab:**
1.Ixtiyoriy
2.Ixtiyorsiz
3.Ixtiyoriydan so'nggi

**Ob'ektiga qarab:**
1.Tashqi
2.Ichki

**Faoliyat shakliga qarab:** individual, guruh, jamoa.

**Ijtimoiy diqqat:** Ongning oldindan belgilangan maqsadga muvofiq irodaviy va asabiy aktivlik ko'rsatgan holda muayyan ob'ektga yunaltirilishi va ana shu ob'ektga to'g'rilashga aytiladi.

**Ixtiyorsiz diqqat:** ongimizning oldindan belgilangan maqsadsiz ravishta muayan ob'ektga yunaltirilishi va unda to'g'rilashiga aytiladi.

**Ixtiyoriydan so'nggi diqqat:** Ongimizning muayyan ob'ektga avvalo ixtiyoriy ravishda qaratilib, so'ngra uning ahamiyati tushunilgan sari o'z-o'zidan qaratilib boriladigan diqqatga aytiladi.

**Tashqi diqqat:** Ongimizning o'z sub'ektiv voqeylikdagi va narsa-hodisalarga ularning belgi yoki xsusiyatlariga yunaltirilishi va unda aktiv to'rejaishiga aytiladi. M: xushmuomalalik.

**Ichki diqqat:** Ongimizning o'z sub'ktiv tassurotlarimiz, his-tuygularimiz, intilishlarimizga qaratilishi hamda to'rejaishiga aytiladi.

**Diqqatning bir qator xususiyatlari bor:**

1.**Diqqatning kuchi barqarorligi-**odam o'z diqqatini birorta narsa yoki hodisa ustida o'zoq muddat davomida muttasil qaratib olishi diqqatning kuchi yoki barqarorligi deyiladi.

2.**Diqqatning xajmi (ko'lami):** Bir vaqtning o'zida qamrab olinishi.

3.**Diqqatning bo'linishi:** Ayni bir vaqtda diqqatimizning ixtiyorsiz ravishda 2 yoki undan ortiq ob'ektga qaratilishi tushiniladi.

4.**Diqqatning ko'chirilishi:** diqqatni ongli ravishta o'ylab, bir narsadan boshqa narsaga o'tkazishi.

5.**Parishonxotirlik-**Diqqatning haddan tashqari harakatchanligi yoki aksincha qotib qolganligi tushiniladi.

Diqqat shaxsning aktivligi va uning ob'ektiv voqelikdagi predmet va hodisalarga bo'lgan saylanma munosabati o'z aksini topadi. Unda inson psixikasining boshqaruvchanlik roli namoyon bo'ladi: diqqatsiz maqsadga muvofiq ish yuritish mumkin emas.

Ishning to'g'ri yuritilishini va bu ishning maxsuldorligini ta'minlovchi fakt-kishining turli shart-sharoit hamda vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutishida uning diqqati o'ynaydigan rolni aniqlash anchayin mushqo'l. Har qanday masalani yoki qanday hayotiy muammoni echish kishidan mazkur masalaning mohiyatiga, harakat uslubiga diqqatni to'plash va aktiv qaratishni talab qiladi.

O'quvchi, qanday yoshda bo'lishidan qat'iy nazar, diqqatini dars vaqtida o'qituvchi tushuntirayotgan mavzuga qaratmasa, o'qituvchi so'zlarini tushunmaydi, darsni idrok qilolmaydi. O'quv materialini dastlabki idrok qilish, uni anglash va mustaqil esda saqlab qolish maqsadida qilinadigan keyingi ishlar o'quvchilardan barqaror diqqatni talab qiladi.

Diqqat va diqqatlilikni tarbiyalashda o'quv proцessini to'g'ri tashkil qilishning o'zigina etarli emas. Bunda o'quvchilarning uyushqoqliligi va intizomliligini ta'minlovchi kundalik rejimning yo'lga qo'yilishi ham katta rolь o'ynaydi.

**Topshiriq.**

Instrukцiya. Talabalarga quyidagicha topshiriq beriladi.

- Hozir men sizlarga bir sekund ichida bir qancha sonlar yozilgan rasmni ko'rsataman. Men rasmni ko'rsatib bo'lgach, mazkur sonlarni bir-biriga qo'shing va natijasini yozing.

Keyin ichda «bir, ikki…» deb sanab, bir sekund ichida talabalarga ichiga raqamlar yozilgan uchta turli geometrik figuralarning rasmi

ko'rsatiladi. Ular qo'yidagicha bo'lishi mumkin: kvadrat – sakkiz, uchburchak – uch, aylana – to'qqiz.

Talabalar natijani chiqarib bo'lishgach, ulardan qaysi figura ichiga qanday son yozilganligi so'raladi.

qo'lga kiritilgan materiallardan diqqat xususiyatlarining (xajmi va bo'linishi) namoyon bo'lishi to'g'risida va diqqatda ustavnovkaning roli xakida tegishli xulosa chiqariladi.

**Topshiriq.**

1. Sinaluvchi harflarni alfavit tartibida aytadi va har bir harfdan so'ng ma'lum bir sonni ham qo'shib aytadi. Bunda A harfiga birni, undan keyingi harflarga uch sonini qo'shib, ya'ni a – bir, b – turt, v – etti, g – un, d – un uch va shu va shu tarzda «f» harfigacha aytiladi. Sarflangan vaqt doskaga yozib qo'yiladi. Mazkur tajribani yana ikki-uchta talaba takrorlaydi.

2. a) sinaluvchi doskaga 1 dan 20 gacha bo'lgan sonlarni yoza boshlaydi va bir vaqtning o'zida bu sonlarni ovoz chiqarib teskarisiga -20 dan 1 ga qarab o'qiydi va hokazo.

b) sinaluvchi kitobda biror narsani ovozni chiqirib o'qiydi va ayni paytda doskaga boshqa bir narsani (masalan:Q-Q-Q-Q-Q va x.k.) yozadi.

Qolgan talabalar bu har ikala ishning qay darajada oson va bab-baravar bajarilishini ko'zatib boradilar. Mazkur tajribani yana talaba takrorlaydi.

Ekisperimentator diqqatining bo'linishiga doir bu tajribalar yakunini talabalar hamkorligida umumlashtiradi.

**Topshiriq.**

Diqqatning barqarorligini Burdonning korrekцion jadvali yordamida aniqlash.

Insktrukцiya. Tajribaning nomi eьlon qilingach, har bir talabaga ilgari tayyorlab qo'yilgan Burdon jadvalidan ikkitadan tarqatiladi. Jadvallardan birining yuqori kismi o'ng burchagiga «Sinov tajriba», ikkinchisining shu joyiga esa «Asosiy tajriba» deb yozilgan bo'ladi.

S i n o v t a j r i b a u ch u n

**BURDON JADVALI**

**A M K Z G X B K SH Z P YU V R B X P A E T D J S G R V X S YU G I K V P D R G M A I T K O B E M F O I YU SH L Z J V P E P CH N V S J U L X YU R X B YA Z SH I O S V CH E T E S P M N O R J X SH N A E CH YU P J V L YU F O P V A K CH M K CH Z SH A J K YA D X I S V P B YU J R S P V U YU SH A T X G M K R A T YU D D R G R L V R G A M K E T N Z O U B X F P L J SH YA I S YU D YU X V T U CH P YA I X N L U T SH I G V B K O G Z M X YA R D A CH E YU J S F N P D S R K G.**

Talabalarga sinov tajriba uchun tayyorlangan jadval va qalamni qo’lga olish aytilgach, bajarilishi lozim bo’lgan ish tartiibi tushuntiriladi:

Oldilaringizda harflar yozilgan qog’oz turibdi. Sizlar bu harflarni diqqat bilan ko’zdan kechirib, ularning ichidan A M K Z harflarni topib, vertikal chiziqlar Bilan so’ng ishga kirishasizlar va «Boshlanganlar» deyilgandan so’ng ishga kirishasizlar va “to’xtanglar” deganimda ishni bas qilasizlar.

Talabalar tomonidan berilgan ayrim savollarga javob qaytarilgach, sinov tajriba boshlanadi. U bir minutcha davom etadi. Keyin asosiy tajribaga o’tiladi.

1. Instrukцiya takrorlanadi. Bunda ham yuqoridagiga uxshab A M K Z harflari vertikal chiziqlar bilan o’chirilishi lozimligi ta’kidlanadi.

2. Talabalarni tajribaning har bir minuti utgach «CHiziqcha qo’ying» degan buyruq beriladi deb ogohlantiriladi. Buyruq berilgan paytda qaysi harfga kelgan bo’lsangiz shu harf ustiga chiziqcha qo’yishingiz lozim deb uqtiriladi.

3. Asosiy tajriba sinov tajribadan farqli ularok 8-10 minut davom etadi. Ikkinchi, turtinchi va oltinchi minutlarda qo’shimcha qo’zg’ovchi ham (masalan, qalam bilan stolga bir maromda urish orqali) ishga solinadi.

Asosiy tajriba tugagach, natija quyidagi tartibda ishlab chiqiladi:

1. Asosiy tajribaning har bir minuti buyicha quyidagi ko’rsatkichlar hisoblab chiqiladi:

a) o’chirilishi lozim bo’lgan harflarning umumiy soni;

b) ulardan o’chirilmay qolgan yoki noto’g’ri o’chirilgan harflarning miqdori.

2. Mazkur ko’rsatkichlarning 1, 3, 5, 7 va 2, 4, 6, 8 minutlar buyicha jami.

3. Diqqatning birinchi, uchinchi, beshinchi, ettinchi va ikkinchi, turtinchi, oltinchi, sakkizinchi minutlar buyicha barqarorlik darajasi hisoblab chiqiladi. Buning uchun dastlab to’g’ri o’chirilgan belgilar umumiy sonidan o’chirilmay qolgan yoki noto’g’ri o’chirilgan harflar soni ayirib tashlanadi va har bir minutda ko’zdan kechirilgan tekstdagi

o'chirilishi lozim bo'lgan harflarga nisbatan to'g'ri o'chirilgan belgilar proцenti hisoblab chiqiladi. Natija (proцent hisobida) diqqatning quyidagi barqarorlik normasiga asoslanib ko'rsatilishi mumkin.

Eng yaxshi ko'rsatkich – 81 – 100

YAxshi ko'rsatkich – 61 – 81

Urtacha ko'rsatkich – 41 – 81

Past ko'rsatkich – 21 – 40

Diqqatning barqarorligini aniqlashda sinaluvchiga qo'shimcha qo'zg'ovchi orqali ta'sir ko'rsatilgan ikkinchi, turtinchi, oltinchi, sakkizinchi minutlardagi ko'rsatkich, ayniqsa harakaterli hisoblanadi. (Tajriba «Praktikum po psixologii» Leningrad, 1970, kitobidan olindi).

**Topshiriq.**

Korrektur sinov metodi bilan diqqatning ko'chish xususiyatini tekshirish.

**Korrektur sinov qog'ozi (blankasi).**

JFSYAGXBKSHZPYUVRBXPAETDJSGRVXSYUGIKVPDRGMAITKOBE
MFOIYUSHLZJVPEPCHNVSJULXYURXBYAZSHIOSVCHSPMNORJXSH
NAECHYUPLYUFOVAKCHMKCHZSHAJKYADXVPYUJRSPVUYUSHA
TXGMKRATYUDDRGRLVRGAMKETNZOUBXFPLJSHYAIDYUXVTUC
HPYAIXNLUTSHIGVBKOGZMXYARDACHYUJSFNPDSRKGNAB

**Topshiriqning bajarilishi**. Sinaluvchi birinchi ikki satrdan masalan, s va b harflarini, uchinchi satrdan esa o va sh harflarini o'chiradi. Keyingi yana ikki satrdan s va b undan keyingiidan o va sh harflarini o'chiradi. O'chirilgan qatorlar ustini qog'oz bilan yopa borib, yuqoridagi tartibda 9 minut mobaynida ishlaydi.

**Topshiriq natijalarini ishlab chiqish**.Sinaluvchining eksperiment davrida necha martda xatoga yo'l qo'yilgani aniqlanadi. Bunday xatolar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan: A) satrlarni qaydlashdagi xato (sinluvchi s va b harflarni ikki emas, balki uchta satrdan yoki o va sh harflarni bitta satrdagina o'chirish xolatlari uchrashi mumkin);

b)satrlarni tashlab ketish (s va b harflarni ikki satrdan o'chirish urniga ularni bir satrdagina o'chirish, o vash harflarni tashlab ketish, satrdan xech narsani o'chirmaslik xollari). Yo'l qo'yilgan barcha xollar jamlanadi. Diqqatning ko'chishidagi xolatlar quyidagi formula buyicha hisoblanidi.

$$S- 100\%*\frac{A}{B}$$

Bunda S – diqqatning ko'chishida yo'l qo'yilgan xato foiz hisobida, A- noto'g'ri ishlatilgan satrlar soni, B- jami qatorning miqdori.

**Topshiriq.**

Diqqatning bo’linishini yaxshilashda mashq qilishning roli:

a)sinaluvchi bir vaqtning o’zida ikki xil ishni bajirish, masalan, yozma hisob chiqarish va yodlangan sheъrni og’zaki aytish taklif qilinadi. Yo’l qo’yilgan xatosi va ishning bajarilish tezligiga qarab diqqatning bo’linishi bajarilish tezligiga qarab diqqatni bo’lishi va bunda mashq qilishning ahamiyati to’g’risida xulosa chiqariladi;

b) kartochkaga oralig’i 1-3 mm masofada tartibsiz joylashgan nuqtalarni xech qanday vositasiz, iloji boricha tez va ovoz chiqarib sanash topshiriladi. Tajriba har safar nuqtalar joylashuvi va ular orasidagi masofani o’zgartirish orqali bir necha takrorlanadi. Ishning natijasi, ayniqsa, hisobning tez va to’g’riligi diqqatning bo’linsh tezligini oshiradi mashq qilishning ahamiyati katta ekanligi yaqqol ko’rsatadi; v) sinaluvchilar o’z faoliyatini yozadilar va bir vaqtning o’zida mazkur tarkibidagi harflarni ovoz chiqarib, teskarisiga ayta boshlaydilar. Dastlab buning uddasidan chiqish qiyin. Nega? Bu ishning uddasidan chiqish uchun diqqatning qanday xususiyati talab qilinadi? Bu xususiyatni taraqqiy qildirishda mashq qilishning ahamiyati ko’zatiladi.

**Darsda o’quvchilar diqqatini kuzatish dasturi.**

1. Dars boshlanishida o’quvchi diqqatining ahvoli.

Kuzatish natijasida «Dastlab o’quvchi diqqati darsga qay yo’sinda safarbar qilinadi va materiyani idrok qilishga hamda o’qvchilarga nisbatan muomala uslublariga (pedagogik nazorat);

b) darsning reja asosida o’tkazilish, davomatning tekshirilishi, dars mavzusining eъlon qilishi, uning mazmuni va ahamiyatining ochib berilishi, dars reja va o’quvchilarning ish metodlari xakida maъlumot berilishiga (o’quvchilar ongiga zarur ixtiyoriy diqqat ustanovkasini yaratish); v) sinovning jixozlashi va uning sanitariya gigiena sharoit (o’quvchi dikktini darsga to’la yunaltirishga sinfdagi tashqi sharoitning mosligi) ga etibor berilishi kerak.

2. dars proцessida o’quvchi diqqatini bo’lib yubormaligining yo’li va usullari. Buni aniqlash uchun talabalar diqqati darsning quyidagi elementlariga qaratiladi:

a) o’qituvchi tomonidan materialning tushuntirishdagi izchillik, sermazmunlik, sermavzulik va mantiqiylik. Fikrini ifodalashdagi emoцionallik va yorqinlik. Fikrni ifodalashdagi emoцionallik va erkinlik. Avvalgi bilim, shuningdek kuzatish, ekursiya maъlumolaridan foydalanish.

b) YAngi materiallarini bayon etishda o’quvchilarning mustaqil fikrlashini aktivlashtirishga qaratilgano’qituvchi savollarning xilma-xiligi va  almashinib turishi (suxbat, o’qituvchi xikoyasi mustaqil ish va boshqalar);

v) darsning texnikaviy jixozlanishi (darsda kinoda, turli ko’rgazmali qurollardan foydalanish. O’qituvchi ko’rgazmali qurollarni namoyish qilishi va texnikaviy vositalardan foydalanishda, o’quvchilar idroki va diqqatini boshqarib boradi (bilimga qiziqish va ko’zatuvchanlikning o’sishi);

g) darsning zichligi (dars paytida tushuntiriladigan material va qilinadigan ishlarning mundarijasi)

d) darsda o’quvchi diqqatining namoyon bo’lishi xususiyatlari; diqqatining barqarorligi, taqsimlanishi, ko’chishi. Darsning turli bosqichlarida diqqatning etakchi diqqat turiga o’tishi, buning sababi; o’quvchilar diqqatining chalg’ishi va uning sababi;

e)sinf jamoasi tomonidan har bir o’quvchi diqqatiga hamda o’quvchilarning o’z shaxsiy diqqatlariga ongli javobgarlikni sezishining ko’rinishlari;

yo)darsda o’quvchilar diqqati individual hususiyatlarining ko’rinishi parishonxotirlik, diqqatining konцetraцiyasi, engil ko’chishi, taqsimlanishi va xakozalar.

Har bir talaba mazkur programma asosida sinfdagi barcha o’quvchilarni kuzatish bilan birga ulardan birini har tomonlama va chuqur o’rganish ob’ekti qilib tanlab oladi. Bu o’quvchi diqqatining xususiyatlari, undagi parishonxotirlik va beqarorlikni o’rganadi. Diqqatning barqarorligi o’quvchi shaxsida shakllanib borayotgan xususiyat sifatida aniqlanadi.

Talabalarga kuzatish natijalarini qayd qilish yuzasidan yo’l-yurik beriladi. YOzuv va turejaadigan ma’lumotlar o’quvchilar diqqatiga harakateristika beradigan darajada etarli bo’lishi lozimligi tushuntiriladi. Har birlari o’z kuzatishlari asosida va tegishli adabiyotlardan foydalanib «Darsda o’quvchi diqqat» degan mavzuda ish tayyorlashlari ogohlantiriladi.

Aytib utilganlarni tashkil qilishda talabalar e’tibori turli yosh gruppalardagi o’quvchilar diqqatini o’rganish zarurrligiga qaratiladi.

Instruktiv suxbat so’ngida qo’lga kiritilgan ma’lumotlarni ishlashda asosan qaysi masalalarga kuprok diqqat qilish lozimligi aytib o’tiladi, ya’ni:

1. O’quvchilar diqqatini utilayotgan darsga tulik safarbar qilish qanday amalga oshirildi? O’quv materiallarini aktiv idrok qilish hamda o’quv topshiriqlarini tulik bajarish ustanovkasi yaratildimi? Bu maqsadda o’qituvchi nima ishlar kildi?

2. o’quvchilar diqqatini tegishli darajada bo’lmaslikka erishildimi? Darsning qaysi momentlarida o’quvchilar diqqati kuchaydi yoki pasaydi? O’quvchilar diqqatini tarbiyalash borasida o’qituvchi qanday ishlarni amalga oshirdi?

Ayrim talabalarga yakuniy darslarda asosiy masalalar yuzasidan o’z fikrlarini bildirish uchun imkon yaratish lozim.

Darsda o’quvchilarning diqqatini kuzatishni quyidagi jadvalda ko’rsatish mumkin:

| O’qituvchining dars paytidagi faoliyati | O’quvchi nima kilayapti (dars bosqichi buyicha) | Talabaning xulosasi |
|---|---|---|
| | | |

## *«KUBIKLAR» «LINK KUBI» METODIKASI.*

Ushbu metodikadagi qo’llanma 3x3 sm o’lchamdagi 27 ta kubiklardan iborat.

27 kubiklar yig’ilib, (3x3 sm) bitta katta kubni hosil qiladi. Katta kubikning (yig’ilgan) ustki qismi qizil yoki havo rang, ichki qismi oq yoki sariq rangda bo’lishi kerak. Ushbu katta kubni kichkina kubikchalarini faqat to’g’ri joylashtirgandagina yig’ish mumkin.

## Tekshiriluvchiga beriladigan ko’rsatma (qo’llanma).

Sizning oldingizga ustki qismi bir hil rangda va ichki qismi boshqa hil rangda bo’yalgan kubiklar turibdi. (Eksperimentator bir nechtasini olib ko’rsatishi mumkin).

Siz xohlagan kubigingizni olib ko’rishingiz mumkin.

So’ngra «men bu kubikni buzib kubikchalarni aralashtiraman, siz esa xuddi shunday kubikni qurib berishingiz kerak». (agar tekshiriluvchi bir nechta savol bersa, eksperimentator kubikni buzmasdan savollarga javob berishi kerak).

Agar tekshiriluvchi 15-20 minut davomida kubikni yig’a olmasa yoki juda ham qiyinchilik Bilan shuncha vaqtda yig’sa, unga bu topshiriqni boshqatdan berish mumkin.

## Tekshiriluvchining qurish taktikasi
## (analiz-tahlil)

***1-uslub.*** Joyiga qarab terish uslubi: Bunda tekshiriluvchi bita joyga kubikchani joylashtirish uchun hamma kubikchalarni birma-bir ko’rib chiqa boshlaydi. Bu noto’g’ri taktika. CHunki birma-bir ko’rib chiqishda juda ko’p hatoliklarga yo’l qo’yadi ko’p vaqt sarflaydi.

***2-uslub.*** Optimal terish uslubi: Bunda tekshiriluvchi qo'liga olgan kubikchani o'z joyiga qarab bir yo'la qo'yib keta boshlaydi. Tekshiriluvchilar kubikni mana shu ikki usulda quradilar.

**Natijalar tahlili.**

Tekshiriluvchi kubikni qurish paytida tanlagan ish uslubi va yo'l qo'ygan xatolariga qarab, diqqatini yaxshi jamlay olish yoki olmasligini, xotirasining konkret esda olib qolish yoki qolmasligini, temperamentida nomoyon bo'ladigan ba'zi hususiyatlar (Neyrotizmning yuqori yoki pastligi) qay darajada shaxsga xalaqit berishi va shu kabi hususiyatlar aniqlanadi.

Kubni qurishda yaxshi ko'rsatgichlarga asosan, texnik tafakkuri, amaliy tez qaror qabul qilishi, ba'zi konstruktiv qobiliyatlar va fazoviy tasavvuri yaxshi shakllangan tekshiriluvchilar erishadi.

Bundan tashqari kubikni yig'ish jarayonida tekshirilayotgan kishining frustraцiyasini, agressiyasini, iroda va diqqatining qay darajada nomoyon bo'lishini kuzatish mumkin. Bundan tashqari psixomotorik xususiyatlar ham kuzatiladi; qo'l, barmoqlar kordinaцiyasi.

Diqqatni bilish «shulьt» jadvali.

*Topshiriq: Bu jadvaldan 1 minut ichida raqamlarning o'sib borish tartibi bilan joylashishini ko'rsating.*

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| ***1*** | ***23*** | ***17*** | ***2*** | ***6*** |
| ***18*** | ***7*** | ***25*** | ***16*** | ***19*** |
| ***5*** | ***3*** | ***22*** | ***4*** | ***20*** |
| ***14*** | ***10*** | ***24*** | ***12*** | ***9*** |
| ***11*** | ***15*** | ***8*** | ***21*** | ***13*** |

**Sonlarni joylashtirish metodikasi.**

Bu metodika ixtiyoriy diqqatni baholash uchun mo'ljallangan.

TOPSHIRIQ: 2-minut davomida siz blankadagi kvadratlarga o'sib borishi bo'yicha tasodifiy tartibda berilgan sonlarni joylashtirib chiqing.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| ***16*** | ***37*** | ***98*** | ***29*** | ***54*** |
| ***80*** | ***92*** | ***46*** | ***59*** | ***35*** |
| ***43*** | ***21*** | ***8*** | ***40*** | ***2*** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| ***65*** | ***84*** | ***99*** | ***7*** | ***77*** |
| ***13*** | ***67*** | ***60*** | ***34*** | ***18*** |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

# MAVZU: SEZGI

## SEZGI MAVZUSIDA O'TKAZILADIGAN LABORATORIYA ISHLARI

## KLASTER TEXNALOGIYASI.

- Klaster-fikrlashning to'g'ri chiziqli bo'lmagan shakli.
- YOzishni yaxshi ko'rmagan o'quvchilarga yaxshi vosita.
- Tasavvurlarga, anglanmagan bilim va bog'lanishlarga yo'l ochib beradi.

***KO'RSATMA.***

15. Oq varaqqa (yoki doskaga) so'z(lar) ni yozing.
16. Quyidagi so'zga tegishli bo'lgan xayolingizga kelgan so'zlarni yoki gaplarni yozing.
17. Fikrlar o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganing
18. Siz barcha fikrlaringiz tugaguncha yoki vaqt tamom bo'lguncha yozing.
19. Xayolingizga kelganini qoldirmasdan yozing. Sifatini o'ylamang.
20. Imloviy va yozuvni sekinlatadigan xatolarga e'tibor bermang.
21. Agar hayolingizga hech narsa kelmasa rasm chizib boshlang balki shunda yangi fikrlar paydo bo'lar.

## SEZGI SO'ZIGA KLASTER TUZING.



## Sezgi chegaralarini aniqlash buyicha tajribalar o'tkazish.

### Muskul sezgisini farqlash chegarasi.

**Tadqiqotning maqsadi:** Xaar xil og'irlikdagi qadoq toshlar yordamida muskul sezgisini farqlash chegarasinianiqlash.

**Tadqiqot uchun zarur jixoz:** 1 grammdan 500 grammgacha bo'lgan har xil qadoq tosh va metall plastinkalar.

**Tadqiqotning borishi:** tekshiriluvchi ko'zini yumuk yoki bog'lab qo'yilgan o'ng va chap qo'liga bittadan qadoq toshni olib ularning vaznini chamalaydi .Har ikkala qo'lidagi u qo'lidan bu qo'liga almashtirib ,chamalab salmoqlab ko'rishi ham mumkin dastlab har ikkala qo'lidagi toshning vazni baravar bo'lishi kerak. Tekshiriluvchining bir qo'lidagi qadoq tosh, taqqoslash uchun o'zgarmas me'yor bo'lib xizmat qilsa, ikkinchi qo'lidagi qadoq tosh asta-sekin (1,2,3 va hokazo grammgacha)ortirttirib boriladi va toshlarning qay biri og'irlashganini tekshiriluvchidan damba-dam so'rab turiladi. Muayyan vaqtlargacha tekshiriluvchi ikkala qo'lidagi qadoq toshlarning vazndagi o'zgarishini sezmaydi. Nihoyat u bir qo'lidagi tosh ikkinchi qo'lidagiga nisbatan og'irlashganini aytadi. Tekshiruvchi tomonidan payqab olingan qo'shimcha og'irlik miqdori undagi muskul sezgisini farqlash, chegara ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Har bir tekshiriluvchi bergan ko'rsatkichlar qarorda qayd etib borilishi kerak

**Tadqiqot natijalarini taxlil qilish**: o'tkazilgan tadqiqot natijasi quyidagicha qarorlashtirilib taxlil qilinishi mumkin.

**Tajriba mavzusi**: Muskul sezgisining farqlash chegarasini tekshirish.

TEKSHIRUVCHI:--------------------------------

TEKSHIRILUVCHI:----------------------------

| Tartib № | Tavsiya qilingan qo’zg’ovchi (gramm hisobida) | | Tekshiriluvchidan olingan ko’rsatkich |
|---|---|---|---|
| | Doimiy | O’zgaruvchi | |
| 1. | 600 | 601 | Teng |
| 2. | 600 | 602 | — |
| 3. | 600 | 603 | — |
| 4. | 600 | 604 | — |
| 5. | 600 | 606 | — |
| 6. | 600 | 610 | — |
| 7. | 600 | 612 | — |
| 8. | 600 | 615 | — |
| 9. | 600 | 617 | — |
| 10. | 600 | 618 | — |
| 11. | 600 | 619 | — |
| 12. | 600 | 620 | O’ng qo’limdagi og’ir. |
| 13. | 600 | 620 | — |
| 14. | 600 | 620 | — |

Mazkur tajribaning ko’rsatishicha tekshiriluvchi sezgisidagi farq qilish chegarasi 20 grammga teng. Bu miqdor dastlabki tavsiya qilingan 600 grammlik vaznining 1,30 qismini tashkil qiladi. Bu ko’rsatkich har xil odamda boshqa-boshqa chiqishi mumkin. CHunki odamning yoshi, tajribasi, ish faoliyati bilan bog’lik holda sezgirlik chegarasi ham o’zgaradi.

## Odamning teri va badan orqali sezishini tekshirish.

**Tadqiqotning maqsadi:** talabalarga insonning bilish faoliyatida sezgining rolini ko’rsatib berish.

**Tadqiqot uchun zarur jixozlar:** unchalik katta bo’lmagan oddiy buyum (predmet): kalit, rezina, bor, tugma, ilmatugma kabilar.

**Tadqiqotning borishi:** tadqiqot ikki seriyada o’tkaziladi. Birinchi seriyada tekshiruvchi tekshiriluvchiga orqa ugirib, qaramay turishni taklif qiladi va dastlab tekshiriluvchining bamoklari ortiga, keyin kaftiga-barmoqlari uchiga kalit, rezina yoki ignatugmani qo’yadi. Har safar tekshiriluvchiga qarab: «Ushbu buyum haqida nima

deyishingiz mumkin?»,-degan savolni berib boradi. Tekshiruvchi tomonidan beridgan javoblarni guruh yozib boradi.

Tadqiqotning ikkinchi seriyasida tadqiqotchi tekshiriluvchiga predmetni ushlab ko'rishni taklif qiladi va birinchi seriyada o'tkazilgan tajriba jarayonidagi savolga javob berishni so'raydi. Tekshiriluvchining bergan javoblarini Bu safar ham butun guruh yozib boradi.

Har bir tajribani dastlab psihologiya o'qituvchisining o'zi o'tkazib ko'rsatadi. So'ngra talabalarning o'zlari mustaqil o'tkazadilar.

Tadqiqot natijalarini taxlil qilish: sinaluvchi kishida bir-biridan ajratilgan alohida-alohida sezgilar paydo bo'ladi. Bu sezgilar pridmetning nima ekanligini bilishga imkon bermaydi. Uning faqat ayrim xsusiyatlarini aks ettiradi: «qandaydir bir engil narsa», «yumshok bir narsa», «sovuk narsa», «metall buyum» va sho'nga o'xshash javoblar beriladi.

Ikkinchi seriyada o'tkazilgan tajribaning ko'p hollarida sinaluvchilar predmetning nima ekanligini aytib beradilar. CHunki predmet kompleks ko'zgatuvchi sifatida badan orqali sezish yordamida idrok etiladi. Bunda faqat teri sezgilari emas, balki kinesteratlari harakatga keltirilgan bo'ladi.

## KO'RISH SEZGISIDA IZCHIL RANGLAR KONTRASTINING HOSIL BO'LISH QONUNIYATI.

**<u>Tadqiqotning maqsadi</u>:** ko'rish sezgisida ranglar kontrastining hosil bo'lishini tekshirish.

**<u>Tadqiqot uchun zarur jihozlar:</u>** kattaligi 48X64 sm bo'lgan oq qog'oz varaqlari, ularga 15X15 sm kattalikdagi yashil, qizil, ko'k, sariq rangli kvadratlar qirqib yopishtirilgan, oq rangli ekran.

**<u>Tadqiqotning borishi</u>:** tajribani tabiiy kunduzgi yorug'lik sharoitida yoki kunduzgi yorug'likka yaqin bo'lgan nur taratadigan lampalar yorug'ligida o'tkaziladi.

Tajribada ishtirok etayotgan talabalar xonada shunday o'tiradilarki, ularning har biriga rangli kvadrat to'ppa-to'g'ri ko'rinib turadigan bo'lsin.

Kvadratlar ulardan 4 metrgacha o'zoqlikda o'rnatiladi. Talabalarga 20-40 sekund mobaynida rangli kvadratlarga tiqilish, keyin esa o'z nigohini ekranga ko'chirish hamda unda rangli kvadrat paydo

bo'lmaguncha nigohni o'zmay turish taklif qilinadi. Bunda turli kishilarda izchil ranglar kontrasti turlicha kechishini ta'kidlab o'tishi zarur.

Oldindan tayyorlab qo'yilgan barcha rangdagi kvadratlar bilan tajribani takrorlash zarur.

Tajribalar tamom bo'lgandan keyin ularning natijalarini yozib olish, yozilayotgan kvadrat rangini belgilash hamda izchil kontrastda paydo bo'layotgan ranglar tonini ko'rsatib yozish zarur. Bunda izchil kontrastlar harakatdan keyingi hodisa natijasi ekanligini ta'kidlab o'tish zarur. qo'zg'ovchi ta'sirining to'htashi reцeptordagi qo'zg'alish jarayonini hamda analizatorning miya po'stlog'i qismidagi qo'zg'alishlarni o'sha zohoti to'htamaydi

## MAVZU: IDROK

## IDROK MAVZUSIDA O'TKAZILADIGAN LABORATORIYA ISHLARI

## <u>KLASTER TEXNALOGIYASI.</u>

- Klaster-fikrlashning to'g'ri chiziqli bo'lmagan shakli.
- YOzishni yaxshi ko'rmagan o'quvchilarga yaxshi vosita.
- Tasavvurlarga, anglanmagan bilim va bog'lanishlarga yo'l ochib beradi.

***KO'RSATMA.***

22. Oq varaqqa (yoki doskaga) so'z(lar) ni yozing.
23. Quyidagi so'zga tegishli bo'lgan xayolingizga kelgan so'zlarni yoki gaplarni yozing.
24. Fikrlar o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganing
25. Siz barcha fikrlaringiz tugaguncha yoki vaqt tamom bo'lguncha yozing.
26. Xayolingizga kelganini qoldirmasdan yozing. Sifatini o'ylamang.
27. Imloviy va yozuvni sekinlatadigan xatolarga e'tibor bermang.
28. Agar xayolingizga hech narsa kelmasa rasm chizib boshlang balki shunda yangi fikrlar paydo bo'lar.

## IDROK SO'ZIGA KLASTER TUZING.



# IDROK

**Topshiriq:**

***Idrokning xususiyati.*** Tajribani o'tkazish uchun 5-6 buyum (o'chirgich, bo'r, paxta, otvyorka, knopka) zarur bo'ladi. Tajribada istagan talaba qatnashishi mumkin. Boshqa talaba esa («sekretar») sinaluvchining bergan ma'lumotlarini quyidagiga yozib boradi.

| № | Buyum | Sinaluvchining javobi | | |
|---|---|---|---|---|
| | | **1-bosqich** | **2-bosqich** | **3-bosqich** |
| 1. | | | | |
| **2.** | | | | |
| **3.** | | | | |
| **4.** | | | | |
| **5.** | | | | |

Sinaluvchi auditoriyaga o'girilib turib ko'zini yumadi. qo'llarining kaftlarini pastga qaratib oldinga o'zatadi va yuzini yon tomonga bo'radi. Tajribaning 1-bosqichi: o'qituvchi buyumlarni auditoriyada utirganlarning hammasiga (sinaluvchidan tashqari) ko'rsatadi. So'ngra eksperiment uchun tanlab olingan buyumlar sinaluvchining kafti orqasiga ketma-ket qo'yilib, har gal nima qo'yilgani so'rab boriladi.

Tajribaning 2-bosqichida ham tajribani birinchi bosqichidagidek davom ettiriladi, ammo buyumlar kaft ustiga qo'yiladi. (bunda eksperimentator sinaluvchining qo'l bilan biron harakat qilishiga yo'l qo'ymaydi).

Tajribaning 3-bosqichi ham tajribaning birinchisidagidek bajariladi, endi studantga buyumni paypaslab (silab) kurishiga ijzat beriladi. Tajritbaning bu bosqichini amalga oshiridan oldin sekretar talaba ishiga kirishadi. Sinaluvchining birinchi va ikkinchi tajriba bosqichlaridagi bergan javoblarini o'qib berdi.

Tajribada natijalari asosida quyidagicha xulosa chiqariladi:

## Idrok mavzusida o’tkaziladigan tajribalar

**Tajribaning maqsadlari:** Tanib olish metodi yordamida idrokdagi appertsepstsiyaning rolini tekshirish.

**Tadqiqot uchun zarur jihoz va asboblar:**turli xil buyumlar:g’altakchalar, iplar, angishvona, so’rat plyonkasini o’raydigan kasseta (g’altak)lar, lab bo’yog’i (pamada), soch turmaklagich (bigudi)lar, ilmatugma, elektr lampochka patronlari, uyinchok mashina g’ildiraklari va hokazo buyumlar tuplami.

**Tadqiqotning borishi.** Tadqiqotchi va qaror yozuvchi o’qituvchi bergan zarur ashyolar Bilan oldindan tanishib chikadi. Tekshiruvchi esa bu buyumlarni kurmasligi lozim. U Ko’zi boglangan holda unga takdim etilgan buyumlarni ushlab, paypaslab ko’radi va nomini aytadi. qaror yurutuvchi tekshiriluvchi tomonidan predmetning nimaligining aniqlash uchun sarflangan vaqt, javobning to’g’ri yoki noto’g’riligi va tekshiriluvchining xayotiy tajribasi urtasida kanaka boglanishlar mavjut ekanligi aniqlanadi.

Tajribaning har qaysi tekshiriluvchilar Bilan boshqa-boka xil ashyolar yordamida o’tkazilib, jo’z`Iy xulosalar chiqariladi.

**Tadqiqot natijalarini taxlil qilish.** Tajribalar natijasi quyidagi jadvalda aks ettiriladi.

| Buyumlar tuplami | Taniy olish vaqti | Tekshiriluvchining javobi | Tekshiriluvchining o’zini to’tishi |
|---|---|---|---|
| Kasseta | | | |
| Ip o’ralgan g’altak | | | |
| Soch turmaklagich | | | |
| Lampa patroni | | | |
| Va boshqa narsalar | | | |

So’ngra har qaysi tekshiriluvchidan olingan natijalar taqqoslab chiqiladi. Buyumlarning paypaslab idrok etish orqali tanib olishda o’tmish tajriba (appersepцiya)ning roli xaqidagi ma’lumotlar qarorda qayd qilib qo’yiladi.

## Vaqtni idrok qilishi.

**Tadqiqotning maqsadi**: vaqtni idrok qilishdagi aniqlikni tekshirish.

**Tadqiqot uchun zarur jihozlar**: sekundomer yoki sekund strelkasi soat.

**Tadqiqotning borishi**:tekshirishuchun 35,10,17 sekundga to’g’ri keluvchi vaqt birliklarini aniqlash lozim. Tadqiqotchi stol ustiga qalamning orqasi bilan urib vaqtning vailanishi va tugash nuqtalarini belgilaydi.

Tekshiruvchi xisoblamay va boshqa vositalarni qo’llamay turib mazkur vaqt oralig’ini aniqlaydi va sekundlarga chaqib yozib boradi.

Tadqiqot natijalarini taxlil qilish o’tkazilgan tajribalarni natijalarini dastlab jadvalda aks ettiriladi.

| Tajriba nomeri | Tavsiya qilingan qo’zg’ovchi | Tadqiqotchining ko’rsatmasi. | CHamalab aytilgan vaqt bilan real vaqt o’rtasidagi farq |
|---|---|---|---|
| 1.<br>2.<br>3. | 7.<br>15.<br>20. | 15.<br>18.<br>21. | 8.<br>3.<br>1. |

So’ngra vaqtni idrok qilishning aniqlik farqi S topiladi.

SqAQ100 : V bu erda A-sekund xisobida tavsiya qilingan vaqt Bilan tekshiruvchi ifodalagan vaqt urtasidagi farq. V-tadqiqotchi tomonidan tavsiya qilingan vaqt bo’ladi.Anasunday xisob Bilan tekshiriluvchilarni vaqtni aniqlikda idrok kila olishi xisusiyatiga ega ekanligi xakida doimi xulosa chiqariladi.

1.Tadqiqod maqsadi:Vaqtni idrok qilish.

2.Tekshiruvchi:

3.Tekshiriluvchi:

Sq710:0 q700 q16,6%
15 15

Sq15:100 q1500q83,3%
18 18

Sq20:100q2000q95,2%
21 21

## Fazoviy munosabatlarni idrok qilish

**Tadqiqotning maqsadi:** chiqarilayotgan tovush manbaini aniqlash yordamida eshitish qo'zg'ovchisining fazoviy cheklanish aniqligini tekshirish.

**Tadqiqot uchun zarur jihozlar:** ikkitu tanga, sekundomer yoki sekund strelkali soat.

**Tadqiqotning borishi.** Tekshiriluvchi Ko'zi yumulgan holda stulda kimirlamay utiradi. Tadqiqotchi bosh va ko'rsatkich barmoklari orasiga ikkita tanga kisib ushlab, uning olddi tomonida tik to'radi va tekshiriluvchining boshidan bir xil o'zoqlikda dam unga, dam sulga, dam orqaga, dam oldinga qo'lini cho'zib, tangalarni bir-biriga ishkab (har bir yunalishda 3-5 marta, birok o'zluksiz emas), ulardan tovush chiqaradi, jaranglatadi. Tekshiriluvchining ovoz manbai qaysi tomonda ekanligini ko'rsatib beradi.

Tekshiriluvchi bu vazifani bajargandan so'ng, unga usha xil vazifani bir qo'logini berkitgan holda bajartirish lozim.

**Tadqiqotning natijalarini taxlil qilish.** qaror yurituvchi tekshiruvchining ovoz manbai yunalishini aniqlash buyicha natija ko'rsatmalarini, to'g'ri javoblar sonini bu javoblar uchun ketgan vaqtni xisoblash, jadvalda qayd qilib qo'yadi:

| Tavsiya Nomeri | Tovush manba-ining joylashgan tomoni | Tekshiriluvchi-ning javobi | Letent vaqti | To'g'ri javoblar soni |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |

Tekshiriluvchi kelayotgan tovush urnini bir necha bor aniqlaganidan so'ng, tovushning qaysi tomondan tarkalish aniqligi quyidagicha formula orqali xisoblab chiqiladi:

$$S \text{ q } \frac{A*100}{V}$$

A-yo'nalishga oid to'g'ri javoblar soni

V-shu yo'nalishga olib borilgan tajribalar soni

Ish so'ngida tovush manbai tarkalish natijalarida oid umumiy xisoblar ikki qo'lok va bir qo'lok Bilan eshitib, aniqlangan natijalar asosida taqqoslanadi.

SHunday qilib, o'tkazilgan tajriba natijalari xakida umumiy xulosa chiqariladi.

## TERI TUYUSH (TAKTIL) VA KO'RUV IDROKI.

**Tadqiqotning maqsadi**: teri (taktil) va ko'rish idrokining xususiyatlarini tekshirish.

**Tadqiqot uchun zarur jihozlar:** qattiq qog'oz yoki kartondan tayorlangan bir necha juft shakllar.

**Tadqiqotning borishi**. Tekshiruvchining tavsiyasiga binoan tekshiriluvchi ko'z bilan ko'rmagan holda oldindan tanish bo'lmagan shaklni qo'li bilan bir minut vaqt davomida paypaslab, qo'l barmoqlarining terisi orqali idrok qiladi. Keyin o'sha shaklni qog'ozga chizadi. qaror yozuvchi uni ko'zatib, xatti-harakatlarini jadvalda qayd etib boradi, tekshiriluvchining chizgan rasmini uning oldidin olib qo'yadi. SHundan so'ng tadqiqotchi sinaluvchiga original shaklni ko'rsatadi. Sinaluvchi esa ko'rsatilgan rasmni bir minut mobaynida ko'rib chiqadi va shundan so'ng shaklni qayta boshdan chizadi.

**Tadqiqot natijalarini tahlil qilish**. Tajriba natijaliri jadvalda qayd qilinadi. Har bir tekshiriluvchi chizgan rasmlari taqqoslanadi va turli gruppa sinaluvchilarning teri-taktil harakat hamda ko'rish idrokiga xos xususiyatlarni solishtirib, umumiy xulosaga kelinadi.

| Tadqiqot Vazifalari | Original rasmning sinaluvchi chizgan rasmga nisbatan farqi | Tekshiriluvchiing xatti-harakatlari |
|---|---|---|
| Paypaslab ko'rish orqali aniqlash | | |
| Ko'rish orqali aniqlash | | |

# MAVZU: XOTIRA

## KLASTER TEXNALOGIYASI.

- Klaster-fikrlashning to’g’ri chiziqli bo’lmagan shakli.
- YOzishni yaxshi ko’rmagan o’quvchilarga yaxshi vosita.
- Tasavvurlarga, anglanmagan bilim va bog’lanishlarga yo’l ochib beradi.

***KO’RSATMA.***

29. Oq varaqqa (yoki doskaga) so’z(lar) ni yozing.
30. Quyidagi so’zga tegishli bo’lgan hayolingizga kelgan so’zlarni yoki gaplarni yozing.
31. Fikrlar o’rtasidagi bog’lanishlarni o’rganing
32. Siz barcha fikrlaringiz tugaguncha yoki vaqt tamom bo’lguncha yozing.
33. Hayolingizga kelganini qoldirmasdan yozing. Sifatini o’ylamang.
34. Imloviy va yozuvni sekinlatadigan xatolarga e’tibor bermang.
35. Agar hayolingizga hech narsa kelmasa rasm chizib boshlang balki shunda yangi fikrlar paydo bo’lar.

## XOTIRA SO’ZIGA KLASTER TUZING.



SONLARNI ESLAB QOLISH METODIKASI.

Sizlarga 20 sekund davomida 16 ta 2 xonali sonlardan iborat jadval ko'rsatiladi. Jadvalni olganimdan so'ng 1 mino't vaqt ichida eslab qolgan sonlarni yozing. (norma 10 ta va undan ortiq. )

| | | | |
|---|---|---|---|
| **13** | **91** | **47** | **39** |
| **65** | **83** | **19** | **51** |
| **23** | **94** | **71** | **87** |
| **27** | **69** | **38** | **58** |

1-40 gacha bo'lgan sonlar ichida yozilmagan sonlarni yozing. (vaqt 1,5 minut)

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **14** | **5** | **31** | **27** | **37** |
| **40** | **34** | **23** | **1** | **20** |
| **19** | **16** | **32** | **13** | **33** |
| **2** | **6** | **8** | **25** | **9** |
| **12** | **26** | **36** | **28** | **39** |

**YOzilmay qolgan sonlar: 3, 4, 7, 10, 11, 15, 17, 18, 21, 22, 24, 29, 30, 35, 38.**

**XOTIRA PROЦESSIDA TURLI ASSOЦIAЦIYALARNING AHAMIYATI**

**Topshiriq.**

Material (50 juft so'z).

| | | |
|---|---|---|
| 1.Barmoq – tirnoq.<br>2.Lolaqizg'aldoq – qizil<br>3.CHo'l – qo'ng'iroq<br>4.Maktab – tanbex<br>5.SHamol – buron<br>6.Soat – strelka<br>7.Qand – shirin<br>8.Dereza – har<br>9.Baland – past<br>10.Porox – portlash<br>11.Ko'z – qorachig'<br>12.O't – yashil<br>13.Meva – shamol<br>14.Mukofot – jazo<br>15.Ayoz – sovuq<br>16.Kitob – sahifa<br>17.Ustara – o'tkir<br>18.Daftar – elkan<br>19.YOrug' – qorongi<br>20.YOz – tom<br>21.Uy – tom<br>22.Qora – opoq | | 26.Bosh – soch<br>27. Ko'mir – qora<br>28. Gugurt – ochlik<br>29. SHirin – achiq<br>30. YOmg'ir – loy<br>31. SHahar – ko'cha<br>32. /ildirak – yumaloq<br>33. Qalin – oloman<br>34. Mukofot – nafrat<br>35. Kuyosh – yorug'lik<br>36. Poezd – vagon<br>37. Suv-suyuq<br>38.Tutun–qoida<br>39. Baland – past<br>40. Ish – charchash<br>41.Institut – auditoriya.<br>42. Pat – engil<br>43. Papiros – abajur<br>44. Mardlik – qo'rqoqlik<br>45. O'qish – bilim<br>46. qo'l – kaft<br>47. Yo'l – uzoq |

| | | |
|---|---|---|
| 23.Devor – chiroq<br>24.Sukunat – harakat<br>25.Zahar – o'lim | | 48. Parovoz – simyog'och<br>49. Sovuq – issiq<br>50. YAra – og'rik |

**So'z juftlari uchun kalit:**
№1,6,16,11,21,26,31,36,41,46 ***bo'tun-bo'lak.***
№ 2,7,12,22,27,32,37,42,47 ***predmet-xususiyat:***
№ 3,8,13,18,23,28,33,38,43,48 ***odatdan tashqari birikma;***
№ 4,9,14,19,24,29,34,39,44,49 ***kontrast:***
№ 4,10,20,25,30,35,40,45,50 ***sabab-oqibat.***

**Ko'rsatma:**

Daftaringizga 1 dan 50 gacha tartib nomerlari qo'yib chiqing. Men sizlarga 50 juft so'zlarni bir marta o'qib beraman. So'ng men birinchi so'zlarni o'qib beraman, siz esa tegishli nomerga ikkinchi so'zlarni yozib borishingiz kerak.

Tekshirish. Men juft so'zlarning ikkinchisini o'qiyman. Agar siz ikkinchi so'zni to'g'ri yozgan bo'lsangiz, unda «Q» qo'ying, noto'g'ri yoki umuman yozmagan bo'lsangiz, unda «-» qo'ying.

Hisoblash. Har bir So'z birikmasi buyicha (bo'tun – bo'lak, predmet, xususiyat, …) tajribada ishtirok etgan barcha talabalar uchun o'rtacha arifmetik miqdor hisoblab chiqiladi.

Xulosa. Material yaxshi esda olib qolinishi uchun, avvalo voqelikdagi ob'ektiv aloqalarni aniq va tula aks ettiradigan bog'lanishlar sismavzusini tanlab olish kerak.

## USTUNLIK QILUVCHI XOTIRA TURINI ANIQLASH METODI.

**Ko'rsatma:** Talabaga quyidagi jadval asosida topshiriqlar berilib, ularning ko'rib esda olib qolish va eshitib esda olib qolish xotiralari tekshiriladi.

| Eshitish xotirasi uchun | | Ko'rish xotirasi uchun | |
|---|---|---|---|
| **qo'l** | **Radio** | **Avtomobil** | **Rasm** |
| **SHkaf** | **Oyoq** | **Ovoz** | **Ot** |
| **ruchka** | **Daraxt** | **Ustun** | **Tarozi** |
| **Soat** | **Ayoz** | **Gilam** | **Qisqich** |
| **Stul** | **Koptok** | **Atir** | **Yo'lbars** |
| **Fikr** | **Qarg'a** | **Duxoba** | **Kostyum** |
| **Oyna** | **Tirnoq** | **Ishchi** | **Qoshiq** |
| **Irmoq** | **CHiroq** | **Guruh** | **Devor** |
| **Ko'ylak** | **Piyola** | **Mebel** | **Gul** |
| **Tarvuz** | **Xarita** | **Etik** | **Son** |

## ESDA QOLDIRISHNING SINALUVCHI TANLAB OLGAN USULIGA (USTANOVKA) BO/LIQLIGI.

**Topshiriq.**
Z a r u r m a t e r i a l.
Seriya «A» Seriya «B»

| | |
|---|---|
| 1. Olov | 1. Ekin. |
| 1. Xavo. | 1. CHarm. |
| 2. Kosa. | 2. Dada. |
| 2. Tog'a. | 2. Omoch. |
| 3. SHoli. | 3. Ogiz. |
| 3. Echki. | 3. SHoli. |
| 4. Arra | 4. Atir. |
| 4. Lola. | 4. Ipak. |
| 5. Bola. | 5. Ipak. |
| 5. Xoda. | 5. qurt. |
| 6. Rota. | 6. g'o'za. |
| 6. SHoda. | 6. Bexi. |
| 7. Do'st. | 7. Tesha. |
| 7. Moda. | 7. Holla. |
| 8. Daryo. | 8. Kecha. |
| 8. Dona. | 8. Pero. |
| 9. Xona. | 9. Juft. |
| 9. Nota. | 9. Eshik. |
| 10. Ertak. | 10. YAshin. |
| 10. qora. | 10. O'roq. |

**Ko'rsatma:**

Hozir men sizlarga qator so'zlar o'qib beraman (Seriya «A»). o'qish tugashi bilan, qatordagi tartibdan qat'iy nazar, eslab qolgan so'zlaringizni birin-ketish yozib mexaniking.

**Tekshirish.** O'qituvchi shoshmasdan so'zlarni o'qiydi.

**Ko'rsatma:** Endi sizlarga xuddi shu tartibda ikkinchi qatordagi so'zlarni (Seriya «B») o'qib beraman va o'qib tugatganimdan so'ng sizlar So'z tartibidan qat'iy nazar, xotirangizda qolgan, birinchi bo'g'inida O harfi bo'lgan so'zlarni yozing.

So'ng o'qituvchi: Men hozir o'qib bergan qatordagi so'zlarni (Seriya «B») O harfi bo'lgan so'zlaridan tashqari, eslab qolgan barcha boshqa so'zlaringizni ham yozing deb iltimos qiladi.

**Tekshirish.** «B» qatordagi so'zlarni shoshmasdan o'qiydi.

O'qituvchi shunday savol beradi: qaysi biringiz «A» va «B» seriyadagi O li, O siz, so'zlardan 1, 2, 3, 4 va haqazo yoza oldingiz.

Hisoblash. 1. Ikkala qatordan to'g'ri yozilgan «O» li so'zlarning o'rta arifmetik miqdori va qatorlari o'rtasidagi ayirma aniqlanadi. 2. Ikkala qatordan to'g'ri yozilgan «O» siz so'zlarning o'rta arifmetik miqdori va qatorlari o'rtasidagi ayirma hisoblanadi.

Xulosa. Materialni esda qoldirish sinaluvchi tanlab olgan usul (ustanovka)ga bog'liq.

## TANLAB OLINGAN USUL (USTANOVKA) NING ESDA QOLDIRISH MUDDATIGA TA'SIRI.

**Topshiriq.**

1-seriya.

**Ko'rsatma:**Hozir men sizlarga 15 ta So'z o'qib beraman. Siz ularni ichingizda takrorlashingiz kerak. Kimki hamma so'zlarni esda qoldira olmasa qo'lini ko'taradi. Hamma so'zlarni esda qolirish uchun necha marta takrorlash zarur bo'lsa, men shuncha marta takrorlayman.

M a t e r i a l

| | | |
|---|---|---|
| 1. YUksalish. | 6. Guldon. | 11. YOdg'orlik. |
| 2. Ostona. | 7. Karkis. | 12. Dazmol. |
| 3. qo'ldon. | 8. Jumrak. | 13. Daraja. |
| 4. Tamg'a. | 9. CHelak. | 14. Klapan. |
| 5. qolonna. | 10. YAngilik | 15. g'or. |

So'zlarni hamma eslab qolguncha o'qiladi.

2-seriya.

**Ko'rsatma:** Endi sizlarga ikkinchi seriya so'zlarni o'qib beraman, ular ham 15 ta. Ishlash tartibi ilgarigiday. Lekin bu 15 ta so'zni bir hafta davomida, ya'ni kelgusi mashg'ulotgacha esda tutish zarur.

M a t e r i a l

| | | |
|---|---|---|
| 1. Stol. | 6. Gugurt. | 11. YUldo'z. |
| 2. Daftar. | 7. So'rat. | 12. Mushuk. |
| 3. Koshik. | 8. qalam. | 13. SHahar. |
| 4. Kitob. | 9. Stul. | 14. Pul. |
| 5. Ko'cha. | 10. Odam. | 15. Teatr. |

So'zlarni hamma eslab qolguncha o'qiladi.

Tekshirish (mashg'ulotning ohirida o'tkaziladi). Kelgusi mashg'ulot uchun berilgan so'zlarni yozing. So'ngra oldingi safar yodlaganlaringizni ham yozing. Har bir seriyadan eslab qolgan so'zlaringiz sonini sanab mexaniking, qaysi birida siz kuprok So'z eslab qoldingiz? Nima sababdan?

Xulosa. Xotiraning ko'lami esda qoldirish muddati uchun tanlab olingan ustanovkaga bog'liq.

## IXTIYORSIZ ESDA QOLDIRISH.

**Topshiriq.**

**Ko'rsatma:** Men hozir sizlarga ikki juft gapni o'qib beraman.

Bu misollar qaysi qoidaga asoslanib tuzilganligini aniqlang. YOzish shart emas.

| 1-juft | 2-juft |
|---|---|
| Mening akam maktabda o'qiydi<br>Men maktabda o'qishi istayman | U mening oshnam emas, shunchaki tanishim<br>Dushman tor-mor qilingan edi. |

Endi shu qoidalar asosida ikki juft gap tuzing. Ularni yozish ham eshittirish ham shart emas.

T e k sh i r i sh (mashg'ulotlarining ohirida o'tkaziladi). Orfografiya qoidani aniqlash uchun men bergan gaplarni yozing.

Tekshirib kuring. Men taklif kilgan juft gaplardan nechta so'zni eslab qoldingiz. O'zingiz tuzganlardan-chi? Siz bu gaplarni eslab qolishni maqsad qilib qo'yganmidingiz? Bu esda qoldirishning qaysi bir turiga oid? qanday sababga ko'ra, material ixtiyorsiz esda olib qolindi?

**Xulosa.** Sizga gaplarni esda olib olish topshirilmaran edi. Siz qaysi gramatik qoidaga asoslanib gaplar to'zilganligini aniqlayotib, gaplarning o'zini ham ixtiyorsiz esda olib qoldingiz. Bu shu sababdan sodir buldiki gaplar doimo sizning faoliyatingiz markazida turdi. Demak, so'zlarni ishlatmasdan qoidani aniqlab bo'lmas ekan.

## BEVOSITA ESGA TUSHIRISH

**Tadqiqotning maqsadi.** Ayrim so'zlar va bir-biriga aloqador so'z birikmalarining bevosita esga tushirilishini tekshirish.

**Tadqiqot uchun zarur jixozlar:** so'z va so'z birikmalari; bola-qo'rqoq, darg'azab o'qituvchi, ogir ish, rivojlanish, xatto, bayram, uy, akl, shahar, kur mo'zikachi, Fan, balandlik, harakat, ko'cha, tinchlik.

**Tadqiqotning borishi.** Tekshiruvchi tekshiruvchiga bir nechta so'z va so'z birikmalarini diqqat Bilan eshitib, yodda to'tishni taklif qiladi, so'ngra so'z va so'z birikmalarini sekin o'qib beradi. Tekshiriluvchi o'qilayotgan so'z va so'z birikmalarini tinglash Bilan birga ularni tizma tasvir orqali ifodalab berishi kerak. Hama so'z va so'z birikmalari uqilib bo'lgandan so'ng tekshiriluvchi o'zi chizgan piktogramma (so'ratli, tasviriy yozuv)larning tagiga birinchisidan boshlab, o'zi esda olib qolishi lozim bo'lgan so'zlarni yozib chiqishi kerak.

**Tadqiqot natijalarini taxlil qilish.** Ish natijalari jadvalda qayd qilinadi.

| Tavsiya qilingan so'z va so'z birikmalarining miqdori | Tekshiriluvchining Ishonarli qilib yozgan so'z va so'z birikmalarining soni | Xotira hajmi (% hisobida) |
|---|---|---|
| | | |

So'ngra tekshiriluvchining bevosita esga tushirish, xotira sifatida, hajmi va aniqligi haqida umumiy xulosa chiqaradi.

## MANTIQIY VA MEXANIK XOTIRA

**Tadqiqotning maqsadi:** so'zlar va ularning to'g'risidagi belgilarni esda qoldirish metodi yordami bilan mantiqiy va mexanik xotirani tekshirib ko'rish.

**Tadqiqot uchun zarur jixozlar: bir** qator so'zlar. Ikkinchi qator belgilardan iborat. So'zlar va belgilar mantiiqiy bog'lanishga ega emas.

| *Harakat xotirasi va mantiqiy xotira uchun* | |
|---|---|
| **Dars** | |
| **Kitob** | |
| **Tog'** | |
| **Daraxt** | |
| **Stul** | |
| **CHoynak** | |
| **Elak** | |
| **Piyoz** | |
| **Qalam** | |
| **Temir** | |



**Topshiriq:**

SHakllar va ular ichida sonlar beriladi. Topshiriq 3 seriyada o'tkazilib har bir seriya ko'rsatilgan tartibda bajariladi

1-seriya. Qaysi shaklning ichida qanaqa son joylashgan.




**2-seriya. SHakllar ichidagi sonlarning yig'indisi necha bo'ladi. (28)**




3-seriya. Qaysi shakl qannaqa rangda, qaysi shakl ichida qanaqa son joylashgan va ularning yig'indisi necha. (187)




## OBRAZLI XOTIRA.

**<u>Tadqiqotning maqsadi</u>:** turli predmetlar surati aks etirilgan kartochkalar yordamida obrazli xotirani tekshirish.

**<u>Tadqiqot uchun zarur jihozlar</u>:** 30 ta predmet rasmi solingan ikki komplekt kartochkalar.

**<u>Tadqiqotning borishi</u>.** Bu tajriba ikki variantda o’tkaziladi. Birinchi variantda tekshiriluvchi unga ko’rsatiladigan tasvirlarni yaxshilab yodda saqlab qolishi zarurligi haqida ogohlantiriladi. Ko’rsatma berib bo’lgach, tadqiqotchi tekshiriluvchiga kartochkalardagi so’ratlarni birma-bir ko’rsatib chiqiladi.

Kartochkalarning hammasi ko’rsatib bo’lgach, tekshiriluvchiga ko’rib esda olib qolgan rasmlarning nomini yozib chiqishni taklif qiladi. To’g’ri esda olib qolingan predmetlar soni tekshiriluvchi obrazli xotirasining hajmi bo’lib hisoblanadi.

Ikkinchi variantda tekshiriluvchiga 30 ta boshqa xil kartochkalarni beriladi. Ular orasida ayrim jihatlari bilan umumiylik belgisimga ega bo’lgan suratlarni alohida guruppaga ajratib chiqish tavsiya qilinadi. Bu ishning bajarilishiga 90 sekund vaqt belgilanadi. Bir guruppaga: tramvay, qayiq, samolyot, velosiped, chang’i singari tashqi belgisi jihatidan har xil ko’rinishga ega bo’lgan predmetlpg’ar ajratilishi mumkin. CHunki ularning barchasiga tegishli bo’lgan umumiylik belgisi-ularning harakat vositasi ekanligidir.

30 sekunddan so’ng tadqiqotchi kartochkalarni yig’ishtirib oladi. Tekshiriluvchilar esa kartochkalardagi sur’at aks ettirilgan predmetlarning nomini esga tushirishlari lozim.

**<u>Tadqiqot natijasini tahlil qilish</u>**. Olingan natijalar quydagi jadvalda qayd qilinadi:

| Variant nomeri | Tavsiya qilngan qo’zg’ovchi | Tekshiriluvchidan olingan natija | Xato | To’g’ri esga tushirilgan predmetlarning soni |
|---|---|---|---|---|
| Birinchi | 30 | 22 | | 20 |
| Ikkichi | 30 | 30 | | 30 |

Olingan natijalarga asoslanib, aktiv fikrlash faoliyati xotiraga ijobiy ta’sir ko’rsatar ekan, degan xulosaga kelish mumkin. Birinchi variyantda tekshiriluvchiga yodda to’tish haqida ko’rsatma berilib, ikkinchi variyantga esa bunday ko’rsatma berilmaganligiga qaramasdan, birinchi variyantdagi nisbatan ikkinchi variyantda predmetni qayta eslash samaradorligi yuqori ko’rsatgichga ega.

## XOTIRA TASAVVURI.

**Tadqiqotning maqsadi:** har bir so'z qo'zg'ovchisi ta'sirida ongda hosil bo'ladigan obraz va fikrlarning xarakterini belgilash.

**Tadqiqod uchun zarur jihozlar**: konkret va mavhum tushunchani anglatuvchi bir qator so'zlar: jarlik, o'quvchi, kit, lola, maktab, tabiat, qaxramonlik, hayvonlar, bino, g'alaba, shakl, tezlik, o'sish, taklif, sifat, kamyob, bulo't, to'xtam, yo'lboshchi, taraqqiyot so'zlari yozilgan kartochkalar.

**Tadqiqotning borishi**: Tadqiqotchi ikki sekund mobaynida taxistaskop orqali tekshiriluvchiga so'z yozilgan kartochkani ko'rsatadi. № sekund to'xtalgandan so'ng so'raydi: «Bu so'z sizning ongingizda qanday obrazni hosil qildi?» tekshiriluvichning javobi so'zma-so'z yozib boriladi.

**Tadqiqot natijalarini tahlil qilish**: Jami 10 ta so'zni ko'rsatish jarayonida tekshiriluvchidan olingan javob, natijalar quyidagi jadvalda qayd qilib chiqiladi:

| So'z qo'zg'ovchi | Obraz va fikrlarning muhimlashtirilishi | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Ta'sirlanish (reakцiya) vaqti | Predmet obrazi | So'zlar obrazi | SHakllar obrazi | Obrazsiz fikrlar | Obraz va fikrlarning mavjud emasligi |
| | | | | | | |

**Tekshiriluvchining javoblarini taqqoslab chiqish asosida quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:**

Tekshiriluvchining tushunchasi chalg'ib turgan paytda, uning predmet haqidagi tasavvuri siyraklashadi, yakkam-dukkam bo'ladi. Har qanday qo'rquv tasavvurlarining ishtirokisiz tushunchalar mazmuniga oid fikrlar obrazining hajmi kichraya boradi.

**MAVZU: TAFAKKUR**

## TAFAKKUR MAVZUSIDA O'TKAZILADIGAN LABORATORIYA ISHLARI

## <u>KLASTER TEXNALOGIYASI.</u>

- Klaster-fikrlashning to'g'ri chiziqli bo'lmagan shakli.
- YOzishni yaxshi ko'rmagan o'quvchilarga yaxshi vosita.
- Tasavvurlarga, anglanmagan bilim va bog'lanishlarga yo'l ochib beradi.

***KO'RSATMA.***

36. Oq varaqqa (yoki doskaga) so'z(lar) ni yozing.
37. Quyidagi so'zga tegishli bo'lgan hayolingizga kelgan so'zlarni yoki gaplarni yozing.
38. Fikrlar o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganing
39. Siz barcha fikrlaringiz tugaguncha yoki vaqt tamom bo'lguncha yozing.
40. Hayolingizga kelganini qoldirmasdan yozing. Sifatini o'ylamang.
41. Imloviy va yozuvni sekinlatadigan xatolarga e'tibor bermang.
42. Agar hayolingizga hech narsa kelmasa rasm chizib boshlang balki shunda yangi fikrlar paydo bo'lar.

## TAFAKKUR SO'ZIGA KLASTER TUZING.



билим

## TAFAKKUR

Topshiriq.

**Fikriy masalalarni echishda tasavvurning roli.**

1. Kitob javoniga ikki tomlik asarlar tuplami qo'yilgan. Birinchi tom 300 saxifalik, ikkinchisi esa 200 saxifalik. Javonda kitob qurti paydo bo'lib kitoblarni birinchi tomining birinchi saxifasidan ikkinchi tomining oxirgi saxifasigacha kemirib taladi. Kitob qurti kitoblarning necha saxifasini kemirgan?

Savolga 500 saxifa deb berilgan javob to'g'ri emas. Savolga to'g'ri javob berish uchun kitobni javonga qanday terilganini (tartibini) aniq bilib olish lozim. Kitob qurti birorta saxifani ham kemirgan emas. CHunki birinchi tomoning birinchi saxifasi, ikkinchi tomning oxirgi saxifasi bilan yonma-yon turibdi.

2. A shahardan B shahargacha 12 km. A shahardan chiqqan poezd soatiga 30 kg tezlik bilan B shahari tomon yura boshladi. SHu vaqtda B shahardan chiqqan kapalak soatiga 60 kg tezlik bialn A shahri tomon uchib kela boshladi. Kapalak B shahardan chikib A shahri tomon uchar ekan, A shaharidan chiqqan poezd bilan uchrashib B shahri tomon uchib ketar va yana B shaharidan chikib poezdgacha uchib kelar va B shahari tomon uchib qaydar edi.

SHu proцess A shaharidan chiqqan poezd b shahariga etib kelgunga kadar davom etdi. Aytingchi, kapalak necha km yo'l bosdi?

Agar ishni kapalakning uchishini va uning B shahari tomon kelayotgan poezd bilan necha uchrashganligini tasavvur qilishdan boshlasak masalani echolmaymiz.

Masala oddiy arifmetik hisoblash yo'li bilan echiladi. Poezd soatiga 30 km tezlik bilan yurar ekan, B shahariga 4 soatdan so'ng etib keladi. (120:30) kapalak soatiga 60 km tezlikda uchar ekan, 4 soat davomida fazoda bo'lganligi uchun uchun u 240 km masofani uchib utdi.

Ikkala masala echilgach, talabalarga masalani echish yo'llarining taxlili zaminida har bir masalani xal qilishda tasavvur qanday rolь uynaganligini aniqlash topshiriladi.

Fakriy masalalarni xal qilishda tasavvur ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini uqtirish bilan talabalarga mustaqil ravishda har ikki masalaga anologik misollar uynlab topish va echish vazifasi topshiriladi.

## FIKR YURITISH OPERAЦIYALARI VA AQL SIFATLARI TAXLILIGA DOIR.

**Topshiriq.**

A.Tushunchalarni taqqoslash jarayonining kechimini tekshirish. Tajriba materiali sifatida bir necha juft tushunchalar beriladi, avtobus va trolleybus, bo'lbo'l va sa'va, ot va sifat, sezgi va idrok, egoizm va egouyontrizm, hayvonot va o'simlik kabi. Eksperimyontator har bir juft tushunchani ukigach, ularni taqqoslashni, ya'ni uxshash tomonlari va tafovutlarini aniqlashni topshiradi. Bunda sinaluvchi mumkin kadar kuprok belgini aniqlashga harakat qilishi zarur.

Topshiriqning sifati tekshirilganda uxshash va farq belgilarining soni hisobga olinadi. Taqqoslashning sifati sinaluvchining bilim darajasiga boglik ekanligi aniqlanadi. Tekshirish natijalari jadvalda aks ettiriladi, agar uxshash va farq ko'rsatkichlari 20 dan oshik bo'lsa, taqqoslash 5 ball bilan baholanadi. Agar qiyosiy

belgilar 10-15 ta bo'lsa, 4 ball bilan; 10 dan kam bo'lsa 3, 5 dam kam bo'lsa 2 ball bilan baholanadi.

| Sinaluvchining ismi, familiyasi | Taqqoslash ob'ekti (tushuncha) | Bir xil komponyontlar (katta-kichikligi, rangi, formasida uxshashlik) | Funkцional uxshashlik | Bir sinfga kiritilgan (bir jins tushunchaga kiritilgan) | Katta-kichikligi, rangi, formasidagi tafovut | Funkцional tafovutlar | Turli tushunchalarga kiritilgan | Ball |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|

**B Fikrlash proцesslarining kechim tezligiga doir topshiriq.**
Berilgan so'zlardagi etishmayotgan tovushlarni topib yozish.

| | | |
|---|---|---|
| N-tk | -ar-on | gr-m-at-ka |
| -vkat | -ra-at | s-in-ak-is |
| -a'sir | -ma-ma--ka | f-zi-lo-tik |
| vo-ga | ma-iy | t-fa-ur |
| -oshkent | m- 'n-si | -ay-t-t |

**Zarur material:** sekundomer va 5 tadan 3 qator berilgan so'zlar.

Eksperimyontator berilgan so'zlardagi etishmayotgan tovushlarni topib yozish vazifasini berish bilan har So'z va qatordagi so'zlarni topish uchun o'ylashga ketgan vaqtni ulchab boradi. Tajriba yakuni quyidagi jadval asosida taxlil qilinadi:

| № | Belgilangan qatordagi so'zlarni aniqlash uchun ketgan vaqt | Topish qiyin bo'lgan so'zlar |
|---|---|---|
| 1<br>2 | | |

**V. Jumboq.**

a) ikki kishi daryo yokasiga keldi, soxilda bir dona qayiqcha bo'lib, unga faqat bir kishi sig'ishi mumkin. Yo'lovchilar shu qayiqchada narigi soxilga chikib olib yo'llarida davom etadilar.

Aytingchi yo'lovchilar qanday qilib narigi soxilga chikib oldilar?

**b) berilgan sonlarning joylashishi qonuniyatini aniqlang va etishmayotgan topib yozing:**

| | | | |
|---|---|---|---|
| 7 | 9 | 5 | 11 |
| 4 | 15 | 12 | 6 |
| 13 | 8 | 11 | - |

v) qalamning uchini qog'ozdan uzmagani holda qanday qilib uchta to'g'ri chiziq orqali kvadratning turt nuqtasini kesib utib, boshlangich nuqtaga qaytish mumkin?

**Topshiriq.**

**U m u m l a sh t i r i sh j a r a yo n i n g k e ch i sh i g a d o i r.**

Talabalarga uch variantda har biri ikki qatordan bo'lgan so'zlar berilib, qatordagi ortiqcha so'zni o'chirish tajribasini III bandida va qolgan so'zlarning umumiy tomonlari nimada degan savolga javob berish talab qilinadi.

I. a) it, mol, mushuk, qo'y (uy hayvonlari).

b) ot, mol, kiyik, echki (tuyoklilar).

II.a) futbol, xokkey, kul topi, suv tupi (hammasida darvozobon bo'ladi).

b) futbol, xokkey, kul tupi, baskdbol (hammasida komanda uynaydi).

III. a) YOnisey, Obь, Lyona Pechora, Indigirka (qolgan geografik nomlar Osiyo qitasiga kiradi).

b) YOnisey, Obь, Pechora, Lyona, Don (chunki qolgan daryolar shimolga okadi).

Topshiriqni eksperimentator quyidagi savvollarga javob olish bilan yakunlaydi.

1. Fikr yuritish operaцiyalari qaysilar? 2.Akl sifatlarini sanab bering. 3.to'g'ri umumlashtirishga erishishda qanday fikr operaцiyalari katnashadi?

## MAKTAB AQLIY RIVOJLANISH TESTI (MART)

Bu metodika M.K.Akimova, E. M. Borisova, V.T.Kozlova, G.P.Loginova tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, usmirlarning intellektual darajasini aniqlashga mo'ljallangan.

I. TOPSHIRIQLAR TO'PLAMINING TAVSIFI VA MISOLLARI

**Topshiriq savol xarakteridagi gaplardan to'zilgan. Ularning har birida bir so'z etishmaydi. Siz keltirilgan 5-ta so'zlardan berilgan gapga to'g'ri keladigan so'zning tagiga chizishingiz kerak. Faqat bir so'zning tagiga chizishingiz mumkin.**

Misol:

Biografiya va ………. so'zlari ma'nosi jihatidan bir xil hisoblanadi.

a) tasodif, b) qahramonlik, v) <u>tarjimai hol.</u> g) yurish, d) ezuvchi.

«Tarjimai hol» so'zi to'g'ri keladi, shuning uchun uning tagiga chizilgan.

Keyingi misol:

Salbiy so'ziga ………….. so'zi qarama-qarshi bo'ladi?

a) muvaffaqiyatsiz, b) janjalli, v) muhim, g) tasodifiy, d) <u>ijobiy.</u>

Bu holda to'g'ri javob «ijobiy» so'zi bo'ladi, uning tagiga chizilgan.

<u>1. TOPSHIRIQLAR TO'PLAMI</u>

1.Ism va otasinig bosh harflari …………. deb ataladi?

a) tug'ro( ism va familiya bosh harflarini birlashtirib ishlangan bezak), b) iniцial, v) avtograf, g) indeks, d) anagramma.

2. Insonparvar-bu …………….

a) ijtimoiy, b) odamiy, v) kasbiy, g) bosqinchi, d) myonsimaslik.

3. Tabiatga va jamiyatga qarashlar sistemasi ………. ?

a) orzu, b)baho, v) dunyoqarash, g) ong-bilim darajasi, d) xom hael.

4. Demokratiya va …………………. so’zlari ma’nosiga ko’ra bir xildir.

a) hokimiyatsizlik, b) yakka hokimiyatchilik, v) xalq hokimiyati, g) avlod, d) sinflar.

5. O’simlik navlarini va hayvonlarning eng yaxshi zotlarini bilish hakidagi fan ……………. deb ataladi.

a) bionika, b) ximiya, v) selekцiya, g) botaniqa. d) fiziologiya.

6. Kitob, doklad, lekцiyaning mazmunini qisqartirib ezib olish bu…..dir.

a) satr boshi, b) цitata, v) bo’lim, g) pochta, d) qonspekt.

7. Ko’p o’qiganlik chuqur va kyong bilim bu -…………dir.

a) zielilik, b)tajribalilik, g) talant, d) o’zini hammadan yuqori qo’yish.

8. Atrofga aktiv ishtirokning va qiziqishning yo’qligi bu - ………….dir.

a) aqlga muvofiqlik, b) passivlik, sustlik, v) sezgirlik, g) qarama-qarshilik, d) rahmsizlik.

9. Inson haet va faoliyatining qandaydir sohasiga tegishli Qonunlarning to’plami ………….deb ataladi?

a) rezolyuцiya, b) qora, v) an’ana, g) kodeks, d) loyiha.

10. Ikkiyuzlamachi (munofiq) tushunchasining karama-karshisi …………. tushunchasi bo’ladi.

a) sofdil, b) zid, v) kalbaki, g)xushmuomala, d) dovyurak.

11. Agar baxs o’zaro yon berish bilan tugasa, u holda.… haqida gapiriladi.

a) murosa, b) muloqot, v) birlashish, g) mo’zokara, d) qarama-qarshilik.

12. Etika-bu …………………… haqidagi ta’limotdir.

a) psixika, b) ahloq, v) tabiat, g) jamiyat, d) san’at.

13. Bir xil tushunchasiga ……………… tushunchasi qarama-qarshi bo’ladi.

a) aynan o’xshash, b) yagona, v) haybatli, g) har xil, d) alohida.

14. Tobelikdan, xurofotdan xalos bo’lish, huquqlarda tyong bo’lish-bu…dir.

a) qonun, b) muhojirlik, v) nuqtai nazar, g) harakat, d) ozodlik.

15. Oppoziцiya-bu………………..dir.

a) qarshi harakat, b) rozilik, v) fikr, g) siesat, d) echim.

16. Цivilizaцiya-bu……………….dir.

a) formaцiya, b) uzoq o’tmish, v) ishlab chiqarish, g) madaniyat, d) mulo-kot.

17. Ustunlik va…………………..so’zlari ma’nosiga ko’ra bir xildir.

a) kashfiet, b) g’oya, v) saylov, g) birinchilik, d) rahbarlik.

18. Ittifoq-bu…………………………..dir.

a) raqobat, b) siesat, v) dushmanlik, g) o’zilish, d) birlashish.

19. Alьtruizm va ………………….. so’zlari ma’nosiga ko’ra bir xildir.

a) insonparvarlik, b) o’zaro, v) xushmuomalalik, g) egoizm, d) odoblilik.

20. Taraqqietga ishonchsizlik bilan qaraydigan odam ………… hisoblanadi.

a) demokrat, b) radikal, v) qonservator, g) liberal, d) anarhist.

## 2. TOPSHIRIQLAR TO’PLAMINI TAVSIFLASH VA MISOLLARI

Qog’ozning chap qismiga ezilgan so’zlar, berilgan 4 so’zdan ma’nosiga ko’ra to’g’ri keladigan so’zni, ya’ni sinonimini tanlash kerak.

Misol:

Asr-a) yuz yil, b) ming yil, v) hodisa, g) taraqqiet. To'g'ri javob «yuz yil», shuning uchun tagiga chizilgan.

Keyingi misol:

Prognoz-a) ob-havo, b) xabar, v) oldindan aytish, g) sabab.

Bu erda to'g'ri javob «oldindan aytish», uning tagiga chizilgan.

## 2. TOPSHIRIQLAR TO'PLAMI

1. Ilg'or –a) zakovatli, b) oldingi, v) epchil, g) qoloq.
2. Bekor qilish-a) imzo chyokish, b) yo'q qilish, v) xabar, g)keyinga qoldirish.
3. Oliy maqsad –a) hayol,b) kelajak, v) donishmandlik, g) barqarorlik.
4. Dalil –a) isbot, b) moslashuv, v) bahs, g) ibora.
5. Afsona –a) qadimiy, b) ijod, v) rivoj, g) fan.
6. Axloqsizlik –a) barqarorlik, b) qiyin, v) rivoyat g) beahloq.
7. Analiz –a) faktlar, b) tahlil, v) tanqid, g) malaka.
8. Etalon –a) nusxa, b) shaql, v) asos, g) namuna.
9. Dumaloq -a) cho'zinchoq, b) sharsimon, v) bo'sh, g) hajmi.
10. Soцial –a) odat tusiga kirgan, b) ozod, v) rivojlantirilgan, g) ijtimoiy.
11. Gravitiцiya –a) tortishish, b) itarish, v) vaznsizlik, g) ko'tarish.
12. Tez ta'sirlanadigan –a) she'riy, b) sezgir, v) quvnoq, g) ajoyib.
13. Eksport –a) sotish, b) tovarlar, v) chetga mol chiqarish, g) savdo.
14. Samarali –a) zarur, b) ta'sirli, v) dovyurak, g) o'tkir.
15. Ahloq -a) etika, b) taraqqiet, v) qobiliyat, g) xulq.
16. O'zgartirmoq -a) ishlamoq, b) ko'zatmoq, v) o'rganmoq, g) turlamoq.
17. Radikal –a) keskin chora-tadbirlar ko'rish tarafdori, b) javob, v) oxirgi, g) qoloq.
18. Salbiy –a) muvaffaqiyatsiz, b) elg'on, v) manfiy, g) ehtietsiz.
19. Agrar –a) mahalliy, b) xo'jalik, v) er, g) dehqon.

## 3. TOPSHIRIQLAR TO'PLAMINI TAVSIFLASH VA MISOLLARI

Sizga uchta so'z beriladi. Birinchi va ikkinchi so'z o'rtasida aniq bog'liqlik bor. Uchinchi va byosh so'zdan biri bilan ana shunday bog'liqlik bor. Siz ana shu so'zning tagiga chizishingiz kerak.

Misol:

Qo'shiq: kompozitor-samolet?

a) aeroport, b) uchuvchi, v) qonstruktor,g) eqilg'i, d) qiruvchi.

To'g'ri javob, «qonstruktor», shuning uchun uning tagiga chizilgan.

Keyingi misol:

YAxshi: emon- kun:?

a) quyosh, b) tun, v) hafta, g) chorshanba, d) bir-kecha kundo'z. Bu erda to'g'ri jaob «tun», shuning uchun uning tagiga chizilgan.

## 3. TOPSHIRIQLAR TO'PLAMI

1. Fe'l: tuslamoq- ega?
a) o'zgartirmoq, b) yaratmoq, v) foydalanmoq, g) turlamoq, d) ezmoq
2. Sovuq: issiq- harakat:?
a) inerцiya, b) tinch holat, v) molekula, g) havo, d) o'zaro harakat.
3. qolumb: saehatchi-zilzila:?
a) birinchi bo'lib kashf etgan, b) tog' hosil bo'lish,v) otilish, g) qurbonlik, d) tabiiy hodisa
4. Qo'shiluvchi: yig'indi- ko'paytuvchi:?
a) ayirma, b) bo'luvchi, v) ko'paytma, g) ko'paytirish, d)son.
5. Quldorlik: burjuaziya-qullar:?
a) quldorlik to'zumi, b) burjuaziya, v) quldorlar, g) ellanma ishchilar, d) asirlar.
6. Qirqquloqlar- sporalar- qarag'ay:?
a) g'udda (shishka), b) nina, v) o'simlik, g) urug, d) qora qarag'ay.
7. SHe'r: poeziya- hikoya:?
a) kitob, b) ezuvchi, v) povestь, g) gap, d) proza
8. Tog'lar: balandlik-iqlim:?
a) relьef, b) harorat, v) tabiat, g) geografik kyonglik, d) o'simliklar.
9. O'simlik: poya-hujayra:?
a) yadro (o'zak), b) xromosoma, v) oqsil, g) fermyont, d) bo'linish
10. Boylik: kambag'allik-krepostnoy qaramlik:?
a) Krepostnoy dehqonlar, b) shaxsiy erkinlik, v) tyongsizlik, g) shaxsiy mulk, d) feodal to'zum.
11. Start: finish- muqaddima:?
a) sarlavha, b) kirish, v) eng yuqori nuqtasi, g) harakat, d) xotima.
12. CHaqmoq: erug'lik- tortishish hodisasi:?
a) tosh, b) harakat, v) og'irlik kuchi, g) mezon, d) er.
13. Ibtidoiy jamoa to'zumi: quldorlik to'zumi-quldorlik to'zumi:?
a) soцializm, b) kapitalizm, v) quldorlik, g) davlat, d) feodalizm.
14. Roman: bob –she'r:?
a) poema, b) qofiya, v) band, g) vazn, d) janr
15. Issiq: organizm faoliyati-kislorod:?
a) gaz, b) suv, v) o'simlik, g) taraqqiyt, d) nafas olish.
16. Figura: uchburchak-jimlarning holati:?
a) suyuqlik, b) harakat, v) harorat, g) suv, d) molekula.
17. Atirgul: gul-kapitalistlar:?
a) eksplutaцiya, b) ishchilar, v) kapitalizm, g) sinf, d) fabrika.
18. Atmosfera bosimining pasayishi: yog'in-sochin- antiцiklon:?
a) ochiq havo, b) цiklon, v) iqlim, g) namgarchilik, d) metereologiya hizmati.
19. To'g'ri burchak: tyokislik-kub:?
a) fazo, b) qirra, v) balandlik, g) uchburchak, d) tomoni.
20. Urush: o'lim- xususiy mulk:?
a) feodallar, b) kapitalizm, v) tyongsizlik, g) qullar, d) krepostnoy dehqonlar.
21. Son: sanoq-fe'l:?
a) barmoq, b) harakat, v) sinfdosh, g) gap bo'lagi, d) tuslamoq.
22. SHimol: janub-egin-sochin:?
a) cho'l, b) qutb, v) emg'ir, g) qurg'oqchilik, d) iqlim,
23. Diametr: radius-aylana:?

a) ey, b) segmyont, v) kesma, g) chiziq d) doira.

24. Epiteliy: to'qima-aorta:?

a) yurak, b) ichki organ, v) arteriya, g) vyona, d) qon.

25. Bolga: qoqmoq-gyonerator:?

a) birlashtirmoq,b) ishlab chiqarish, v) ulamoq, g) o'zgartirmoq, d) isitmoq.

4. TOPSHIRIQLAR TO'PLAMINI TAVSIFLASH VA MISOLLARI

Sizga byoshta so'z beriladi. Ularning to'riiasi umumiy belgi bilan birlashtirilgan. Byoshinchi so'z ularga to'g'ri kelmaydi. Uni topib tagiga chizish kerak. Faqat bir so'z ortiqcha bo'lishi mumkin.

Misol:

A) tarelka, b) piyola, v) <u>stol</u>, g) kastryulka, d) choynak.

Birinchi, ikkinchi, to'rtinchi, byoshinchi so'zlar idishni bildiradi. Uchinchi so'z mebelь shuning uchun uning tagiga chizilgan.

Keyingi misol:

A) bormoq, b) sakramoq, v) o'ynamoq, g) <u>o'tirmoq</u>, d) qochmoq.

To'rtta so'z harakat holatini bildiradi. «O'tirmoq» so'zi esa tinch holatni bildiradi, shuning uchun tagiga chizilgan.

<u>4. TOPSHIRIQLAR TO'PLAMI</u>

1. a) qo'shimcha, b) bahona, v) so'z yasovchi qo'shimcha, g) tugallanma, d) o'zak.
2. a) to'g'ri chiziq, b) romb, v) to'g'ri to'rtburchak, g) kvadrat, d) uchburchak.
3. a)barometr, b) flyuger v) termometr g) kompas, d) azimut
4. a) quldor, b) qul, v) dehqon, g) ishchi, d) hunarmand.
5. a) maqol, b) poema, v) she'r, g) roman, d) povestь.
6. a) цitoplaza, b) oziqlanish, v) o'sish, g) ta'sirlanish, d) ko'payish.
7. a) emg'ir, b) qor, v)cho'kindi, g) qirov, d)do'l
8. a) uchburchak b)kesma, v)o'zunlik, g) kvadrat, d) doira.
9. a) manzara, b) mozaika, v) but, g) devorga ishlangan so'ratlar, d) rassomlik san'ati.
10. a) ocherk, b) roman, v) hikoya, g) syujet, d) povestь.
11. a) paralel, b) harita, v) meridian, g) ekvator, d) qutb.
12. a) adabiet, b) san'at, v) rassomlik, g) me'morlik, d) badiiy hunar.
13. a) o'zunlik, b) metr, v) massa, g) hajm, d) tezlik.
14. a) karbonat angidrid gazi, b) erug'lik, v) suv, g) kraxmal, d) xlorofil.
15. a) muqaddima, b) kulьminaцiya, v) informaцiya, g) echim, d) xotima.
16. a) tezlik, b) tebranish, v) kuch, g) og'irlik, d) zichlik.
17. a) Kuba, b) YAponiya, v) V'etnam, g) Buyuk Britaniya, d) Islandiya.
18. a) tovar, b) shahar, v) yarmarqa, g) tabiiy xo'jalik, d) pul.
19. a) tavsiflash, b) taqqoslash, v) xarakteristika, g) ertak, d) doston.
20. a) aorta, b) vyona, v) yurak, g) arteriya, d) kapillyar.

5. TOPSHIRIQLAR TO'PLAMINI TAVSIFLASH VA MISOLLARI

Sizga ikki so’z beriladi. Ular o’rtasida umumiylikni topish kerak. Har bir holatda muhimroq umumiy belgini umumiy so’z bilan ifodalashga intiling. Javobingizni juft so’zlar yoniga ezing.

Misol:

Qora qarag’ay-qarag’ay.

To’g’ri javob «ignabargli daraxt» bo’ladi. Bu so’zni berilgan ikki so’zning yoniga yozish kerak.

Keyingi misol: emg’ir-do’l.

To’g’ri javob «yog’in-sochin» bo’ladi. Bu so’zni yozish kerak.

## 5. TOPSHIRIKLAR TUPLAMI

1. **Osie-Afrika.**
2. Botanika-zoologiya.
3. Feodalizm-kapitalizm.
4. Ertak-doston.
5. Gaz-suyuqlik.
6. YUrak-arteriya.
7. Kopyongagyon-Managua.
8. Atom-molekula.
9. Eg’lar-oqsillar.
10. Fan-san’at.
11. Barqarorlik-mardlik.
12. Amper-volьt.
13. Kanalda-to’g’on.
14. Mozaika-but (iqona).
15. Bo’lutli-yog’in-sochin.
16. Yig’indi-ko’paytma.
17. Kinoya-tavsiflash.
18. Klassiцizm-realizm.
19. Цunami-bo’ron.

6. TOPSHIRIQLAR TO’PLAMINI TAVSIFLASH VA MISOLLARI

Sizga ma’lum qoida bo’yicha joylashgan sonlar qatori beriladi. Sizning vazifangiz qatorning davomini bildiradigan sonni topish va uni yozishdan iborat. Har bir qator o’ziga xos qoidaga asosan to’zilgan. Ayrim topshiriqlardan qatorning to’zilish qoidasini topish uchun, sizga ko’paytirish, bo’lish va boshqa amallardan foydalanishga to’g’ri keladi.

Misol:

2 4 6 8 10 ..

SHu qatorda har bir keyingi son oldingisidan ikkita ortiq. SHuning uchun keyingi son 12 bo’ladi. Uni yozish kerak.

Navbatdagi misol:

9 7 10 8 11 9 12 ..

bu qatorda navbat bilan 2 ayrilib, 3 qo’shilyapti, keyingi son 10, uni yozish kerak.

## 1. TOPSHIRIQLAR TO’PLAMI

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | 6 | 9 | 12 | 15 | 18 | 21 | ,,, |
| 2. | 9 | 1 | 7 | 1 | 5 | 1 | ,,, |
| 3. | 2 | 3 | 5 | 6 | 8 | 9 | ,,, |
| 4. | 10 | 12 | 9 | 11 | 8 | 10 | ,,, |
| 5. | 1 | 3 | 6 | 8 | 16 | 18 | ,,, |
| 6. | 3 | 4 | 6 | 9 | 13 | 18 | ,,, |
| 7. | 15 | 13 | 16 | 12 | 17 | 11 | ,, |
| 8. | 1 | 2 | 4 | 8 | 16 | 32 | ,,, |
| 9. | 1 | 2 | 5 | 10 | 17 | 26 | ,,, |
| 10. | 1 | 4 | 9 | 16 | 25 | 36 | ,,, |
| 11. | 1 | 2 | 6 | 16 | 31 | 56 | ,,, |
| 12. | 31 | 24 | 18 | 13 | 9 | 6 | ,,, |
| 13. | 147 | 171 | 57 | 54 | 18 | 15 | ,,, |
| 14. | 54 | 19 | 18 | 14 | 6 | 9 | ,,, |
| 15. | 301 | 294 | 49 | 44 | 11 | 8 | ,,, |

Bu testning oltita topshirig'ini bajarish uchun 40-45 daqiqa vaqt kerak bo'ladi.

1-topshiriq -7-8 daqika.
2-topshiriq -5-6 daqika.
3-topshiriq -11-12 daqika.
4-topshiriq -5 daqika
5-topshiriq -5-6 daqika.
6-topshiriq -7-8 daqika.

Har bir o'quvchi qo'liga alohida savolnoma va to'g'ri javoblarning harfini belgilash uchun karta beriladi. Biz quyida har bir berilgan savolga to'g'ri javoblar kartasini keltiramiz.

| F.I.O. | | | | KARTA (kalit) | Sinf |
|---|---|---|---|---|---|
| 1-t | 2-t | 3-t | 4-t | 5-t | 6-t |
| 1.b | 1.b | 1.g | 1.b | 1. Dunyo qismlari. | 1,24 |
| 2.b | 2.b | 2.b | 2.a | 2.Jonli tabiat haqida fan. Biologiya | 2,3 |
| 3.v | 3.g | 3.d | 3.d | 3. ijtimoyi tuzum. | 3,11 |
| 4.v | 4.a | 4.v | 4.a | 4. Xalk og'zaki ijodi. | 4,7 |
| 5.v | 5.v | 5.g | 5.a | 5. Jismlarning holati. | 5,36 |
| 6.d | 6.g | 6.g | 6.a | 6. Qon aylanish organlari. | 6,24 |
| 7.v | 7.b | 7.d | 7.v | 7. Poytaxtlar. | 7,18 |
| 8.b | 8.g | 8.b | 8.v | 8. qismlar. | 8,64 |
| 9.g | 9.b | 9.a | 9.d | 9. Organik jismlar. | 9,37 |
| 10.a | 10.b | 10.b | 10.t | 10. Madaniyat, faoliyat. | 10,49 |
| 11.a | 11.a | 11.d | 11.b | 11.Xarakterning ijobiy hislatlari. | 11,92 |
| 12.b | 12.b | 12.v | 12.b | 12.Elektrni o'lchash birliklari. | 12,4 |
| 13.g | 13.v | 13.d | 13.b | 13. Sun'iy suv inshooatlari. | 13,5 |
| 14.d | 14.b | 14.v | 14.g | 14. Tasviriy san'at. | 14,2 |
| 15.a | 15.a | 15.d | 15.v | 15. Atmosfera hodisalari. | 15,4 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 16.g<br>17.g<br>18.d<br>19.a<br>20.v | 16.g<br>17.a<br>18.v<br>19.v<br>20.v | 16.a<br>17.g<br>18.a<br>19.a<br>20.v<br>21.b<br>22.g<br>23.a<br>24.v<br>25.b | 16.b<br>17.v<br>18.g<br>19.g<br>20.v | 16. Matematik amallar natijasi.<br>17. Adabiy uslublar.<br>18. San'atdagi yunalish.<br>19. Tabiiy ofat. | |

OLINGAN NATIJALARNI QAYTA ISHLASH.

№1 subtest bo'yicha har bir to'g'ri javob –1 ball, sinaluvchi eng ko'pi bilan-20 ball yig'ishi mumkin.

№2 subtest bo'yicha har bir to'g'ri javob –1 ball, o'quvchilar yig'ishi mumkin bo'lgan eng ko'pi ball-20.

№3 subtest bo'yicha har bir to'g'ri javob –1 ball, eng ko'pi ball-25.

№4 subtest bo'yicha har bir to'g'ri javob –1 ball, bolalar eng ko'pi bilan 20ball olishlari mumkin.

№5 subtest bo'yicha juda aniq javob –2 ball, to'liqmas javoblar-1 ball, eng ko'pi bilan 38 ball olishlari mumkin.

№6 subtest bo'yicha har bir to'g'ri javob –1 ball, 15 ball yig'ishi mumkin. MART bo'yicha umumiy eng ko'pi ball-138 ga tyong.

KALIFORNIYA UNIVERSITETIDA TAKLIF QILINGAN TEST

Ko'rsatma: Diqqat bilan qo'yidagi keltirilgan savollarni o'qib chiqing va ularga o'z javobingizni bering.

Hayolingizga kelgan birinchi javobni bering.

1. Professor kech soat 8da budilьnikni 9-ga quyib, uyquga yotdi. U necha soat uxlaydi?
2. Erkak kishi o'zining bevasining singlisiga o'ylanishi mumkinmi?
3. Avstraliyada ham 8-mart bormi?
4. Mamedning 10-ta qo'yi bor edi. 9-dan boshqasi hammasi o'lib qoldi. Nechta qo'y qoldi?
5. Syon Aljirda qo'nib o'tadigan Gavana-Moskva reysi bilan uchadigan samolet uchuvchisisan. Uchuvchining yoshi nechada?
6. Oylar 30-31 kunlar bilan tugaydi. Qaysi oyda 28 bor?
7. Syon notanish xonaga kirib qolding. U erda byonzin va gaz bilan yonadigan chiroqlar bor ekan. Syon birinchi bo'lib nimani eqishing kerak?
8. Moskvadan Peterburgga va Peterburgdan Moskvaga bir vaqtda 2 poezd yo'lga tushdi. Peterburgga kelaetgan poezdning tezligi 2-chisinikidan uch marta katta. Uchrashgan vaqtda ularning har biri Moskvadan qancha masofada uzoqlikda bo'ladi?
9. Ota va o'g'il avto haloqatga uchrashdi. Otasi shu joyning o'zidaek xalok bo'ldi, o'g'lini esa kasalxonaga yuborishdi. Operaцiya vaqtida xirurg bolani ko'rib:

«Voy xudoyim-ey, bu myoning o'g'lim-ku-deb bakirip yubordi. SHunday ham bo'lishi mumkinmi?

10. Arxeologlar eramizdan avvalgi 35-yili chiqqan tangani topib olishdi. SHunday ham bo'lishi mumkinmi?
11. Egochni 12 bo'lakka bo'lish uchun uni necha marta arralash kerak?
12. Qo'llarda 10- ta barmoq bor, 10- ta qulda nechta barmoq bor?
13. Emg'irda quyon qanday shox tagida o'tirishi mumkin?
14. Vrach (hakim) bemorga 30 minut oralig'i bilan 3-ta uqol belgiladi. Bemor ularning hammasini qancha vaqt ichida olib bo'ladi?
15. Birdan 100 gacha bo'lgan qatorda necha 9 bor?
16. Tungi qaravul kundo'zi ulib qoldi. Unga nafaqa to'lanadimi?
17. 7- ta sham yonib to'rgan edi. 3-ta tasini o'chirib qo'yishdi. Nechta sham qoldi?
18. Ikki kiloli qadoq tosh 1 kg va yarimta g'isht og'irligita tyong. Bitta g'ishtning og'irligi qancha?
19. 16 qavatli uyda bir liliput (pakana) odam yashaydi. U har kuni ertalab ishga ketayotib liftda pastga tushib, so'ng ishga ketadi, ishdan qaytaetganda esa 10 qavatgacha liftda ko'tarilib, u egiga pieda ketadi. U nimaga shunday qiladi?

Test javoblari.

Savollarga javob berishda faqatgina noto'g'ri ya'ni «-» belgili javoblargina hisoblab chiqiladi va shunga qarab sinaluvchining xarakteristikasi beriladi.

Kalit

1. 1 soat.
2. Yo'q (chunki u kishining o'zi o'lib ketgan. O'lgan odam nafaqat xotining singlisiga balki mutloqo uylana olmaydi):
3. Ha (bu kun hamma joyda kalyondarda bor):
4. 9
5. Sinaluvchining yoshi;
6. Hammasida;
7. Gugurt:
8. Bir xil masofada:
9. Ha (bu uning onasi):
10. Yo'q (u vaqtda tiyin bo'lmagan):
11. 11:
12. 50 :
13. Ho'l shox tagida:
14. 1 soat;
15. 20;
16. Yo'q;
17. Uchta (uchta o'chirildi, qolgani yonib bo'lgan;)
18. 2 kg.
19. Bo'yi etmaydi.

0-1-geniy (daxo); 2-4 intellektual; 5-7 mulohazali; 8-10 o'rtacha; 11-12 - aqil uchqunlari ko'rinib turadi; 13-16 – ahmoq odam; 17-19 – alohida joyda saqlanishi kerak bo'lgan odam.

## TUGALLANMAGAN GAPLAR METODIKASI

**KO'RSATMA:** Sizga taklif qilingan test 40 tugallanmagan gapdan iborat. Ular har birini shunday davom ettirish, to'ldirish kerakki, buning natijasida tugallangan fikr kelib chiqsin. Har bir tugallanmagan gapni o'qiganingizda kelgan birinchi fikrni yozishga va tez ishlashga harakat qiling.

1. Bunday vaziyatda ________________________________________
2. Eng oson yo'li ________________________________________
3. SHu narsaga qaramasdan ___________________________________
4. Qancha uzoq bo'lsa ________________________________________
5. _____________ bilan solishtirganda _______________________
6. Har bir ________________________________________________
7. Achinarliki ___________________________________________
8. Natijada ______________________________________________
9. Agarda ________________________________________________
10. Bundan bir necha yil oldin_________________________________
11. Eng muhimi ______________________________________
12. Faqat ___________________________________________
13. Haqiqatdan ham ___________________________________________
14. Haqiqiy muammo shundaki __________________________________
15. ____________________________________________________________ noto'g'ridir
16. SHunday kun keladiki u kuni ____________________________
17. Eng kata ________________________________________________
18. Xech qachon ________________________________________________
19. Agar ishonsang ___________________________________________
20. Garchan mumkin bo'lsa ______________________________________
21. Asosan __________________________________________________
22. Ba'zida _________________________________________________
23. YAna bir yigirma yildan keyin _____________________________
24. O'tmishda ______________________________________________
25. Hamma gap shundan iboratki __________________________________
26. Hozirgi vaqtda ___________________________________________
27. Eng yaxshisi ______________________________________________
28. __________________________ E'tiborga olganda _____________
29. Agarda bo'lmaganda _______________________________________
30. Har doim ________________________________________________
31. Imqoniyat _______________________________________________
32. SHu holda _______________________________________________
33. Odatda __________________________________________________
34. Agarda, hattoki __________________________________________
35. SHu vaqtgacha ___________________________________________
36. __________________________________________ uchun shart-sharoit
37. Bundan tashqari __________________________________________
38. ___________ tufayli_______________YAqindan _____________
39. Faqat shu vaqtdan ___________________________________

**MAVZU: TEMPERAMENT**

**TEMPERAMENT MAVZUSIDA O'TKAZILADIGAN LABORATORIYA ISHLARI**

**KLASTER TEXNALOGIYASI.**

- Klaster-fikrlashning to'g'ri chiziqli bo'lmagan shakli.
- YOzishni yaxshi ko'rmagan o'quvchilarga yaxshi vosita.
- Tasavvurlarga, anglanmagan bilim va bog'lanishlarga yo'l ochib beradi.

***KO'RSATMA.***

43. Oq varaqqa (yoki doskaga) so'z(lar) ni yozing.
44. Quyidagi so'zga tegishli bo'lgan hayolingizga kelgan so'zlarni yoki gaplarni yozing.
45. Fikrlar o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganing
46. Siz barcha fikrlaringiz tugaguncha yoki vaqt tamom bo'lguncha yozing.
47. Hayolingizga kelganini qoldirmasdan yozing. Sifatini o'ylamang.
48. Imloviy va yozuvni sekinlatadigan xatolarga e'tibor bermang.
49. Agar hayolingizga hech narsa kelmasa rasm chizib boshlang balki shunda yangi fikrlar paydo bo'lar.

## TEMPERAMENT SO'ZIGA KLASTER TUZING.



**Temperament mavzusi bo'yicha mashg'ulot o'tkazishdan avval temperament tiplari to'g'risida talabalarda tushuncha hosil qilinadi**

## TEMPERAMENT TIPLARI

### *SANGVINIK*

Reaktivnost' yuqori sal narsaga xoxalab kuladi. Jizzaki bo'ladi, qiziqqan narsasiga jon dilidan yondoshib kirishadi. Mimikasi xarakatlari ifodali. YUzidan kayfiyatini, odamga munosabatini bilib olish oson. Diqqatini tez jalb qila oladi. Senzitovnost' past. Sezgi chegaralari yuqori .Sal eshitilgan tovushni, xira yorug'likni sezmaydi. Ancha muncha narsalarni ko'ngliga olavermaydi . Juda harakatchan va mehnatkash. Darslarda uzoq vaqt mehnat qilish mumkin, aktiv ishtirok etadi. Intizomli bo'ladi. O'zini odamlar ichida yaxshi tutadi. Nutqi ravon tez gapiradi, yangi faoliyatga tez kirishib keta oladi. Aqlli. Kayfiyati, qiziqishlari o'zgaruvchan. YAngi odamlar bilan tez kirishib keta oladi. YAngi sharoitlarga tez ko'nikadi. Ekstavert. Odamlar bilan gaplashib, suhbatlashishni yoqtiradi.

**Sangvinik** (kuchli, muvozanatli, epchil. Taassurotlarni tez-tez o'zgartirib turuvchan. Har narsaga qiziquvchan, jo'shqin, tashabbuskor. Qo'zg'alish va tormozlanish jarayoni kuchli);

### *XOLERIK*

Sangvinikka o'xshaydi, lekin reaktivnostь aktivnostьdan yuqoriroq. O'zini tuta olmaydi, uzoq vaqt jim o'tira olmaydi. Achchig'i tez. Jizzaki. Biror narsaga qiziqib qolsa tugatmaguncha qo'ymaydi. Tezkor odam. Diqqatini tez o'zgartira olmaydi.

**Xolerik** (kuchli, muvozanatsiz, epchil. Jangovor qo'shqin, oson va tez ta'sirlanuchan tip. Affekt hollar ko'proq kuzatiladi. Muvozanatsizlik tez-tez namoyon bo'ladi; u biror ishni ishtiyoq bilan boshlaydi, katta tashabbus ko'rsatadi, biroq asab kuchi ish jarayonida tez tugab qoladi, faoliyati birdan pasayadi, g'ayrati va ilhomi yo'qolishi mumkin. Kayfiyati tez-tez o'zgarib turadi. Qo'zg'alish tormozlanishga nisbatan kuchli…)

### *FLEGMATIK*

Senzitivnostь past. Емоцiyalarga uncha berilmaydi. Unday odamlarni kuldirish, yig'latish va xafa qilish oson emas. Sinfda hamma kulib tursa ham, u indamay turaveradi. Mimikasi boy emas. Harakatlari ifodali emas. Lekin aktiv, mehnatkash, tengdoshlarining ichida sabr-toqatliligi bilan, o'zini tutishi bilan farqlanib turadi. Sekin qimirlaydi va gapiradi. Hayoliga har-xil narsalar tezda kelavermaydi. Diqqatini to'plashga qiynaladi. Ezmaroq. YAngi sharoitlarga sekin ko'nikadi, lekin o'rgangan, bilgan narsani a'lo bahoga bajarishi mumkin. Ichki dunyosi bilan yashaydi. YAngi odamlar bilan tezda kirishib ketavermaydi.

**Flagmatik** (kuchli, muvozanatli, sust, емоцionalligi oz. Kuldirish, jahlini chiqarish yoki kayfiyatini buzish qiyin. CHidamlilik matonatlilik sifatlariga ega, lekin ba'zan loqayd, kam farosatli. Tashqi taassurotlarga qiyinchiliklar bilan javob qaytaradi. Har qanday sharoitda o'zini tuta biladi. tormozlay oladi);

### *MELANXOLIK*

Juda ta'sirchan. Ko'ngli bo'sh. Sal narsaga yig'laydi. Tez hafa bo'ladi. Mimikasi va xarakterlari boy emas. Ovozi past. Sekin yig'laydi. Ovoz chiqarib kam kuladi. Darslarda qo'lini kam ko'taradi. O'ziga ishonch yo'q, qo'rqoq. Biron narsani qattiq talab qila olmaydi. Tez charchaydi. Diqqati o'zgaruvchan. Ichki dunyosi bilan ko'proq yashaydi.

**Melanxolik** (kuchsiz, yurak sintezlovchi xususiyatga ega. sezgirligi ortiq, arazchan, tortinchoq, ko'ngli ochiq, yaxshi insoniy fazilatlarga ega. Ruhiy tempi-sust, diqqati tez chalg'iydi va barqaror emas…).

## TEMPERAMENT XUSUSIYATLARI BO'YICHA MASH/ULOT.

**Tadqiqotning maqsadi:** SHaxsdagi emoцional qo'zg'oluvchanlik va emoцional barqarorlikni tekshirish va shu asosda temperamentning zarur bo'lgan tipini tekshirib ko'rish.

**Tadqiqot uchun zarur jihozlar:** sekundomer, so'zlar qatori: gilam, stol, quti, gazeta, issiqlik, devor, ko'za, maysazor, plita, isqirt, mavsum, mato, qo'l, befarosat, shapaloq, qizg'anchiq, rahbarlik, befahm, sandiq, miltiq, daraxt, taxta, turmush, olov.

**Tadqiqotning borishi:** Tekshiruvchi minutiga 5 ta so'zni asta-sekin talaffuz qiladi. Tekshiriluvchi har bir eshitgan so'ziga javob sifatida yodiga kelgan so'z bilan javob qaytarib borishi kerak. Qaror yurituvchi esa qo'zg'atuvchi so'z tavsiya qilingan vaqt bilan tekshiriluvchining javob so'zi aytilgan paytgacha bo'lgan reakцiya vaqtini qayd etib borishi kerak.

**Tadqiqot natijasini tahlil qilish.**
*Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda qayd qilinadi:*

| qo'zg'otuvchi so'z | Tekshiriluvchining javobi | Reakцiyaning latent vaqti (sekund hisobida) |
|---|---|---|
| | | |

So'ngra grafik chizilib, uning absiцa o'qida reakцiya vaqti, ordinata o'qida esa qo'zg'atuvchi so'zning tartib nomeri to'g'ri keladigan son qayd qilib qo'yiladi.

Berilgan 25 so'zning 5 tasi emoцional, qolgan 20 tasi betaraf so'zlardir. Emoцional ahamiyatga ega bo'lgan so'z bilan noemoцional (betaraf) so'zlar o'rtasidagi latent davriemoцional qo'zg'alish va emoцional barqarolikka nisbatan munosabat ko'rsatgichi bo'lib hisoblanadi. Agar ana shu ikkala ko'rsatgich teng yoki deyarli baravar bo'lsa, grafik chiziqlari qo'shilsa yoki bir-biriga yaqin bo'lsa, unda tekshiriluvchi emoцional jihatdan barqaror hisoblanadi. Agar bu ikkala ko'rsatgich vaqti juda farq qilsa, grafik chizig'i bir-biridan o'zoq bo'lsa, unda tekshiriluvchi emoцional jihatdan qo'zg'aluvchan bo'lib hisoblanadi.

**Olingan ma'lumotlar asosida yana bitta jadval tuziladi:**

| **Tekshiriluvchining ismi va familiyasi** | **Tekshiriluvchining emoцional hususiyati** | **Tekshiriluvchining temperament tipi** |
|---|---|---|
| | | |

## TEMPERAMENT TIPLARI BO'YICHA MASH/ULOTLAR.

**<u>Tadqiqotning maqsadi:</u>** Pedagogik-psixologik xarakteristika ma'lumotlari orqali o'quvchilar temperamentining tipini aniqlash.

**<u>Tadqiqot uchun zarur jihozlar</u>:** O'quvchilarga yozilgan pedagogik-psixologik xarakteristikalardan olingan 8-10 ta parchalar .

**<u>Tadqiqotning borishi</u>:** Tadqiqotchi tekshiriluvchiga berilgan xarakteristikalardan birin olib, diqqat bilan o'qib chiqishni va xarakteristikada tavsiflangan o'quvchining qaysi temperament tipiga kirishini aniqlab berishni tavsiya qiladi. Xarakteristikadagi ashyoviy dalillarga asoslanib, tekshiriluvchi o'quvchining nima uchun aynan shu tipga kirishini dalillar bilan tushuntirib berish zarur SHundan so'ng tekshiriluvchiga yangi ikkinchi, uchunchi parchalar tavsiya qilinadi va hokazo.

**<u>Tadqiqot natijalarini tahlil qilish</u>:** <u>Ish natijalari quyidagi jadvalda qayd etiladi.</u>

| O'quvchining ismi va familiyasi | Temperament tipi | O'quvchining mazkur tipga kirishini bildiruvchi dalillar belgilar |
|---|---|---|

**<u>Topshiriq</u>:** Nerv proцesslarining kuchi, muvozanati va harakatchanligini aniqlash.

**<u>Zarur material</u>:** Sekundomer.

**<u>Topshiriqning bajarilishi</u>**: Sinaluvchiga kichikroq tekstni o'qib chiqib, (uni eslab qolib) so'ng yozish, egani bir chiziq bilan, kesimni ikki chiziq, aniqlovchini to'lqinli chiziq, to'ldiruvchini punktir chiziq bilan chizib, holning tagini nuqtalar bilan belgilash taklif qilinadi.

**<u>Bajarilgan topshiriq ma'lumotlarini ishlab chiqish</u>:** Topshiriqni bajarish jarayonida protokol qayd etuvchi harakatdagi aktivlik xususiyatlarini, sinaluvchiga umumii harakatchanlik xosmi yoki sustkashlik xosmi ekanligini belgilab boradi.

SHoshqaloqlari (sinaluvchi eksperimentatorning instrukцiyasidan oldin topshiriqni bajarishga kirishadi) ichki tormozlanishning kuchsizligidan guvoxlik beradi. Sinaluvchi kamharakat bo'lsa, topshiriqni bajarishga ancha kech kirishadi. Instrukцiyaning aniq bajarilishi nerv proцesslarining harakatchanligi va muvozanatliligini ko'rsatadi.

Oliy nerv faoliyati tiplarining kuchli va kuchsizligiga qarab turib mexnatga umumii layoqatlilik haqida xukm chiqarish mumkin (tezda charchab qolishlik nerv sismavzusining kuchsizligidan dalolat beradi.)

Diqqatning individual xususiyatlariga ko'ra, oliy nerv faoliyati tiplari haqida so'z yuritish mumkin. Masalan, kuchli muvozanatsiz tipga diqqatning barqarorligi, yaxshi ko'chishi unchalik katta bo'lmagan, bo'lina olishligi mos tushadi. Kuchli, muvozanatli, bosiq tipga diqqatning barqarorligi, bo'linishi, lekin uning kuchsiz ko'chuvchanligi to'g'ri keladi.

Kuchli, muvozanatli, jonli tipga diqqatning yaxshi ko'chishi va bo'linishi, lekin kuchsiz ifodalangan barqarorligi to'g'ri keladi. Kuchsiz tipga diqqatning uncha yuqori darajali bo'lmagan barqarorligi unchalik katta bo'lmagan bo'linishi va yomon ko'chishi to'g'ri keladi.

Sinaluvchilar o'z ishlarini taxlil qilayotib bir qator xarakterli xatolarini nomoyish qiladilar, qo'zg'olish tormozlanishdan ustun kelgan sinaluvchilar harflarga

keraksiz elementlar va ortiqcha bo'g'inlar yozib qo'yadilar. Topshiriqning bir turini bajarishdan ikkinchi turini bajarishga o'tishdagi tezlik va bunda yo'l qo'yiladigan xatolar harakatchanlikning turli darajalarini ko'rsatadi.

**Topshiriq:** Oliy nerv faoliyatining psixologik ko'rsatkichlariga qarab uning tipologik xususiyatlarini aniqlash.

**Zarur materiallar:** Nerv proцesslari asosiy xossalarining "Hayotiy ko'rsatkichlari" haqida bir necha xarakteristika.

1. Ishda yuksak qobiliyatlilikni saqlab qolish va o'zoq muddatli zo'r ish davomida sezilarli toliqish alomatlarining yo'qligi, kun oxirigacha (charchaganlikni sezmaslik) charchamaslik. Og'ir va ma'suliyatli vaziyatlarda (masalan, imtixon paytida) tayorgarlik ko'rish qay darajada bo'lishidan qat'iy nazar tetiklik, dadillikni saqlab qolish va asabiylikning yo'qligi. Barqaror va xiyla yuqori bo'lgan ijobiy emoцional tonus va ko'nikmagan xilma-xil sharoitlarda jasurlik. Akliy aktivlik, yangi va qiyin materialga qiziqish, ishda shablonning yo'qligi, yangicha til vositalarini tanlash.

2. Bir narsaga qaratilgan markazlashgan diqqatga qobiliyat faoliyatini bajarishda harakatlarning mustaxkam yunalishi, chalg'itayotgan qo'zg'ovchilarga qarshilik ko'rsatish, lekin shoshgandan chalkash javob beradi. Hamma vaqt unga: «Darhol javob berma», o'yla shoshilma» deb eslatib turish kerak. Tusatdan kulgusi-gazabga va aksincha gazabi-kulguga aylanadi. Harbiy uyinlarni juda yoktiradi. Juda tashabbuskor. O'qituvchiga savolni yogdirib yuboradi. Achchiqlansa, o'zini tutolmaydi. YAxshi baxo olishni juda- yoktiradi. « Ajoyib, jozibali» , «Besh» - deydi.

3. **Sarvar. D.** 2 sinf o'quvchisi-juda ta'sirchan. Zarracha ko'ngilsizlik uni muvozanatdan chiqarib yuboradi, arzimagan narsaga yig'layveradi. Sarvar bir kuni portfelida to'rgan kitobini tezroq topolmaganiga ham chidolmay yig'lab yubordi. Juda ham serzarda, gap ko'tarmaydigan. Xafalikni o'zoq yodda saqlaydi va uni azob uqubat bilan o'tkazadi. Hayolparast, Dam-badam u o'rtoqlari bilan o'ynash o'rniga deraza oldida o'ylanib hayolga berilib o'tiradi. Barcha qoidalarga itoatkorlik bilan bo'ysinadi. Har zamonda o'z kuchiga ishonchsizlik sezadi. Ish davomida qiyinchiliklarga duchor bo'lsa, ruhi tushib ketadi, o'zini yo'qotib qo'yadi, ishini oxirigacha etkazmaydi. Ammo ishning bajarilishini qattiq turib talab qilinsa, uni ko'pincha boshqalardan yomon bajarmaydi.

4. **Lola. V. 2** sinfda o'qiydi. Bu qiz juda serharakat, dars paytida bir dam tinch o'tirmaydi, doimo gavda holatini almashtirib turadi, Biron narsani qo'lida aylantirib, sherigi bilan gaplashib o'tiradi. Barcha yangiliklarni tezda bilib olishga qiziqadi, lekin xafsalasi tez soviydi. quvnoq va tetik, unda yaxshi kayfiyat doimo ustun. «Ishlar qalay?»- degan savolga odatda u kulimsirab «Juda yaxshi» deb javob beradi, garchi olgan baholari ba'zan unga yaxshi bo'lmasa ham «besh»-lar haqida quydagilarga xursandlik bilan habar beradi. «Ikki» larini yashirmaydi, ammo doim: «Bu menda shunday tasodifan»-deb qo'yadi. Ba'zan ranjib qoladi, xattoki yig'laydi, ammo bu o'zoq cho'zilmaydi. Mimikasi jonli. CHaqqon va jonsarakligiga qaramasdan uni tartib-intizomga tez, oson undash mumkin. qiziqarli darslarda unda katta g'ayrat va ishchan qobiliyat paydo bo'ladi. Dugonalari bilan oson til topishadi, yangi talablarga tez ko'nikadi, nihoyatda so'zamol.

5. **Voxid. I.** 4-sinf o'quvchisi. quvnoq, xushchaqchaq iltifotli, kek saqlamaydigan

bola. Bir kuni Voxid. yig'ilishda yomon xatti-harakatlari uchun do'stini tanqid qildi. Yig'ilishdan keyin ular janjallashib qoldilar. Voxid. xattoki yig'lab yubordi. «Men senga yaxshilik tiladim, sen men bilan urishding», - dedi do'stiga. Darslar tugangumcha u g'amgin bo'lib yurdi, keyin do'stlari bilan uyga qaytdi. Voxid.ning kamchiliklari ham bor: topshiriqlarni dam -badam xovliqib, o'ylamasdan bajaradi va boshlagan ishini oxiriga etkazmaydi. 1 May bayramiga Voxid. she'r yodlash kerak edi. U bajonu dil ishga kirishdi. Ammo 2-3 kundan keyin unda «o'zrli vaj» lar paydo bo'lib qoldi. SHe'r qiziqarli emas, uni yodlashga vaqti yo'q. Katnashmaslikka ham tayor edi.

6. **Nargiza. N.** 3- sinf o'quvchisi, kamharakat, bosiq, jiddiy qiz. Biron topshiriqni bajarishdan oldin, chuqur o'ylab chiqadi. Ishni odatda sekin, lekin puxta bajaradi. Bu xususiyat uning kontrol ishlarida yaqqol seziladi. Nargiza. daftarini deyarli oxirgi bo'lib topshiradi, ammo doim u hammasini to'g'ri ishlagan bo'ladi. Darsda javob berayotib, aniq-aniq dona-dona qilib, lekin bir ohangda gapiradi.

7. **Ilxom. F.** 3- sinfda o'qiydi. Hamisha osoyishta, yolg'iz va qovog'i soliq. Xafa bo'lgan bo'lsa, o'zoq zarda qilib yuradi. Agar do'sti bilan janjallashib qolsa, kun buyi u bilan gaplashmay yuradi. Darsda ko'proq yomon javob bergani uchun, u o'z kuchiga ishonmaydi. Boshqa bolalarga nisbatan u darsda ko'proq charchaydi. Agar rag'batlantirib yoki yordam berilib turilsa, u topshiriqlarni yaxshiroq va dadilroq bajaradi.

8. **Komil. P.** 3-sinf o'quvchisi. Jiddiy, kamgap bola. Maktabda uni xech kim xech kachon quvnoq bo'lib yurganini ko'rgan emas. U bolalar bilan kamdan-kam o'ynaydi, ko'proq ularning uyinini ko'zatadi yoki biron narsa o'qib o'tiradi. Bu bola serzarda, jizzaki va ginachi. Agar Komil.ga keskin tanbex berilsa yoki javob berayotganida xatosini tuzatsa, u jimib qoladi. So'ng xech javob bermaydi. YOmon baxo olsa, g'amgin bo'lib qoladi. Sir boy bermaydi, fikrlari bilan o'rtoqlashmaydi, Jamoat topshiriqlaridan voz kechadi, eplayolmayman deydi.

9. **Olimjon. N.** 3- sinda o'qiydi. Xushchaqchaq, g'ayratli bola. Uning g'ayrati bitmas-tugamasdek tuyuladi. U topshiriqlarni osongina uddasidan chiqadi. Harakatlari tez va keskin. Olimjon. to'g'risida: «u narsalarni olmaydi, balki ushlaydi, narsalarni qo'ymaydi, balki tashlaydi», deyishadi. Darslarda va ijtimoiy hayotda doimo aktiv. Materialni tez o'zlashtiradi. Masalalarni tez va to'g'ri echadi. Tirishqoq. Hamma narsada birinchi bo'lishni yoqtiradi. Uning nutqi tez va qizg'in. Harakatli uyinlarning tashabbuskori, qo'mondonlik qilishni sevadi. Hamisha o'ziga ishonadi. Do'stlari bilan baxslashganda o'z fikrida qattiq turadi. Dam-badam qo'zg'alib, achchiqlanib ketadi va bolalar bilan ko'p vaqt kelisholmay qoladi.

**Topshiriqning bajarilishi**. Ekisperimentator sinaluvchiga xarakteristikalardan birini diqqat bilan o'qib chiqib, shu parchada keltirilgan o'quvchi xususiyatlari temperamentning qaysi tipiga xosligini aniqlab berishini aytadi. Sinaluvchi xarakteristika materiallarga asoslangan holda nima uchun bu o'quvchi temperamentning u yoki bu tipining vakili bo'la olishini asoslab berishi va qaysi detallar buni tasdiqlashini ko'rsatishi lozim. So'ng sinaluvchiga ketma-ket ikkinchi, uchinchi va hokazo xarakteristika beriladi.

**Bajarilgan topshiriqning natijalarini ishlab chiqish:** Ish natijalari quyidagi jadvalda qayd etiladi

| O'quvchining ismi va familiyasi | Temperament tipi | O'quvchi temperamentining u yoki bu tipiga muvofiqligini tasdiklaydigan jadval |
|---|---|---|
| | | |
| | | |

**Topshiriq:**

SHaxsning emoцional qo'zg'olishi va emoцional barqarorligini tekshirish shu bilan birga uning temperament tipini aniqlash.

**Zarur material:** Sekundomer, qator so'zlar, gilam , stol, quti, gazeta, tartibsizlik, devor, vaza, maysazor, plita, mavsum, polotno, kul, beraxm, panja, tugma, raxbarlik, ko'zov, antenna, sandiq, chaqimchi, shubha, daraxt.

**Topshiriqning bajarilishi:** Eksperimentator sekin-asta so'zlarni aytadi (bir minutda beshta so'z ). Sinaluvchi har bir eshitgan so'ziga birinchi bo'lib fikrida paydo bo'lgan so'z bilan tezda javob birishi kerak. qo'zg'ovchi berilgan paytdan to sinaluvchining javobi boshlangunga qadar o'tgan vaqtni, ya'ni reakцiya vaqti protokolga qayd etilib boriladi.

**Bajarilgan topshiriqning natijalarini ishlab chiqish:** Ish natijalari quyidagi jadvalda qayd etiladi:

| **Qo'zg'atuvchi so'z** | **Sinaluvchining javobi** | **Reakцiyaning latent vaqti (sek)** |
|---|---|---|
| | | |

So'ng grafik tuziladi, uning absiцa o'qida reakцiya vaqti belgilab beriladi, ordinata o'qida esa-qo'zg'ovchi so'zning tartib nomeriga mos tushgan nomer belgilab qo'yiladi, 25 ta qo'zg'otuvchidan 5 tasi emoцional ahamiyatli, 20 tasi esa neytral. Reakцiyaning latent vaqti emoцianal ahamiyatli va neytral so'zlarga bo'lgan nisbati emoцional qo'zg'olish va emoцional barqarorlikning ko'rsatkichi bo'ladi. Agar bu ikki vaqt ko'rsatkichi teng yoki salkam teng bo'lib, grafik chiziqlari tutashsa yoki bir - biriga yaqin bo'lsa, sinaluvchi bu holda emoцional barqaror deb hisoblanadi. Agar bu ikki ko'rsatgichi tubdan farq qilib, grafik chiziqlari yiroqlashgan bo'lsa sinaluvchi emoцional ko'zg'algan bo'ladi. Olingan natijalar asosida yana bitta jadval tuziladi.

| Sinaluvchining ismi familiyasi | Sinaluvchining emoцional xususiyatlari | Temperamentning taxminiy tipi |
|---|---|---|

**Topshiriq:** Sinaluvchi shaxsning impul'sivligini tekshirish va shunga asoslanib temperamentning-tipini aniqlash.

**Zarur material.** Sekundamer, juft so'zlar:shokoladli-vanilli , achchiq - shirin, iljyukvali- limonli , xushbuy- chirigan, chuchuk-yaxshi xidli, gorchiцali- murchli , ola-bir tusli, palagda -yangi, sariq - yashil, qizil- sariq, asalli -yalpizli, rangpar – yarqiragan, qizdiradigan- nordon, binafshi rang - nim pushti, mayin- ingichka, gilosli - qora gilosli, iflos- toza, shirin - chuchmal.

**Topshiriqning bajarilishi.** Eksperimentator sinaluvchiga birin-ketin minutiga beshtadan juft so’z beradi. Sinaluvchi berilgan ikki so’zdan qaysi biri unga rangi, xidi (va xokazo) jixatdan ko’proq yoqqan bo’lsa, uni tez tanlab to’g’risiga "Q" belgisini qo’yishi lozim. Protokol qayd etuvchi qo’zg’ovchi berilgan momentdan to tanlash momentiga qadar o’tgan vaqtni xisoblab boradi.

**Bajarilgan topshiriq natijalarini ishlab chiqish:** Ish natijalari quyidagi jadvalga yoziladi.

| qo’llanilgan qo’zg’ovchi | Reakцiyaning latent vaqti (sek) |
|---|---|
| 1.<br>2. | |

So’ng grafik chiziladi. So’z tanlashda oson va qiyin tanlash reakцiyasi lotent vaqtini xarakterlaydigan nuqtalarva ularni birlashtiruvchi chiziqlar boshqa-boshqa ranglar bilan belgilanadi. (Grafik ta’rifini yuqoridagi topshiriqdan bilib oling.)

20 ta juft so’zdan 5 tasini tanlash oson, 15 tasini tanlash qiyin bo’ladi. Tanlanish qiyin va oson o’tishida reakцyaning latent vaqtiga nisbati bilan impulьsivlik aniqlanadi. Agar shu ikki vaqtli ko’rsatkich qariyb teng va ular nisbati birga yaqin bo’lib, grafikning ikkala chizigi o’zaro tutashsa yoki bir-biriga yaqin tursa, sinaluvchi shaxsiy kuchli impulьsiv tipiga kiradi. Agarda so’z tanlashdagi qiyinlik latent vaqtidan ancha ortiq bo’lsa va grafik chiziqlari bir-biridan o’zoq tursa, sinaluvchi shaxsi kuchsiz impulьsiv tipiga kiradi.

**Ishning natijalari jadvalga qayd etiladi:**

| Sinaluvchining ismi, Familiyasi | Sinaluvchining emoцional Xususiyatlari | Temperamentning taxminiy tipi |
|---|---|---|
| 1 | | |
| 2 | | |

**TEMPERAMENT**

**Temperament (g’ayrat)-**bu mijoz ya’ni insan tabiatining tug’ma xususiyati, insonning tashqi dunyo ta’surotlarini singdirish, ulardan ta’sirlanish va ularga javob berish xususiyati. Adabiyotlarda 4 xil g’ayrat juda keng yoritilgan:

**Sangvenik**
**Xolerik**
**Flegmatik**
**Melonxolik.**

Sangvenik (ta’sirchan)-bu xushchaqchaq, oyoq qo’lli chaqqon, sergap, taasurotlarga boy, holatini tez o’zgartira oladigan, yangi sharoitlarga tez moslasha oladigan kishidir. Qiziqirli ishda ser mahsul, boshqalarni jalb qilib, jamoada yaxshi muxitni saqlay oladigan odamlar, bular o’z maqsadiga erishishda nimadir etmaydi, boshlagan ishlarini ohiriga etkaza olmaydilar.

Xolerik (serjahl)-bu serharakat, qizg'in, katta hayotiy kuchga ega, tez qizishib ketuvchi va sekin o'ziga keluvchi, o'zini tuta olmaydigan, sabirsiz tashabbuskor, ish ketidan quvgan, qiyinchiliklardan qo'rqmay muammolarni tez hal qiluvchi, sekin imirsilab ishlashni yoqtirmaydigan toyifaga mansub kishilardir. Keragidan ortiq faollik, qiziqqonlik ularga xalaqt beradi.

Flegmatik (bo'shang)-bu tepsa-tebranmaslar, sekin, ohista, og'ir, gap ko'taruvchi, hissyotlarga be etibor, bir ishni boshqasiga o'zgartirishi o'ta mushkul, atrofdagi o'zgarishlarga bexush, yangiliklarni og'ir qabul qiluvchi, atrofdagilar bilan kelishuvchan kishilardir.

Melanxolik (g'amgin) –bu g'amginlikka moyil, xafaqon, tez toliqadigan va o'ziga ishonmaydigan, tashvishsiz, nihoyatda arazchan, juda oz kuladigan, faolligi sust, tortinchoq, kam g'ayrat, arzimagan sabablarga ko'zlaridan yosh oqib ketaveradigan kishilardir. Ular qulay sharoitda oldiga qo'yilgan masalalarni muvaffaqiyatli bajaradilar. Agar ishda sharoit, ya'ni vaziyat o'zgarsa, qiyinchilik tug'ulsa, ular o'zlarini panaga olib turishadi.

Ammo qayd qilingan temperamentlarning birortasi «sof ko'rinish»da uchramaydi. Har bir kishida ularning xar biridan muayyan nisbat (proporцiya)da mujassamlangan bo'ladi (flegmatiklarga xos temperament juda kam uchraydi). Umuman olganda «temperament» so'zi lotinchadan olingan bo'lib so'zma-so'z «qisimlar nisbati» ma'nosini bildiradi. Aynan to'rt xildagi tayanch temperamentlar kishidagi umumlashgan qisimlar nisbatini aniqlash uchun asos xizmatini o'taydi. SHu maqsadda 4 xildagi temperamentlarning «pasport»larini keltiramiz:

**1. Sangvinik «pasporti»**

**2.**

| № | Sangveniklarga xos mijozlar | Javoblar |
|---|---|---|
| 1 | *Siz xushchaqchaq va hayotdan mamnunsiz* | |
| 2 | *Serg'ayrat va ishchansiz* | |
| 3 | *Ishni ko'pincha oxiriga etkaza olmaysiz* | |
| 4 | *O'zingizga ortiqcha baho berishga moyilsiz* | |
| 5 | *YAngilikni tez ilg'ab olishga moyilsiz* | |
| 6 | *Qiziqish va moyillikda beqarorsiz* | |
| 7 | *Omadsizlik va muvaffaqiyatsizliklarni osonlik bilan unitasiz* | |
| 8 | *Turli holatlarga osonlikcha moslashasiz* | |
| 9 | *Har qanday yangi ishga hafsala bilan kirishasiz* | |
| 10 | *Agar ish Sizni qiziqtirmasa undan tez soviysiz* | |
| 11 | *YAngi ishga tez kirishasiz, bir ishdan boshqa ishga tez o'ta olasiz* | |
| 12 | *Har ikungi ishning bir xilligi va serdiqqatliligi, juda maydaligidan mashaqqat chekasiz* | |
| 13 | *Odamoxun, tez ilg'ovchisiz, yangi odamlar bilan tez til topa olasiz* | |
| 14 | *Mehnat sevar va bardoshlisiz* | |
| 15 | *CHiroyli, xushfe'l, aniq va tez so'zlash mahoratiga egasiz* | |
| 16 | *Kutilmagan murakkab xolatlarda o'zingizni tuta olasiz* | |
| 17 | *Hamma vaqt yaxshi kayfiyatda bo'lasiz* | |
| 18 | *Tez uxlaysiz va tez uyg'onasiz* | |
| 19 | *Ko'pincha nasaronjomsiz, o'zingizni tuta olmay, shoshib qaror qabul qilasiz* | |

| | | |
|---|---|---|
| **20** | *Onda-sonda yuzaki qarashga moyilsiz, chalg'iysiz, diqqatingizni boshqa tamonga qaratasiz* | |

## 2. Xolerik «pasporti»

| № | Xoleriklarga xos mijozlar | Javoblar |
|---|---|---|
| 1 | *Siz kamhafsalsiz* | |
| 2 | *O'zingizni tuta olmaydigan, serjahilsiz* | |
| 3 | *Sabirsizsiz* | |
| 4 | *Keskin va odamlar bilan tik muomila qiladigansiz* | |
| 5 | *Dadil va tashabbuskorsiz* | |
| 6 | *Ayrim kishilar Sizni qaysar deb aytishadi* | |
| 7 | *Bahslarda topqirsiz* | |
| 8 | *Sapchib-sapchib ishlaysiz* | |
| 9 | *Tavakkkalga borguvchisiz* | |
| 10 | *Ginachi va yomanlikni eslab qoluvchi emassiz* | |
| 11 | *Nutqingizda tezkorlik, hissayotga beriluvchanlikka egasiz* | |
| 12 | *Hovliqishga moyilsiz va unga nisbatan muvozanatlashmagansiz* | |
| 13 | *SHiddatli janjalkashsiz* | |
| 14 | *Kamchiliklarga toqatsizsiz* | |
| 15 | *Irodali qarashlarga va imo-ishora qilishga qobiliyatlisiz* | |
| 16 | *Tez harakat qilish va hal etish qobiliyatiga egasiz* | |
| 17 | *Hormay-tolmay yangilikka intilasiz* | |
| 18 | *Tezkor va shidadli harakatlar sohibisiz* | |
| 19 | *Qo'yilgan maqsadga erishishga astoydil harakat qilasiz* | |
| 20 | *Kayfiyatingizni keskin o'zgartirishga moyilsiz* | |

## 3. Flegmatik «pasporti»

| № | Flegmatiklarga xos mijozlar | Javoblar |
|---|---|---|
| 1 | *Siz tinch va vazminsiz* | |
| 2 | *Ishda izchil va ma'suliyatlisiz* | |
| 3 | *Ehtiyotkorlik bilan va o'ylab ish qilasiz* | |
| 4 | *Kuta olasiz* | |
| 5 | *Bekorga gapirishni yoqtirmaysiz* | |
| 6 | *Ohista, bir tekisda dona-dona, keskin gapirmay nutq so'zlash va imo ishoralar bilan muomila qilish madaniyatiga egasiz* | |
| 7 | *Sabirli va toqatlisiz* | |
| 8 | *Boshlagan ishingizni oxirigacha etkazasiz* | |
| 9 | *Kuchingizni bekorga sarflamaysiz* | |
| 10 | *Hayot tartibiga, ish tizimiga qattiq rioya qilasiz* | |
| 11 | *Zo'rayishni engil qabul qilasiz* | |

| | | |
|---|---|---|
| 12 | *Koyish va ma'qallahni unchalik yoqtirmaysiz* | |
| 13 | *SHa'ningizga aytilgan ziyonsiz so'zlarga e'tiborsizroq qaraysiz* | |
| 14 | *O'z qiziqish va munosabatlaringizda qat'iysiz* | |
| 15 | *Ishga sekin kirishasiz, bir ishdan boshqasiga sekin o'tasiz* | |
| 16 | *Barchaga baravarsiz* | |
| 17 | *Tartib va intizomni yoqtirasiz* | |
| 18 | *YAngi holatlarga qiyinchilik bilan moslashasiz* | |
| 19 | *Kamharakit, inertsiz* | |
| 20 | *O'zingizni tutib tura olasiz* | |

## 4. Melanxolik «pasporti»

| № | Melanxoliklarga xos mijozlar | Javoblar |
|---|---|---|
| 1 | *Siz uyatchan va tortinchoqsiz* | |
| 2 | *YAngi holatlarda o'zingizni yo'qotib qo'yasiz* | |
| 3 | *Notanishlar bilan tanishishga qiynalasiz* | |
| 4 | *O'z kuchingizga ishonmaysiz* | |
| 5 | *Tanholikni oson engasiz* | |
| 6 | *Muvaffaqiyatsizlikdan o'zingizni yo'qotib qo'yasiz* | |
| 7 | *O'zingiz bilan bo'lishga moyilsiz* | |
| 8 | *Tez charchab qolasiz* | |
| 9 | *Bo'sh, ohista, pichirlab gapirishgacha qobiliyatingiz bor* | |
| 10 | *Suhbatdoshingiz xarekteriga moslasha olasiz* | |
| 11 | *Ko'zga yosh oladigan darajagacha taassurotchansiz* | |
| 12 | *Qo'llab-quvvatlashga va tanbeh berishga o'ta moyilsiz* | |
| 13 | *O'zingizga va atrofdagilarga yuqori talablar qo'ya olasiz* | |
| 14 | *SHubha, gumon qilishga moyilsiz* | |
| 15 | *O'ta sergak va juda oson yaraluvchansiz* | |
| 16 | *O'ta hafa bo'luvchisiz* | |
| 17 | *O'z qobig'ingizga o'ralagansiz, o'z fikirlaringiz bilan bo'lishmaysiz* | |
| 18 | *Kam faol va qo'rqoq, hadiksiraydigansiz* | |
| 19 | *Odamoxunsiz* | |
| 20 | *Hamdardlik ko'rsatishga va atrofdagilarga yordam berishga tayyorsiz* | |

**Test savoliga javob beruvchining vazifasi** – o'zi tanlagan mijoz ro'parasi (3-ustun)ga «plyus» (plyus) ishorasini qo'yib chiqishdan iborat. SHundan so'ng temperament A. Belov tamonidan taklif qilingan quydagi formula yordamida hisoblanadi.

$$\Phi_T = X\cdot\frac{A_x}{A}x\cdot 100 + C\frac{A_c}{A}\cdot 100 + \Phi\cdot\frac{A_a}{A}\cdot 100 + M\cdot\frac{A_{\text{м}}}{A}\cdot 100$$

Bu erda:

$F_t$- temperament formulasi;

X- xolerik temperamenti;

S- sangvenik temperamenti;
F- flegmatik temperamenti;
M- melanxolik iemperamenti;
A- barcha (4xil) mijozlar bo'yicha belgilangan «plyus»lar soni;
$A_x$- xolerik «pasporti»da belgilangan «plyus» lar soni;
$A_s$- sangvenik «pasporti»da belgilangan «plyus»lar soni;
$A_f$- flegmatik «pasporti»da belgilangan «plyus»lar soni;
$A_m$- melanxolik «pasporti»da belgilangan «plyus»lar soni.

Faraz qilaylik, «plyus» larni hisoblab, formula asosida aniqlab chiqqan temperament darajasi quydagicha bo'lsin

$$\Phi_T = 35\% X + 30\% C + 14\% \Phi + 21\% M$$

Bu degan so'z, mazkur temperamentdagi kishida 35 foiz xoleriklarning mijozi, 30 foiz sangveniklarning mijozi, 14 foiz flegmatiklarning mijozi va 21 foiz melanxoliklarning mijozlari mujassamlashgan.

Agar u yoki bu mijoz bo'yicha ijobiy javoblarning nisbiy ko'rsatkichi 40 foiz va undan yuqori bo'lsa, u holda mazkur temperament Sizda ustuvor hisoblanadi. Agar bu ko'rsatgich 30-39 foizni tashkil qilsa, u holda mazkur mijoz yaqqol ko'ringan sifatda bo'ladi va h. k.

SHuni unitmangki, bunday baholash o'zingizning sub'ektiv yondoshuvingizning natijasidir. Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan subektivizmni bartaraf qilish uchun quydagicha ish tuting:

*Barcha qo'ygan «plyus» ishoralaringizga mos tushuvchi mijozlarning ro'yxatini tuzib chiqing.

*Tuzgan «pasport» ingizni Sizni juda yaqin va yaxshi biladigan kishiga ko'rsating hamda har bir tanlagan mijoz to'g'risida u kishining fikrini bilib «Bu kim»deb so'rang.

*Ehtimol, u kishi bu «aynan o'zingiz-ku» yoki belgilangan ayrim mijozlar inobatga olinmasa «bu Sizga o'xshash temperamentga ega kishi ekan» deb aytishi mumkin.

SHu tariqa o'zingizda qanday temperament ustivor, qoniqarli yoki qoniqarsiz ekanligini bilasiz va yomon qusurlaringizni yo'qotishga harakat qilasiz.

## XARAKTER VA QOBILIYAT MAVZO'SIDA O'TKAZILADIGAN LABORATORIYA ISHLARI

## KLASTER TEXNOLOGIYASI.

- Klaster-fikrlashning to'g'ri chiziqli bo'lmagan shaqli.
- YOzishni yaxshi ko'rmagan o'quvchilarga yaxshi vosita.
- Tasavvurlarga, anglanmagan bilim va bog'lanishlarga yo'l ochib beradi.

***KO'RSATMA.***

50. Oq varaqqa (yoki doskaga) so'z(lar) ni yozing.
51. Quyidagi so'zga tegishli bo'lgan hayolingizga kelgan so'zlarni yoki gaplarni yozing.
52. Fikrlar o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganing
53. Siz barcha fikrlaringiz tugaguncha yoki vaqt tamom bo'lguncha yozing.
54. Hayolingizga kelganini qoldirmasdan yozing. Sifatini o'ylamang.
55. Imloviy va yozuvni syokinlatadigan hatolarga e'tibor bermang.
56. Agar hayolingizga hech narsa kelmasa rasm chizib boshlang balki shunda yangi fikrlar paydo bo'lar.

## SHAXS SO'ZIGA KLASTER TUZING.



## O’QUVCHINING XARAKTERI

Tadqiqotning maqsadi: turli metodlar yordamida o’quvchining xarakterini o’rganish.

Tadqiqotning borishi. Talaba quyidagicha o’sul orqali maktab yoki pedbilim yurti o’quvchisining xarakterini o’rganadi:

- dars va darsdan tashqarii paytlarda o’quvchining hatti-harakatlarini kuzatadi;
- o’quvchining faoliyat samaralari (turli predmetlar buyicha tutgan daftarlari, kontrol ishlari, inshosi, yasagan narsalari va hoqozolar) ni tahlil qiladi;
- o’quvchi Bilan uning qiziqishlari, sevimli mashg’uloti haqida suhbatlashadi;
- o’quvchi to’g’risida uning sinfdosh o’rtoqlari bilan suhbatlashadilar;
- o’quvchi to’g’risida sinf rahbari va otasi-onasi bilan suhbatlashadi.
- o’quvchi to’g’risida ayrim o’qituvchilar bilan suhbatlashadi.

Bularning barchasi o’quvchiga xarakteristika yozish uchun ma’lumotlar olishga yordam beradi. Barcha ob’ektiv xarakteristikalarni taqqoslab, tahlil qilib chiqqandan so’nggina talaba o’quvchiga umumiy xarakteristika yozish uchun kirishishi mumkin.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish**.** Xarakterni tavsiflashda uning quyidagi tarkibiy qismlariga alohida e’tibor bermoq zarur:

1. O’quvchi shaxsining yo’nalganligi (qiziqishlari, e’tiqodi, intilishi va hoqazo).
2. Aqliy faoliyati (qiziquvchanligi, tirishqoqligi, urishqoqligi, fikrni dadillashi va hoqazo).
3. Hissiyoti (hissiyotining qo’zg’alishi, ruhiy barqarorligi, his-hayajoni, ta’sirchanligi).
4. Irodasi (qat’iyatliligi, maqsadga intilishi, o’zini tuta bilishi, mustaqilligi, chidam-bardoshligi va hoqazo).
5. Temperamyontga xos xo’so’siyatlari.

O’quvchi xarakterini tasniflashda uning xarakteriga xos u yoki bu ho’so’siyatlari: o’ziga ishonchi, o’zini boshqarishi, iroda kuchi, so’zda turishi, muvozanatlashganligi va hoqazolar ham hisobga olinishi kerak.

Har bir talaba yozgan xarakteristika psihologiya o’qituvchisining boshchiligida gruppa bo’libmuhoqama qilinadi va baholanadi.

So’ngra har ikkala seriya tekshirish natijalari taqqoslanib, ular o’rtasidagi farq va uning sabablari haqidagi umumiy xulosa chiqariladi.

## XARAKTER.

Topshiriq:

Ushbu parchadan so’zlovchi bolaga xos xarakter hislatlarini topib yozing.

"Tanishib quyaylik : otim Xoshim, erkalatib chaqirmoqchi bo’lsangiz Xoshimjon deb ataysiz.

Familiyam-Ro’ziev, Ro’zivoy traktorchining o’g’liman. Ruxsat bersangiz oilamiz haqida ham ikki -uch og’iz so’zlab o’tsam: dadam ikki - uch yildan buyor cho’lda bulьdozer haydab er tyokislaydi, oyimning aytishiga qaraganda o’sha tomonlarga ham paxta ekisharmish. Bir oyda , ba’zan ikki oyda qilib ketadi. Kelganida har birimizga alohida - alohida sovg’a salomlar olib keladi. Oyim bo’lsa uyumizdan uch yuz metr naridagi fermada sigir sog’adi. Bir o’ziga 24 govmish qaraydi. O’tgan yili sutni ko’p soqqan uchun medalь ham olgan. O’sha medalni oyimdan yashirib myon ham ikki

marta taqdim. Bir marta taqib bozorga borib sabzi- piyoz olib kldim, ikkinchi marta taqib maktabga bordim, direkorimiz chaqirib olib rosa urushdi.

Katta singlim Oyshaxon to'rtinchi sinfda o'qiydi. Hovlini supurish, idish-tovoqlarni yuvish o'shaning buynida. Oyim uni "Oppoqqinam jonimning huzuri" deb erkalatgani erkalatgan. Oyim uni bag'riga bosib suygan kuni myon ham biqinidan syokingina chimdib: Puchuqqinam deb quyman.

Kichik singlimning oti Donoxon. Xozir birinchi sinfda o'qiyapti. Oyimning aytishiga qaraganda u katta bo'lsa, albatta doqtor bo'larmish. Myonimcha undan doqtor chiqmasa kerak. Nega desangiz ko'cha-kuyda hamshiralarga ko'zi tushib qolsa, uqol qiladi deb tog'dan takka kochadi. Tunov kuni maktab hovlisida oq halat kiygan bufetchini ko'rib, doktor keldi deb derazadan kochibdi.

Rostini aytsam, o'zim ham unchalik yomon bola emasman. Aql-xushim joyida odobim ham chakki emas oltinchi sinfning intizomli o'quvchilaridanman. Bir xil, toifa sho'h bolalarga o'hshab kun buyi ko'cha changitib yurmayman. YAshirib nima qilaman, ko'cha changitib yurgandan ko'ra komandaga bo'linib olib, to'p tepgan yoki holiroq joyga, masalan, oying harchand chaqirsa ham ovozi etmaydigan joyga borib olib chillak uynagan ming marta yaxshi.

(X. Tuxtaboev, "Sariq devni minib " "YOsh gvardiya".,1969)

T o p s h i r i q :

quyidagi parchani o'qing. Undagi ikki bola xarakteriga xos hislatlarini topib yozing. Ularni o'zaro taqqoslang.

--- Aytchi, lagerdan qanaqa uyinlar o'rganib kelding?- deb so'radim Orifdan.

--- Har xilidan o'rgandik ... Ho'p desang, syonga ameriqancha foko's ko'rsatip quyyaman ... Rostini aytsam sayohatda yurganimda juda ko'p foko'slarni ko'rdim. Bir xillari shunakangi qiyinki. aqlingni har qancha ishlatsang ham, bari bir hech narsa tushunolmaysan. Lyokin amerikancha foko'sni birinchi marta eshitishim. Extimol juda qiziqdir, o'rganib olsam bir kuni ish berib qolar.deb o'yladim-da:

—O'shaningni myonga ham o'rgatib quy,— deb iltimos qildim.

Orif to'satdan jiddiylashib boshini sarak-sarak qildi:

-Yo'q syonga o'rgatmayman.
-O'rgatasan
.... O'rgatmayman dedim o'rgatmayman
-qani,o'rgatmay ko'rchi
-Bilaman o'rgatsam darrov yig'lashga to'shasan,
-Myon-a?
-Ha syon
-Myon yig'laymanmi?
-Demak yig'lamaysan -a ?
-Yo'q yig'lamayman
-Yo'q biri bir o'rgatmayman.

Orif paysalga solgan sari amerikancha foko'sga bo'lgan qiziqishim oshaverdi. YOlvordim, iltimos qildim ishqilib kundurmaguncha quymadim-da.

-Bor bo'lmasa,-dedi Orif yumshab o'ylaringdan qiyik bilan bir quchoq pishiq arqon olib chiq. Tezroq chiq., bo'lmasang ketib qolaman ..

Ko'z yumib ochguncha arqon bilan qiyiq olib chiqdim. Keyin Orif ko'rsatib o'rgatib turdi. qiyiq bilan ko'zimni mahkam bog'ladim. Orif chilbir bilan qullarimni orqamga qilib chandib tashladi.

-Endi erga cho'kkalla -deb buyurdi u.
-CHo'kkaladim.
-O'tgan yili myoni o'rgatgan eding -*a* so'radi Orif.
-Keyin kechirim so'ragan edim-ku
-yo'q o'rganing esingdami?
-Esimda. qani foko'sni tezroq ko'rsat.

-Mana mana syonga amerikancha foko’s

Orif yugirib kelib elkamga zarb bilan shuday tepdiki peshonam borib erga urildi. O’rnimdan turay desam turolmayman. Dodlay desam og’zimga kum tulib qolgan, ovozim chiqmaydi.Bir mahal elkamga suyanib o’rnimdan turabtgan edim, bir narsa qornimga kelib urildi. Ketidan "bezori, boshimga eting- ku" degan ovoz ham enshtilib qoldi. Keyin u yog’i juda tez ketti: kimdir avval qo’limni so’ngra ko’zlarimni echib tashladi. Motorli velosipet minib muyulishdan chiqib kelgan Odiljon aka bexosdan myonga urilib munkib ketibdi da borib miyasi bilan to’ppa to’g’ri (muljalni to’g’ri olganini qarangki )tutga urilibdi.

-Bezori boshni eding ku, dedi yana myonga qaramay. Bir nafasda hamma yokni odam bosib ketdi.SHovkin solib qo’shnimizning uyidan buvijonim ham chiqib keldi. qayoqdandir oyim ham paydo bo’lib qoldi:

-Nima gan nima qildilaring myoni bolamni,— dedi oyim yig’lagiday bo’lib. Bolangizga jin ham o’rgani yo’q,—dedi Orifning oyisi. SHundan keyin hammasi myoni o’rtaga olib bezoridan olib bezoriga solishdi. Oyim bilan dadam myoni juda erkalatib yuborishgan emish, shu ketishda ketaversam myondan kip-qizil bezori chiqar emish. Gapni qarang-a bezorining qizili-yusarigi ham bo’lar ekan. Myon ham ayib Orifda degan edim, baloga qoldim. qilg’ilikni qilib nega tag’in birovga to’nkaysan deb hatto myoni gapirtirgani quyishmadi. Orif bo’lsa bir chekkada turib tilini chiqarib myoni ajab bo’ldi degandek mashara qiladi. (X. Tuxtaboev . «Sariq devni minib», «YOsh gvardiya», T. 1969)

**<u>Top shi riq:</u>**

Parchani o’qing.

1. SHaxs xarakteri berilgan urinlarni, motiv va yunalishlarini belgilab chiqing.
2. O’z javobingizni asoslab bering,

Anatoliy V. 18 yoshda. Anatoliy mehnatsevar va uta insonparvar shifokarlar oilasida tug’ildi va o’sdi. Ota onalari bolaga yoshlik chog’idanoq insonparvarlik va san’atga mehr uyg’otdilar. U hali maktabgacha yoshdaligidayok zo’r qiziqish bilan rasm chizar, pianino chalar , ashula aytar va deklomaцiyalar qilar edi. Anatoliy maktabga katta qiziqish to’lqinlanish bilan bordi. U intizomli bo’lib yaxshi o’qidi. 8-sinfda L.N. Tolstoy asarlariga qiziqdi. U Tolstoydagi ulug’ gumanizim va haqiqatni sezdi. Keyiniroq sovet kishilardagi qahramonlik uning idealiga aylandi. Pavel Korchagin, Aleksey Meresьevlar Anatoliyning axloq harakatlaridagi namunalar bo’lib qoldi.

Anatoliy darslarni diqqat bilan tinglaydi, uy vazifalarini hamma fanlar buyicha o’z vaqtida bajaradi, tarix va adabiyotdan esa o’qiydi. Anatoliyning javobi to’la va chuqur mazmunli bo’lar edi. Anatoliy jamoani sevadi. «Myon uchun jamoan hamma narsadan aziz» - deydi u. O’z sinfi va maktabi uchun hamma narsaga tayyor. Devoriy gazeta tayyorlash uchun qanchalik berilib ishlaganini ko’rsangiz edi. Anatoliy ajoyib o’rtoq. Istagan vaqtda o’qishda hammaga yordam berishga tayyor. Buning uchun darsdan so’ng yo maktabda qolar, yoki urtog’ini uyiga chaqirib kelib uzoq vaqt chidam bilan tushuntirardi. Jamoada Anatolini yaxshi o’rtoq bo’lganligi uchun hamma sevadi. U hamma vaqt ham jamoaning hamma a’zolari bilan yaqindan muomalada bo’ladi. Anatoli o’qituvchilar bilan xushmuomala ishchan ammo qullarcha bosh egmaydi xushomadguy ham emas.

Haqiqatni juda hurmat qiladi. Bir vaqt uning bahosini bir oz kutarishganday, urtog’inikini esa pasaytirishganday tuyuldi unga. U astoydil o’yladi, o’qituvchining yoniga, borib urtog’i bilan birga dars tayyorlaganini va balki har ikkalasi ham fanni «a’lo» ga bilmasliklarini, birga dars tayyorlaganda esa urtog’ining undan ancha ko’p bilganligini aytdi. «Hurmatli muallim myoni kechiring.Bizning baholarimizni almashtirib quysangiz, myonga «to’rt» urtog’imga besh quysangiz shunda adolatli bo’ladi». Deb o’z iltimosini aytdi.

**<u>Topshiriq:</u>**

Parchani o’qing. Mirzakarimboyning xarakteriga xos hislatlarini aniqlang.

Mirzakarimboy Yo'lchi bilan turli narsalar haqida uzoq suxbatlashdi, lyokin yigrma uch yoshli yigitning aqlida siri nukson ko'rmadi. Uning arslonday ko'rkam gavdasi, kyong peshonasi chuqur samimiyat ifodasi bilan to'la yirik xushyor ko'zlari kir yaktagi ichidan kavarib to'rgan kyong kukragi bakuvvat qullar so'zlaridagi kishloqcha soddalik va to'g'rilik ( bu xo'so'siyatni kambog'al odamlarda katta fazilat deb topar edi boy )unga juda yokdi.

**Topshiriq.**

Parchani o'qing., buyuk tibiatshunos olim I. V. Michurin xarakteriga xos hislarlarni aniqlang ularni taxlil qiling.

Myoning yosh do'stlarim, biz shunday zamonda yashamoqdamizki , bu zamonda odamning eng oliy maqsadi dunyoni tushintirib berishdangina iborat emas, balki uni o'zgartirish va yaxshilikdan ham iboratdir 60 yildan beri ishlab kelmoqdaman. Odamlar myoni juda ko'p ish qildi deydilar. Myon shuni aytardimki, bu qilingan ishlar hali qilinishi mumkin va zarur bo'lgan ishlarga qaraganda unchaqil ko'p emas. Kelgo'si avlodga, jumladan, myoning yosh do'stlarim ko'p ish qilishgato'g'ri keladi.

**Topshiriq:**

Parchani o'qing. Ivan Ivanovich bilan Ivan Nikifrovichning xarakterlaridagi farqlarni aniqlang, o'z mulohazalaringizni ayting.

Ivan ivanovichning juda yaxshi muomalalik va gapdonlik fazilati bor. SHunday yaxshi gpiradiki uning gapini eshitganingizda xomush bo'lib qolasiz. Xo'zo'r qilasiz, chumilib chiqkandan keyin uxlagandek mazza qilasiz. Ivan Nikifrovich bo'lsalar, aksincha doim sukut qiladilar, ammo gapirgudek bo'lsalar shuday shartta kesadilarki, har qanday utkir tig ham unday kesolmaydi. Ivan Ivanovich orikroq, novcha. Ivan Nikifrovichning buyi pakanaroq bo'lsa ham yugondan kelgan. Ivan Ivanovichning boshi uchuni pastga qilib tunkarib quygan turpga o'hshaydi. Ivan Ivanovich ayvonda ko'ylakchan bo'lib, faqat tushlik ovkatdan so'ng yotadi. Kechko'run bo'lsa po'sti-nini kiyib, unini sotadigan shahar magaziniga bora yo esa dalaga chiqib bedana ovlar edi. Ivan Ivanovich bo'lsa ertadan kechgacha eshik oldida yotadi, agarda kun uncha issik bo'lmasi, albatta, orqasini kunga berib yotadi va boshqa hech qayrga borgisi kelmaydi.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING PSIHOLOGIK XO'SO'SIYATLARINI O'RGANISH VA ULARGA PEDAGOGIK-PSIHOLOGIK XARAKTERISTIKA YOZISH

### Namunaviy sxema

Kuzatish uchun uch nafar (harakatchan, so'stkash va vazmin) bolani tanlab, quydagilarni aniqlashga harakat qiling;

I. Umumiy ma'lumotlar:

A) bola tarbiyalanayotgan muassasa, guruh;

B) tug'ilgan kuni va yili;

V) familyasi, ismi, otasining ismi;

G) jismoniy kamolati va salomatligi;

D) qaysi oliladan ekanligi, yashash sharoiti, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari;

E) shu muassaga qachondan qatnay boshlaganligi

II. Guruh tarbiyachisi va bolalar Bilan muomila munosabati:

1. Bolaning guruhdagi obruyi, boshqa bolalarni yoqtirishi, shuningdek, uni ham boshqa bolalarning yoqtirish yoqtirmasligi;

2. Guruhdaga kimlar Bilan inoq? Ularning inoqligi nimalarda ko'rinadi?

3. Bolalar Bilan kelishaolmay janjallashaolmaydimi, nima sababdan?

4. Guruhda o'zini erkin his qiladimi, guruhdagi umumiy holat unga yoqadimi, sababi nimada?

5. O'zaning bog'chaga qatnayotganidan xursantmi?

6. Guruh tarbiyachisi bilan munosabati bilan qanday, uni yoqtirmaydimi, hurmat qiladimi?

III. Bolaning faoliyati va psixik proцesslarining rivojlanish darajasi:

1. Kuzatilgan bolalarning mashg'ulotlaridan aktivligi;
2. Bolaning so'z boyligi, nutqning obrazliligi, emoцionlligi. Ifodaliligi, o'z fikrini og'zaki bayon qila olishi, gapirish sur'ati va ovoz tipi.
3. Bolaning mashg'ulotlarga qiziqishi, qaysi mashg'ulotlarga qiziqishi.
4. Bola diqqatining ixtiyoriyligi, to'rmzlanish, kuchi, barqororligi va taqsimlanishi.
5. Bolaning xotirasi, esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushurishning tezligi, mehaniq yoki mantiqiyligi.
6. Bolaning tafakkuri: taqqoslay olishi, tahlil qilishi, umumlashtira olishi…
7. Uyin va mashg'ulotlarda bola hayoliy obrozlarining namoyon bo'lishi.
8. Bolaning bilishga intilishi, qiziqishi va tirishqoqligi.
9. Tarbiyachi tamonidan berilgan topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi.
10. Bolada tasbirlash, mehnat, badiiy faoliyatlarning qay biriga qobiliyat kuchliroq seziladi? Bu haqda tarbiyachi va ota-onasi bilan suhbatlashish orqali ham ma'lumotlar olish mumkin.

IV. Bolaning intizomi:

1. Guruhdagi kun tartibi, intizom qoidalariga amal qilishi.
2. Berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida ulgurub boradimi?
3. Topshiriqlarni bajarishdan bosh tortmaydimi yoki qanday topshiriqlarni bajarishdan bosh tortadi?
4. Guruhda to'polonchimi yoki vazmin-bosiq osoyishtami?

V. Bolaning xarakteri va temperamyonti:

1. Bolaning xarakteriga xos ijobiy va salbiy hislatlarini ifodalab bering. Axloqiy hislatlari: ziyrakligi, sahiyligi, xudbinligi, qo'polligi, xushmuomilaligi, rahm-shavqatliligi, yoqimtoyligi, yolg'onchiligi, chinso'zligi va hokazo.

Irodaviy sifatlari: qat'iyligi, mustaqilligi yoki yordamga muhtojligi, o'z kuchiga ishonish-ishonmasligi, ko'ngilchanligi, qat'iyatsizligi, bo'shang-erinchoqligi, sabr-toqatliligi, itoatkorligi, qaysarligi va hokazo.

2. Temperamyontiga xos hislatlari: Kuzatilayotgan bolaning ertalab bog'chaga qanday sur'at bilan kirib kelishi, bolalarga qanday qo'shilib ketishi, birga kelgan kishisi bilan qay tarzda ajrashishi, mashg'ulotda topshiriqlarni qay sur'atda (hammadan oldinmi yoki hammadan keyinmi) bajarishi. Tarbiyachining yordamiga muhtojmi yoki mustaqillikka egami?

1. Nutq sur'ati, harakatchanligi, hissiyotlarining paydo bo'lish tezligi va tashqi ifodasi qanday.

2. kayfiyati: quvnoq-xushchaqchaqligi, tund-g'amginligi, badgumonligi, o'zini chetga olib yurishi yoki tegajoq, apoq-chapoqligi, beg'arazligi, arazchiligi va hokazo.
3. Bolani temperamyontning qaysi tipiga kirishi to'g'risida hulosa chiqaring. Ularga qanday individual munosabatda bo'lish keraqligi to'g'risida o'z maslahatlaringizni yozing.
4. Kuzatib, o'rganganlaringizga asoslanib, psihologik-pedagogik xarakteristika yozing.

Talabalarning bolalarga yozgan psihologik xarakteristikalarini muhoqama qilish.

## QOBILIYAT MAVZO'SIDA O'TKAZILADIGAN LABORATORIYA ISHLARI

<u>**KLASTER TEXNOLOGIYASI.**</u>

- Klaster-fikrlashning to'g'ri chiziqli bo'lmagan shaqli.
- YOzishni yaxshi ko'rmagan o'quvchilarga yaxshi vosita.
- Tasavvurlarga, anglanmagan bilim va bog'lanishlarga yo'l ochib beradi.

***KO'RSATMA.***

Oq varaqqa (yoki doskaga) so'z(lar) ni yozing.

Quyidagi so'zga tegishli bo'lgan hayolingizga kelgan so'zlarni yoki gaplarni yozing. Fikrlar o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganing

Siz barcha fikrlaringiz tugaguncha yoki vaqt tamom bo'lguncha yozing.

Hayolingizga kelganini qoldirmasdan yozing. Sifatini o'ylamang.

Imloviy va yozuvni syokinlatadigan hatolarga e'tibor bermang.

Agar hayolingizga hech narsa kelmasa rasm chizib boshlang balki shunda yangi fikrlar paydo bo'lar.

**QOBILIYAT SO'ZIGA KLASTER TUZING.**



**Topshiriq:**

Inson qobiliyati bilan bog'lik bo'lgan faoliyatlarni aniqlang.

A. 1970 yil Nьyu-Iorkda bo'lib o'tgan tilshunoslarning xalqaro kongressida professor Karlo Talьyavini minbarga kutarilib kongress katnashchilarini 50 tilda birin ketin tabrikladi. Professor Talьyavini filologiya fanlar doqtori 50 ta fanlar akademiyasining a'zosi. U 12 yoshidagiligidayok 7 tilni bilar edi. Filologiya buyicha boloniya universtitida ta'lim oldi. Doqtorlik diplomini olganida 15 ta tirik va ulik tilni bilar edi. O'shanda u 22 yoshda edi.

Doqtor Tolьyavini 120 ta tilni biladi. U barcha evropa tillari va dialiktlarida bemalol gaplasha oladi. Unverstitda 25 tilda lekцiya o'qiydi.

Professor Tolьyavini avvalo tilning xarakterini, boshqacha qilib aytganda, ruxini tushinishga, uning talaffo'zini, ohangini o'rganishga harakat qiladi. So'ngra so'z, ibora va gaplarni o'rganadi. Ularni bir-biriga qo'shib takrorlaydi. («Sovet O'zbyokistoni»dan.)

B. 1969 yilda Kiev unverstitida un ikki yoshli Sasha Dvorak o'qishga kirdi. U kirish imtixonlarini mehaniqa-mamavzutika faqulьtetiga muvoffakiyatli topshirdi.

U 4 yasharligida, hali yozishni o'rganmay turib og'zaki ko'paytirish, bo'lish, ildiz chiqarish kabi operaцshsharni bajarar edi. U 7 ga kirganda birdaniga 2-sinfga o'qishga glradi, unda bir oy o'qib 3-sinfga utadi va to'la o'qiydi. 6-sinfga imtixon topshiradi. Besh yilda o'rta maktabni kumush medalь bilan tomomlaydi.

**Topshiriq.**

quyidagi tekstni sinchiqlab o'qing, unda tasbirlangan voqiyalarni sababini tushintirib bering.

I.Nьyuton, G.Gogolь, J.SHolьer maktabda o'qib yurgan paytlarida faxmi kalta va o'quvchi deb nom chiqarganlar.

K.Linney bo'lsa «befaxim» va «bilim darajasi past» bo'lganligi sababli u hakda «o'qishga qobiliyatsiz» bola degan qarorga kelib leцeydan chiqarib yuborilgan.

Rassomchilik akademiyasiga kirmoqchi bo'lgan V.I.Surikovning chizgan rasmlariga qarab turib, inspektor: «bunday rasmlaringiz uchun sizni akademiya yaqiniga ham yo'latmaslik kerak» -deydi.

Taniqli franцo'z yozuvchisi O.Balьzak ham ota-onalari hamda o'qituvchilari tomonidan qobiliyatsiz deb baholanib, faxmi kalta bolalar qatoriga qo'shib quyishgandi. Uni yaxshi o'qishga majbur qilish maqsadida ko'pincha karцerga kamab quyishardi, biroq bunday tadbir juda kam foyda berardi. Keyinchalik esa kattalar «faxmi kalta» bolani o'qitishdan foyda chiqmasligiga ishonch xosil qili, uni o'z.holiga tashyaab quydilar. Hatto O.Balьzakning o'z onasi ham agar u birorta aqilli ran aytgudek bo'lsa, beparvogina: «Onore, nima deb gapirayotganingni o'zing ham bilmasang kerak, albatta»,- deb pisanda qilar edi.

Maktabda yomon o'qigan Nьyuton mashinalarning to'zilishini juda katta qiziqish bilan o'rganardi. «befarosat» Linney bo'lsa, urmon yoki bog'larda botaniqa sohasidagi chuqur bilimlari bilan o'z tyongdoshlarini hayratga solib quyrdi.

Kasb psihologiyasi buyicha psixodiagnostik testlar taqdimi.

Rahbarlik imkoniyati testi.

Siz o'zingizni qanchalik ajoyib rahbar ekanligingizni bilmoqchi bo'lsangiz, u holda quyidagi test savollariga javob bering.

1. Haftaning har bir kuni uchun ish rejasini tuzib chiqasizmi?

a) Albatta tuzaman.

b) Agar turli tuman ishlar ko'payib qolsagina tuzaman.

v) Boshqa qiladigan ishim yo'qmi?

2. Har bir ishga raxnamolik qilish uchun o'z vaqtingizni hisoblab chiqasizmi?
a) Albatta.
b) Ha, juda bo'lmasa taxminan.
v) Ba'zida ayniqsa ish ko'p, lyokin vaqt oz bo'lgan paytda.
3. Biron bir jiddiy qaror qabul qilishdan oldin, jamoa bilan maslahatlashasizmi?
a) Ha, ammo faqat o'rinbosarlar bilan yoki kimga aloqador bo'lsa, shu odam bilan.
b) Ha, myoning fikrimni to'ldirishga yordam bera oladigan har bir hodim bilan.
v) Ba'zida, unda ham vaqt bo'lsagina.
g) qarorni o'zim qabul qilaman, keyin esa ularni hafa bo'lmasliklari uchun o'zimni maslahatlashgandek qilib ko'rsataman.
d) Yo'q, nima qilish keraqligini o'zim yaxshi bilaman.
4. Sizga qanday bir ishni boshqalarga qaraganda puxta va tez qila oladigandek tuyulsa, ammo ishni boshqalar bilan hamkorlikda bajarishingizga to'g'ri kelsa, sizda uni o'zingiz mustaqil bajarish xoxishi paydo bo'ladimi?
a) Yo'q, chunki haqiqatdan ham bu myonga shunday tuyulishi mumkin.
b) Yo'q, chunki elgiz o'zim qanchalik kuyib pishmayin bari-bir hamkorlikda tezroq bo'lishini tushunaman.
v) Paydo bo'ladi, lyokin hech kimni hafa qilmaslik uchun bu haqida og'iz ochmayman.
g) Paydo bo'ladi, bu tushunarli, lyokin hamma uchun bitta o'zim ishlamaymanku!
5. Hatto Sizning fikringizga boshqalar qo'shilmasalar ham,Siz o'z nuqtai nazaringizni hammaga qabul qildirishga urinasizmi?
a) Ha, agar so'zsiz haq ekanligimga ishonsam.
b) Ha, o'zimning obruyimni to'kmaslik uchun.
v) Fikrim noto'g'ri ekanligini so'zsiz isbotlovchi dalillar keltirgunlariga qadar fikrimni o'tkazishga harakat qilaman.
g) Yo'q, kalta faxmlar bilan tortishgandan nima foyda.
d) Yo'q, ko'pchilik hato qilishi mumkin emas.
6. Siz o'z shaxsiyatingizga nisbatan tanqid va tanbehlarga qanday munosabatda bo'lasiz?
a) Eshitganlarimning hammasini xotirjam o'ylab chiqaman, agarda tanbeh yoki tanqid o'rinlik ekanligiga o'zimda ishonch tuygo'si tug'ilsa, u holda hatolarimni takrorlamaslikka harakat qilaman.
b) Oldin jahlim chiqadi, keyin tinchlangach eshitganlarimdan nima o'rinli yoki nima o'rinsiz ekanligi to'g'risida mulohaza yuritaman.
v) Myon tanqid qilgan odamni "ko'ziga cho'p tiqishga" yo'l qidiraman.
g) Agar hurmat qiladigan odam favqulodda myoni tanqid qilsa, jahlim chiqmaydi, boshqa vaziyatlarda esa bunga e'tibor qilmayman.

KALIT:

16-20 ochko: Rahbar bo'lish uchun imkoniyatlaringiz yomon emas. Siz odatda, o'z ish kuningizni to'g'ri tashkil etasiz, qiziqqonlik bilan qaror qabul qilmaysiz, har doim o'z fikringiz bo'lsa ham o'zgalarning fikrini hurmat qilasiz. Hamkorlikdagi ishni bajaraetganingizda "ko'rpani o'zingizga tortmaysiz", etarli darajada o'zingizga tanqidiy qaraysiz. Boshqalar bilan muloqotga kirishganda siz bosiqsiz va hayrixoxsiz. YAgona narsaga e'tibor berishingiz kerak: u ham bo'lsa -ma'lum darajada kelishuvchanlikka yon

berishga moyillik. Ba'zida bu moyillik ish tufayli emas, balki munosabatlarni buzishni xoxlamasligingiz tufaylidir.

13-15 ochko: Siz rahbarlik qilish uchun hali uyushqoqlik, qat'iyatlilik etishmaydi. SHu tufayli ko'p o'ylagan narsalaringizni ohirigacha etkaza olmaysiz. O'z nuqtai nazaringizni ximoya qilaetganingizda sizning to'g'ridan to'g'ri gapirishingizni o'stunligingiz deb baholab bo'lmaydi. Ba'zida siz haddan zied hissietga beriluvchansiz. Ko'proq mulohazalilik va o'zingizni bosib turishlilik sizga halaqit bermagan bo'lur edi. Ammo bularning barchasi ma'lum darajada ochiq ko'ngillilik "qo'ltigingizda" tosh solib yurmaslik xoxishi hamda birdaniga bo'lmasa ham o'z haroyitingizni tan olishingiz bilan yuvilib ketadi.

10-12 ochko: Sizning ishingizni rejalashtirish xoxishining yo'qligi, huddi shuningdek, buni qila olmaslik bilan ham ayblash mumkin emas. Hatto reja tuzsangiz ham unga amal qilishingizga hech qanday kafolat yo'q. Ajablanarlisi shuki, o'z qobiliyatingiz to'g'risida fikringiz, yumshoq qilib aytganda, yomon emas, shu bilan birga sizning qarorlaringiz eng to'g'ri eqaniligiga ishonchingiz ham yo'q. O'zingizni uyoq buyoqqa tashlashda ko'proq siz o'z fikringizda qaysarlik bilan turasiz, gox esa kichkina qarshilikda ham darrov taslim bo'lasiz. O'z shaxsiyatingizga nisbatan tanqidni dushmanlarning ishi deb qaraysiz. Ammo har doim ham buni tan olavermaysiz.

Siz uchun ko'proq tashkillilik va boshqalarning fikriga ko'proq qiziquvchanlik zarur, ishda o'z to'g'ringizda kamroq o'ylashingiz lozim. Ammo ishning o'zi to'g'risida emas.

0-9 ochko: Sizning asosiy qulfatingiz-"yuqori"ning fikriga qarab ish qilish odatidir. "YUqori" nohaq ekanligingizni tushunib tursangiz ham siz hech qachon ularni inkor etmaysiz, ko'rsatmalarni bajarmaslik to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Buning negizida barcha qolganlarning oqibati kelib chiqadi: ko'rsatmalarga rioya qilinar ekan, o'zingiz fikrlab, nimalarnidir tashkil qilib, tortinib yurishga nima hojat. SHaxsiyatingizga bo'lgan tanqidlarga nisbatan "beparvosiz", deyish mumkin emas, chunki ular sizga tegib ketadi, lyokin siz baribir biron narsani o'zlashtirishga intilmaysiz. Hamkorlikdagi ishda odatda siz nima topshirilgan bo'lsa, shuni bajarasiz. Biroq sizda ishga nisbatan qiziqish paydo bo'lsa, unda siz o'zingizda mustaqillik, qat'iylik, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyon qilishingiz mumkin.

Test kaliti

| Javoblar t.k.№ | Savollar tartibi. | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| A | 3 | 3 | 0 | 1 | 3 | 3 |
| B | 2 | 2 | 4 | 3 | 2 | 2 |
| V | 0 | 0 | 3 | 2 | 4 | 0 |
| G | | | 2 | 0 | 1 | 1 |
| D | | | 1 | | 0 | |

# Yoshlar iqtidorining yo'nalishini aniqlash metodikasi

Rus olimi I.A.Kilimov yoshlar iqtidorining yo'nalishini aniqlash maqsadida faoliyat va kasb-hunar sohalarini asos hilib olib, metodika yaratdi va uni «Professional-diagnostik so'rovnoma» (PDS) deb atadi. Muallif barcha kasblarni ularning yo'naltirilgan sohasiga ko'ra 5 toifaga bo'ldi:

P(T)-tabiat (o'simlik, hayvonlar, mikroorganizmlar);

T- texnika (mashina, materiallar, energiyaning turlari);

CH(O)- odam (odam guruhi, jamoalar);

Z (B)- belgilar (turli ma'lumotlar, belgili simvollar);

X(I)- badiy, ijodiy obrazlar (tasviriy san'at, musiqa).

So'rovnomv bolaning shu turli kasblarga moyillikni aniqlaydi. Unga 20 juvt savollar kiritilgan bo'lib, tekshiriluvchi maxsus javob varaqasida qay darajada u yoki bumashg'ulot turi bilan shug'ullanishga moyilligini belgilash kerak. CHunonchi, o'sha ish unga juda yoqsa, 3 ta «plyus», umuman yoqsa -2 ta va sal yoqsa -1 ta plyus qo'yadi. YOqmasa, mos holda 3ta, 2ta va 1ta «minus» belgisi qo'yishi kerak. Quyida biz sizga shu so'rovnomani keltiramiz.

**Differenцial – diagnostik so'rovnoma**

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | hayvonlarni parvarish qilish | | yoki 1 b | mashina va uskunalarga qarash | |
| 2a | kasal odamlarga yordam berish, ularga qarash | | yoki 2 b | jadval, sxema va EHM uchun dasturlar tuzish | |
| 3a | kitoblar, rasimlar va plakatlar sifatini nazorat qilish | | yoki 3 b | O'simliklar holati va rivojini kuzatish, parvarish qilish | |
| 4a | Materiallarni qayta ishlash (yog'och, mato, metall, plastmassa va b.q) | | YOki 4 b | Tovarlarni xaridorga etkazish (reklama qilish, sotish) | |
| 5a | Ilmiy-ommabop kitoblarni muhokama qilish | | YOki 5 b | Badiy asar (pьesa, konцertlar)ni muhokama qilish | |
| 6a | Hayvon bolalarini parvarish qilish | | 6 b | Tengqurlar va kichik yoshlar malakalarini mashq qildirish | |
| 7a | Rasm va tasvirlardan nusxa ko'chirish (yoki musiqa asbobini tuzatish) | | 7 b | YUk ko'taruvchi vositani (kran, traktor, teplovoz) boshqarish | |
| 8a | Odamlarga ma'lumot etkazish (ma'lumotlar byurosi, ekskursiyada) | | 8 b | Ko'rgazma, vitrinalarni jihozlash, pьesa yoki konцertlar tayyorlash | |
| 9a | Narsalar, mahsulotlar, (kiyim, texnik), uylarni ta'mirlash | | 9 b | Matn, jadval, rasmdagi xatolarni to'g'irlash | |
| 10a | Hayvonlarni davolash | | 10b | Hisob-kitoblar qilish | |
| 11a | Ekinlarning yangi navini yaratish | | 11b | YAngi sanoat mahsulotlarini loyihalash, konstrukцiya qilish | |
| 12a | Odamlar o'rtasidagi baxs, | | 12b | CHizmalar, sxema va jadvallarni | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | tortushuvlarda qatnashish, ularni ishontirish, tushuntirish | | | tahlil qilish (tekshirish, aniqlash, to'g'rilash) | |
| 13a | Badiy havaskorlik to'garagida qatnashish | | 13b | Mikroblar hayotini kuzatish va o'rganish | |
| 14a | Tibbiy asbob-uskunalariga xizmat ko'rsatish | | 14b | Odamlarga tibbiy yordam ko'rsatish | |
| 15a | Kuzatgan hodisa, voqealar tavsilotini yozish | | 15b | Voqealarni badiiy bo'yoqlarda aks etirish | |
| 16a | Kasalhonada labaratoriya analizini o'tkazish | | 16b | Kasallarni qabul qilish, ular bilan suhbatlashish, tashxis qo'yish | |
| 17a | Buyumlar yoki devorlarni bo'yash, rasmlar solish | | 17b | Binolarni montaj qilish, mashina hamda uskunalarni yig'ish | |
| 18a | Tengqurlar yoki kichik bolalar bilan paxodlar uyushtirish | | 18b | Sahnada o'ynash, konцertlarda ishtirok etish | |
| 19a | Loyiha chizmalarga qarab buyum-mashinalar tayyorlash, kiyimlar tikish, uy qurish | | 19b | CHizma shakillar, xaritalardan nusxa ko'chirish | |
| 20a | O'simliklar, bog' va o'rmon hashoratlariga qarshi kurashish | | 20b | Klavishli mashinalarda ishlash (yozuv mashinkasi, teletayp, teruv mashinasi) | |

**Ushbu so'rovnomaga javob varaqasi ham ilova qilinadi.**
**DDS ning javob varaqasi**

| P | T | ch | z | X | p | t | ch | z | x |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **1a** | **1b** | **2a** | **2b** | **3a** | **11a** | **11b** | **12a** | **12b** | **13a** |
| **3b** | **4a** | **4b** | **5a** | **5b** | **13b** | **14a** | **14b** | **15a** | **15b** |
| **6a** | | **6b** | | **7a** | **16a** | | **16b** | | **17a** |
| | **7b** | **8a** | | **8b** | | **17b** | **18a** | | **18b** |
| | **9a** | | **9b** | | | **19a** | | **19b** | |
| **10a** | | | **10b** | | **20a** | | | **20b** | |

YUqorida tavsiya etilgan so'rovnoma aslida shaxsning u yoki bu mashg'ulotlar turiga qiziqishini aniqlash orqali unda rivojlantirilishi lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalarni aniqlab olishga yordam beradi. CHunki professional mahorat faqat bilim, yuksak malaka va tinimsiz mehnat hisoыiga rivojlanishini unutmaslik kerak.

MUNDARIJA


1. **FAOLIYAT**……………………………………………………………. ………… **3**

2. **DIQQAT** ……………………………………..…………………….…. 13

3. **SEZGI** ……………………………………………………………….. 27

4. **IDROK** ……………………………………………............................ 32

5. **XOTIRA** …..…………………………………………………………... 38

6. **TAFAKKUR** ………………………………………………………… 47

7. **TEMPERAMENT**……………………………………..……………… … 60

8. **XARAKTER** ……………………………………………………………….. 74

9. Q**OBILIYAT** …………………………………………………………. 81